

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI TERMIZ FILIALI
“ IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR” KAFEDRASI**

ULUG‘OV ABDURAIM HAMZAYEVICH

**YOSHLARNING MA’NAVIY-AXLOQIY DUNYOQARASHINI
YUKSALTIRISHDA BAG‘RIKENGLIK MADANIYATINING O‘ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI**

Termiz – 2025

UUK: 94(575.1)
KBK: 82.3(5U)

Mazkur monografiyada yoshlar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini yuksaltirishda bag'rikenglik madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari haqidagi fikrlar tahlil qilingan. Bugungi kunda dunyo miqyosida siyosiy integratsiya va o'zaro bog'liqlik jadal rivojlanayotgan bugungi davrda murosasizlik, o'zaro adovat, toqatsizlik va keskinlik kabi salbiy munosabatlar natijasida vujudga kelayotgan nizolar insoniyat taraqqiyoti va tinchligiga raxna solmoqda.

Jamiyatda umuminsoniy tamoyillarni o'zida aks ettiradigan bag'rikenglik madaniyatining ustuvorligiga erishish, uni targ'ib qilish muhim zaruriy va ijtimoiy-madaniy me'yorga aylanib bormoqda. Ayniqsa, bu yoshlarga xos bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish, mavjud ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo'naltiradigan asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababdan yoshlarni turli darajadagi ma'naviy-mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishda bag'rikenglik madaniyatining potensial imkoniyatlaridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda yoshlar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini yuksaltirishda bag'rikenglik madaniyatining o'ziga xos munosabatini shakllantirish, ta'limning dunyoviyligi va savodxonlikni keng yoyish, plyuralizm hamda mazkur soha yo'nalishidagi axborot tarqatish vositalarini rivojlantirish bilan bog'liq tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Monografiya doktorantlar, ilmiy tadqiqotchilar, ma'naviyat targ'ibotchilari hamda keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

F.N.Jo'raqulov - Jizzax davlat pedagogika universiteti o'quv ishlar bo'yicha prorektori, siyosiy fanlar doktori, professor.

Taqrizchilar:

M.T.Musayev – Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi, siyosiy fanlar doktori.

H.M.Rasulov-Termiz pedagogika instituti professori, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Mazkur monografiya Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filialining 2025 yil ___yanvardagi ____ sonli majlisida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

ISBN 978-9943-6084-9-8

© **Abduraim Ulug'ov**, 2025

© «**Nashriyot nomi**», 2025

MUNDARIJA

TARAQQIYOT, YOSHLAR VA BAG‘RIKENGLIK MADANIYATI.....	4
KIRISH.....	11
I- BOB. MA’NAVIY-AXLOQIY DUNYOQARASH VA BAG‘RIKENGLIK MADANIYATI UYG‘UNLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOT.....	14
1.1-§. Ma’naviy-axloqiy dunyoqarashni yuksaltirishning retrospektiv asoslari va namoyon bo‘lish shakllari.....	14
1.2-§. Yoshlarda milliy va umuminsoniy bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish zarurati va rivojlantirish tendensiyalari.....	27
1.3-§. Yoshlarda ma’naviy-axloqiy dunyoqarashni yuksaltirish va bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirishga doir zamonaviy qarashlar tahlili.....	47
<i>Bob bo‘yicha xulosalar.....</i>	<i>58</i>
II- BOB. YOSHLARDA MA’NAVIY-AXLOQIY DUNYOQARASH VA BAG‘RIKENGLIK MADANIYATINI YUKSALTIRISH OMILLARI HAMDA SHART-SHAROITLARI.....	60
2.1-§. Jamiyat ijtimoiy-siyosiy hamda ma’naviy-axloqiy hayotini rivojlantirishda bag‘rikenglik madaniyatining o‘rni.....	60
2.2-§. Yoshlarda bag‘rikenglik tuyg‘usini shakllantirish millatlararo munosabatlarni tartibga solishning o‘ziga xos mexanizmi sifatida.	70
2.3-§. Yoshlarda ma’naviy-axloqiy dunyoqarash va bag‘rikenglik madaniyatini yuksaltirishda ijtimoiy muhitning ahamiyati.....	83
<i>Bob bo‘yicha xulosalar.....</i>	<i>94</i>
III- BOB. YOSHLARNING MA’NAVIY-AXLOQIY DUNYOQARASHI VA BAG‘RIKENGLIK MADANIYATINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI.....	96
3.1-§. Yoshlarda ma’naviy-axloqiy dunyoqarashni yuksaltirishga doir ustuvor vazifalar.....	96
3.2-§. Yoshlarda bag‘rikenglik madaniyati va siyosiy-huquqiy tafakkur uyg‘unligining o‘ziga xos xususiyatlari.....	111
3.3-§. Milliy ma’naviy taraqqiyotni ta’minlashda yoshlar axloqi va bag‘rikenglik madaniyatini yuksaltirishning potensial imkoniyatlari va strategik vazifalari.....	119
<i>Bob bo‘yicha xulosalar.....</i>	<i>129</i>
XULOSA.....	131
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	135

TARAQQIYOT, YOSHLAR VA BAG‘RIKENGLIK MADANIYATI

Hozirgi dunyo taraqqiyoti yoshlar dunyoqarashiga juda keng va turli xil yo‘nalishlarda ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu ta’sir ijobiy va salbiy jihatlarni qamrab oladi. Zamonaviy globallashuv va axborot texnologiyalarining taraqqiyoti yoshlarning ma’lumotga tezkor kirishini ta’minlaydi, ularning fikrlash tarzi va dunyoqarashini kengaytiradi. Biroq, bu jarayonda yoshlar turli madaniy, ijtimoiy va diniy qarama-qarshiliklar bilan ham yuzma-yuz kelishlari mumkin. Bunda bag‘rikenglik madaniyati yoshlarga turli fikr va qarashlarga ham hurmat, ham ehtiyotkorlik bilan qarashni o‘rgatadi. Bu esa ularning global jamiyatda samarali muloqot qilishini va ziddiyatlarni yengishini osonlashtiradi. Bu jihatdan A.Ulug‘ov tomonidan tayyorlangan ushbu monografiya muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi dunyoda ma’lumotlarning xilma-xilligi va ta’sirchanligi bugun hayotga hushyorlik bilan yondashuvni talab etadi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar turli ma’lumotlarga ega bo‘lishadi, lekin ayrim ma’lumotlar yolg‘on, manipulyatsiya yoki radikal g‘oyalarga to‘la bo‘lishi mumkin. Shunday sharoitda bag‘rikenglik madaniyati yoshlarga ma’lumotlarni tanqidiy tahlil qilish, hushyorlik bilan munosabatda bo‘lish va muloqot jarayonida murosqa qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Bugun dunyoda millatlararo va madaniyatlararo aloqalar yuqori darajada kengaygan. Turli millat va madaniyat vakillari o‘rtasidagi aloqalar salbiy yoki ijobiy ko‘rinishlarda kengayib bormoqda. Bu esa yoshlar zimmasiga turli madaniyatlar va qadriyatlarni tushunish majburiyatini yuklaydi. Shu bilan birga, turli xil noto‘g‘ri tushunish yoki nizolarga sabab bo‘lishi ham mumkin. Mazkur sharoitda bag‘rikenglik madaniyati A.Ulug‘ov qayd etgani kabi, yoshlarga boshqa madaniyatlarni tushunish va ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni o‘rgatadi. Bu millatlararo totuvlik va madaniyatlararo muloqotni mustahkamlash uchun muhimdir.

Dunyoda global darajada mafkuraviy va axloqiy tahdidlar paydo bo‘ldi. Ushbu jarayonlarda yoshlar xilma-xil va ko‘plab radikalizm, ekstremizm va mafkuraviy tahdidlarga duch kelishmoqda. Bunday tahdidlar yoshlarning dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Biroq, bag‘rikenglik madaniyatiga ega bo‘lish yoshlarni bu tahdidlarga nisbatan immunitetli qiladi va ularga ijobiy, insonparvar qadriyatlarga asoslangan dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi.

Hozirgi davrda ta’lim olish va ishlash imkoniyatlari yuzasidan chegaralar borgan sari barham topmoqda. Globallashuv va iqtisodiy rivojlanish yoshlar uchun yangi ta’lim va ishlash imkoniyatlarini yaratmoqda. Lekin, turli madaniyatlar bilan munosabatda o‘ziga ishonchsizlik yoki noto‘g‘ri tushunish kabi holatlar ham rivojlanmoqda. Bunda ham bag‘rikenglik dunyoqarashi madad berishi mumkin.

Chunki, bag‘rikenglik madaniyati yoshlarga turli muhitlarda ishlashga moslashishni, madaniyatlararo ko‘nikmalarni rivojlantirishni va muvaffaqiyatli integratsiyani ta‘minlashni o‘rgatadi.

Dunyodagi texnologik va ijtimoiy o‘zgarishlar yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Bugun dunyo mamlakatlarida milliy ayirmachilik, ijtimoiy yoki e‘tiqodiy adolatsizlik, kamsitishlar ham rivojlanmoqda. Bu kabi sharoitlarda bag‘rikenglik madaniyati ijtimoiy adolat va inson huquqlarini himoya qilishga asoslangan dunyoqarashni shakllantiradi. Bu yoshlarga har qanday vaziyatda ijobiy va kuchli shaxs bo‘lishga yordam beradi.

Xullas, siyosatshunos Abduraim Ulug‘ovning mazkur monografiyasiga bugungi kunda mana shuning uchun ham ehtiyoj bor. Olim ta‘kidlagani kabi, hozirgi davr taraqqiyoti yoshlar dunyoqarashiga keng ta‘sir ko‘rsatmoqda, ularning fikrlash, muloqot va hayotga munosabatini tubdan o‘zgartirmoqda. Shu sharoitda bag‘rikenglik madaniyati yoshlarni ijtimoiy, madaniy va shaxsiy rivojlanishi uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Bu madaniyat yoshlarni global dunyodagi o‘zgarishlarga moslashuvchan, murosa qilishga moyil va ijtimoiy mas‘uliyatli shaxslarga aylantirishda muhimdir.

Monografiyada bag‘rikenglik madaniyati keng tadqiq etiladi, mazkur tushunchaning mazmun va mohiyati mahorat bilan ochiladi. Haqiqatan, bag‘rikenglik madaniyati yoshlarni turli millat va din vakillari o‘rtasidagi o‘zaro tushunish va hamkorlik muhitini shakllantirishga yo‘naltiradi. Bu jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik va tinchlikni mustahkamlaydi. Bag‘rikenglik madaniyati yoshlarga boshqalarning fikrlari, urf-odatlari va madaniyatiga hurmat bilan qarashni o‘rgatadi. Bu ularni global dunyoga integratsiyalashishda muhim jihat hisoblanadi. Bag‘rikenglik madaniyati demokratik jamiyat qurish uchun zarur bo‘lgan muloqot, tinglash va fikr almashish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Zamonaviy dunyoda yoshlar axborotga ega bo‘lishi va uni to‘g‘ri anglay olishlari lozim. Bag‘rikenglik madaniyati yoshlarning axborotni tahlil qilish va to‘g‘ri xulosalar chiqarish qobiliyatini oshiradi. Bag‘rikenglik madaniyati yoshlarga xalqaro tashkilotlar va loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlarini ochib beradi. Bu ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshiradi. A.Ulug‘ov aytgani kabi, ma‘naviy jihatdan shunday tarbiyalangan yoshlar milliy o‘zligini saqlagan holda, umuminsoniy qadriyatlarni qabul qiladilar.

Tadqiqotning mazmunida bayon qilingan ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, bag‘rikenglik madaniyati jamiyatda barqarorlik va ijtimoiy taraqqiyotni ta‘minlashning muhim sharti sifatida talqin etiladi. Mazkur qoidalar yoshlar ma‘naviyatini shakllantirishda doimiy ravishda qo‘llanilishi lozim. Xo‘sh, tadqiqot mavzusi bugun taraqqiyotning qaysi jihatlariga ko‘ra dolzarb? Nazarimizda A.Ulug‘ov bu jihatlarni quyidagilar bilan belgilaydi:

- birinchidan, jahon siyosatida o'ta keng globallashuv jarayonlari kechmoqda. Zamonaviy dunyoda davlatlar o'rtasida siyosiy integratsiya, o'zaro bog'liqlik kuchayib bormoqda. Shu bilan birga, murosasizlik, adovat, toqatsizlik va keskinlik kabi salbiy munosabatlari turli nizolarga olib kelmoqda, bu esa insoniyat taraqqiyoti va tinchligiga salbiy ta'sir etmoqda;

-ikkinchidan, butun jahonda bag'rikenglik madaniyatining ahamiyati ortmoqda. Chunki, keyingi davr jahon ijtimoiy nizolari umuminsoniy tamoyillarni ijtimoiy va madaniy mezon sifatida qayta ko'rib chiqish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. Bunda albatta, bag'rikenglik madaniyati mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan muhim omil hisoblanadi;

-uchinchidan, hozirgi tamaddun sharoitida yoshlar turli mafkuraviy tahdidlarga duch kelayotir. Bag'rikenglik madaniyati esa bu tahdidlarni bartaraf etishda samarali vosita sifatida baholanadi;

-to'rtinchidan, mustaqil O'zbekistonda yoshlarni tarbiyalash, ularning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirish bu jarayonning asosiy qismi sifatida qaraladi;

-beshinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil sentyabr oyidagi BMT Bosh Assambleyasida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusi bu mavzuning global miqyosdagi ahamiyatini yanada oshirdi.

Bag'rikenglik madaniyati, uning ta'limga ta'siri, yoshlar o'rtasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish masalalari hozirgi kunda dolzarb tadqiqot yo'nalishlari hisoblanadi. Shu jihatlardan kelib chiqib, mazkur tadqiqot mavzusi zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy taraqqiyoti uchun juda muhim ahamiyatga ega ekanligi oydinlashadi.

Haqiqatdan ham, yer yuzidagi urushlar, nizolar, iqtisodiy va e'tiqodiy kurashlar ko'plab joylarda bag'rikenglik prinsiplarining tanazzulga uchrayotganini ko'rsatishi mumkin. Ammo bu hodisani bag'rikenglik madaniyatining zaifligi emas, balki uning keng tarqalishi uchun global miqyosda yetarli darajada sharoit va imkoniyat yaratilmayotgani, shuningdek, murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar bilan bog'lash mumkin.

Shu bilan birga, bag'rikenglikning dunyoda tanazzulga yuz tutmasligini A.Ulug'ov qayd etgan qator dalillar bilan asoslash mumkin. Olim ta'kidlagani kabi, BMT, YUNESKO, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro tuzilmalar bag'rikenglikni jamiyatlar o'rtasidagi tinchlik va barqarorlikning asosiy shartlaridan biri sifatida qo'llab-quvvatlamoqda. Masalan, BMT tomonidan qabul qilingan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasi

yosh avlodni bag'rikenglik tamoyillari asosida tarbiyalashga qaratilgan muhim qadamdir.

Globalashuv jarayonida turli millatlar, dinlar va madaniyatlar o'rtasida muloqot ko'lami kengaymoqda. Har qancha ziddiyat va nizolar bo'lmasin, ko'pgina joylarda turli madaniyatlar o'rtasida o'zaro hamkorlik va tushunishning ijobiy misollari ham bor. Aslida, nizolar va qarama-qarshiliklar bag'rikenglik madaniyatiga ehtiyojni yanada oshiradi. Masalan, urush va iqtisodiy tanazzul davrida ham insonlar o'rtasidagi tushunish va birdamlikni shakllantirishga bo'lgan talab ortib boradi.

Bag'rikenglikning uzoq muddatli kelajagi yosh avlodning tarbiyasiga bog'liq. Ko'plab davlatlar va tashkilotlar yoshlar o'rtasida milliy, diniy va madaniy farqlarga nisbatan hurmat shakllantirishga qaratilgan dasturlarni joriy qilmoqda. Bu kelajakda bag'rikenglik madaniyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Monografiyada e'tibor qaratilgani kabi, zamonaviy texnologiyalar va internet orqali bag'rikenglik g'oyalarini keng tarqatish mumkin. Bu vosita orqali turli millatlar va madaniyatlar o'rtasida muloqotning kuchayishiga yordam beriladi. Shu bois, urushlar va nizolar mavjud bo'lganiga qaramasdan, bag'rikenglik tanazzulga yuz tutmasligi kerak. Aksincha, bu kabi qiyinchiliklar bag'rikenglikning yanada keng targ'ib etilishi va jamiyatlar o'rtasidagi murosa va tinchlikni mustahkamlash uchun ishlatilishi lozim. Bag'rikenglik – bu faqat tinchlik vaqtida emas, balki ziddiyatli davrlarda ham muhim madaniy va ijtimoiy prinsipdir.

Tadqiqotda bag'rikenglik madaniyatining quyidagi o'ziga xos xususiyatlariga alohida urg'u berilgan:

- bag'rikenglik madaniyati jamiyatda tinchlik, barqarorlik va millatlararo hamjihatlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida qaraladi. Bu jamiyatda o'zaro hurmat va muloqot muhitini shakllantirishga xizmat qiladi;

- bag'rikenglik madaniyati yoshlarda insonparvarlik, millatlararo va diniy bag'rikenglik, muloqotga ochiqlik kabi ijobiy xulq-atvorlarni rivojlantirishda asosiy vosita hisoblanadi;

- demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyatda bag'rikenglik madaniyati inson huquqlari, erkinliklari va umuminsoniy qadriyatlarni himoya qilishda muhimdir;

- bag'rikenglik madaniyati turli madaniyatlar, urf-odatlar va milliy an'analar o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash vositasidir.

- bag'rikenglik madaniyati turli ijtimoiy va etnik ziddiyatlarni hal qilish, murosa va o'zaro tushunish muhitini yaratish uchun foydali mexanizm hisoblanadi.

- bag'rikenglik madaniyati yoshlarni axborotga asoslangan holda to'g'ri qarorlar qabul qilishga o'rgatadi va ularning ta'lim orqali faol fuqarolarga aylanishini qo'llab-quvvatlaydi.

A.Ulug'ovning bu qarashlari tadqiqotning asosiy maqsadlaridan bo'lib, bag'rikenglik madaniyatining zamonaviy jamiyatdagi ahamiyatini yanada yorqin namoyon etadi.

Tadqiqotda yoshlar orasida bag'rikenglik madaniyatining qator muhim xususiyatlari uchta yo'nalishda yoritib berilgan. Jumladan, birinchi yo'nalishda yoshlar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashi bilan bag'rikenglik madaniyatining o'zaro bog'liqligi haqidagi nazariy qarashlar bayon qilinib, asosiy e'tibor bag'rikenglik madaniyatining yoshlarda umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishdagi roli, turli madaniyatlar va dinlarga hurmatni shakllantirishdagi ahamiyati, yoshlar ma'naviyatining barqaror rivojlanishi uchun bag'rikenglik madaniyatining ijtimoiy va ma'rifiy vosita sifatidagi o'рни ochib beriladi. Ikkinchi yo'nalishda bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar va sharoitlar chuqur tahlil qilingan. Unda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy hayotida bag'rikenglik madaniyatining ahamiyati, millatlararo munosabatlarni tartibga solishda bag'rikenglik madaniyatining mexanizmi, ijtimoiy muhitning yoshlar ongiga ta'siri, turli millatlar va dinlarga nisbatan murosa qilish va tushunish muhitini yaratish masalalari chuqur tadqiq etiladi. Uchinchi yo'nalishda esa yoshlar orasida bag'rikenglik madaniyatini yuksaltirish bo'yicha kelajakdagi strategiyalar va amaliy chora-tadbirlar muhokama qilingan. Bunda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalar, bag'rikenglik madaniyatining siyosiy-huquqiy savodxonlik va demokratik qadriyatlar bilan uyg'unligi, milliy ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashda bag'rikenglik madaniyatining strategik roli va uning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ahamiyatiga keng e'tibor qaratilgan.

Olimning fikricha, bag'rikenglik madaniyati yoshlarni turli fikrlar, urf-odatlar va e'tiqodlarni tushunishga o'rgatadi. U millatlararo totuvlik va hamjihatlik jamiyat barqarorligida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Bag'rikenglik madaniyati yoshlarni axborotni tahlil qilish, uni samarali qo'llashga chorlaydi.

Tadqiqotchi o'z ishida quyidagi kabi muhim xulosalarga kelgan:

-jamiyatda bag'rikenglik madaniyatini yuksaltirish tinchlik va barqarorlikni ta'minlashning muhim shartlaridan biridir. Bag'rikenglik madaniyati ijtimoiy va madaniy xilma-xillikni boylik sifatida qabul qilishga yordam beradi;

-yoshlar ongida bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish insonparvarlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik va muloqotga ochiqlik kabi ijobiy xulq-atvorlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa yosh avlodning ma'naviy kamoloti uchun muhim omil hisoblanadi;

-bag'rikenglik madaniyati demokratik jamiyat qurishning ajralmas qismi sifatida, inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilishni ta'minlaydi. Bu ayniqsa,

yoshlarda siyosiy-huquqiy savodxonlik va demokratik tamoyillarni shakllantirishda muhimdir;

-yoshlar orasida bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirish uchun ijtimoiy muhitning ijobiy ta'siri zarur. Millatlararo munosabatlarda murosa va hamjihatlik muhitini yaratishda ta'lim, oila va jamoatchilik muhim o'rin tutadi;

-bag'rikenglik madaniyati yoshlarni xalqaro hamkorlik jarayonlariga jalb qilish, ularni global tahdidlarga qarshi immunitetli qilish va xalqaro miqyosda muloqotga tayyor qilish imkonini beradi;

-milliy an'analar va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish yoshlarda milliy o'zlikni saqlagan holda jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvni osonlashtiradi;

-bag'rikenglik madaniyati ijtimoiy nizolarning oldini olish, tinchlik muhitini shakllantirish va yoshlar ongida ijobiy dunyoqarashni qaror toptirishda strategik ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari yoshlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini yuksaltirish va ularning bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Bu xulosalar yoshlar tarbiyasida va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi.

Ushbu xulosalar kelajak uchun bir qator jihatlarida muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda bayon etilgan bag'rikenglik madaniyati tamoyillari yoshlarni jahon hamjamiyatining faol a'zolariga aylantirishga yordam beradi. Ular turli millat, din va madaniyat vakillari bilan muloqot qilishda ochiqlik va murosaga moyillik ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu globallashtirish jarayonida yoshlarning xalqaro hamkorlikdagi o'rnini kuchaytiradi. Bag'rikenglik madaniyati kelajakda millatlararo va dinlararo ziddiyatlarni kamaytirish, ijtimoiy hamjihatlik va hamkorlikni mustahkamlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Bu nafaqat mamlakat ichidagi barqarorlik, balki xalqaro miqyosdagi tinchlik uchun ham muhimdir.

Tadqiqotda ta'kidlanganidek, bag'rikenglik madaniyati milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish imkonini beradi. Bu yoshlarning milliy o'zligini saqlab, shu bilan birga, umumbashariy qadriyatlarni qabul qilishiga yo'l ochadi. Natijada milliy an'analar va jahon madaniyati o'rtasida muvozanat ta'minlanadi. Bag'rikenglik madaniyatining shakllanishi kelajakda yoshlar ongida insonparvarlik, adolat, hurmat va hamjihatlik kabi yuqori ma'naviy-axloqiy fazilatlarni qaror toptiradi. Bu kelajakdagi jamiyatning ma'naviy rivojlanishi uchun poydevor yaratadi.

Kelajakda bag'rikenglik madaniyatining shakllanganligi barqaror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlaydigan bilimli, malakali va global fikrlaydigan

kadrlarni tayyorlash uchun muhim omil bo'ladi. Bag'rikenglik madaniyati faol va taraqqiyparvar yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqot yoshlar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini yuksaltirish va ularda bag'rikenglik madaniyatini qaror toptirish orqali jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan strategik ahamiyatga ega ilmiy ishdur. Unda yosh avlodning shaxsiy va ijtimoiy kamolotiga hissa qo'shadigan muhim nazariy va amaliy jihatlar tadqiq etilgan. Shu sababli, bu ish kelajakda yoshlar siyosati, ta'lim va jamiyat taraqqiyotida katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Fazliddin Ravshanovich Ravshanov
Siyosiy fanlar doktori, professor

KIRISH

Jahonda mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy integratsiya va o'zaro bog'liqlik jadal rivojlanayotgan bugungi davrda murosasizlik, o'zaro adovat, toqatsizlik va keskinlik kabi salbiy munosabatlar natijasida yuzaga kelayotgan nizolar insoniyat taraqqiyoti va tinchligiga raxna solmoqda. Shundan kelib chiqib, jamiyatda umuminsoniy tamoyillarni o'zida aks ettiradigan bag'rikenglik madaniyatining ustuvorligiga erishish, uni targ'ib qilish muhim zaruriy va ijtimoiy-madaniy me'yorga aylanib bormoqda. Ayniqsa, yoshlarga xos bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish mavjud ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo'naltiradigan asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababdan, yoshlarni turli darajadagi ma'naviy-mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishda bag'rikenglik madaniyatining potensial imkoniyatlaridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyodagi nufuzli universitet va tadqiqot institutlarida amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlardan ma'lum bo'ladiki, bugungi kunda madaniyat va axloqda bag'rikenglik tarbiyasining ahamiyati, ta'limning bag'rikenglikka ta'siri, yoshlarning ijtimoiy va etnik munosabatlarini o'rganish, yoshlar huquqlaridan bag'rikenglik tarbiyasi vositasi sifatida foydalanishda san'atga asoslangan yondashuv, yoshlarning bag'rikenglik darajasi, ta'lim olish huquqining ko'rsatkichi sifatida bag'rikenglik tamoyilining o'rni, tolerantlik tarbiyasida muloqotning o'rni, bag'rikenglik ta'limining ikki tomonlama psixo-pedagogik modeli, tinchlik uchun bag'rikenglik ta'limi, oila munosabatlarida bag'rikenglik xususiyatlari, yoshlarning kechirimlilik, bag'rikenglik va baxt darajasini solishtirish, tarix saboqlarining bag'rikenglik tarbiyasidagi ahamiyati, bag'rikenglik tarbiyasida maktab va oilaning o'zaro hamkorligiga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda yoshlar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini yuksaltirishda bag'rikenglik madaniyatining o'ziga xos munosabatini shakllantirish, ta'limning dunyoviyligi va savodxonlikni keng yoyish, mazkur soha yo'nalishidagi axborotlarni tarqatish vositalarini rivojlantirish bilan bog'liq tizimli ishlar amalga

oshirilmoqda. Jumladan, “Mamlakatimizda bag‘rikenglik madaniyatini yuksaltirish, millatlar va konfessiyalararo o‘zaro bir-birini tushunish va hamjihatlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanadi.”¹. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil sentyabr oyida Nyu-York shahrida bo‘lib o‘tgan BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” nomli maxsus rezolyutsiyani qabul qilish g‘oyasini ilgari surdi va ushbu rezolyutsiya 2018-yil 12-dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi majlisida qabul qilindi². Maxsus rezolyusiyaning qabul qilinishi natijasida endi BMTga a‘zo davlatlar ta’lim muassasalarida bag‘rikenglik mohiyatining asoslari targ‘ib etiladi.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi RF-5640-son “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 27-iyundagi RF-5466-son “Yoshlar – kelajagimiz” davlat dasturi to‘g‘risidagi, 2020-yil 30-iyundagi RF-6017-son “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 26-martdagi RQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va mavzuga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda shuningdek, sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida quyidagi masalalarga e’tibor qaratildi:

¹ Мирзиёев Ш. “Ислом ҳамжиҳатлиги: Ўзбекистон ва Озарбайжон мисолида” мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига. – Тошкент шаҳри. 2017 йил. 18 октябрь // Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2 жилд. – Т.: Ўзбекистон”, 2018. – Б. 455.

² <https://www.un.org/en/ga/73/resolutions.shtml/> Resolution adopted by the General Assembly on 12 December 2018/ [without reference to a Main Committee (A/73/L.52 and A/73/L.52/Add.1)]/ 51st plenary meeting 12 December 2018

O'zbekistonda demokratik uslublarga asoslangan barqaror jamiyat barpo etish sharoitida yoshlarda bag'rikenglik madaniyatini ierarxik va stixiyali rivojlantirish hamda milliy xarakterni umume'tirof etilgan qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish dunyoviy davlatga xos bo'lgan ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar tizimining transformatsiyasi va yangi ijtimoiy-ma'naviy makonni shakllanishiga olib kelishi dalillangan;

jamiyatda bag'rikenglik madaniyatini yuksaltirishga doir siyosatni amalga oshirishning ma'naviy omili – yoshlarda yuksak axloqiy tafakkur, sog'lom fikr, zamonaviy dunyoqarash, intizomli xulqni amaliy ko'nikmaga aylantirish hisoblansa, ijtimoiy omil – milliy va umuminsoniy qadriyatlar muvozanatini saqlash va tartibga solish, yoshlar ongida siyosiy xulq va ratsional dunyoqarashni shakllantirish kabi jihatlarga uzviy bog'liqligi ochib berilgan;

yoshlar ongida ma'naviy-axloqiy dunyoqarash bilan siyosiy madaniyat va huquqiy savodxonlikni uyg'unlashtirish ularda bag'rikenglik dunyoqarashini shakllantirishning substansional omili hamda regulativ asosi sifatida jamiyatda ma'naviy barqarorlikni yanada yuksaltirishning ijtimoiy, madaniy va huquqiy atributlari kabi xususiyatlarga ega ekanligi aniqlangan;

yoshlarda baynalmilal kayfiyatni yuksaltiruvchi demokratik g'oyalar va umume'tirof etilgan qadriyatlar tizimini preventiv tarbiya jarayoni bilan integratsiyalashtirish ularda siyosiy evrilish, subyektiv individualizm, irratsional va sensuitiv yondashuv hamda kosmopolitizmga berilishining oldini olish barobarida bag'rikenglik madaniyatini yuksaltiruvchi muhim ijtimoiy omil ekanligi asoslangan.

Bugungi kunda dunyoda madaniy va axloqiy jihatdan bag'rikenglik tarbiyasining ahamiyati, ta'limning bag'rikenglikka ta'siri, yoshlarning ijtimoiy va etnik munosabatlarini o'rganishda yangidan-yangi xususiyatlari paydo bo'lmoqda. Insoniyat taraqqiyoti tobora yuksalgani sayin bag'rikenglikka tahdidlar ham ko'payib bormoqda. Demak, ushbu tadqiqot

ishi muammoning yakuni emas. Biz keyingi ishlarimizda ushbu masalaning zamonaviy muammo sifatidagi yangi qirralarini, uning asosiy omillarini o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz.

I -BOB. MA'NAVIY-AXLOQIY DUNYOQARASH VA BAG'RIKENGLIK MADANIYATI UYG'UNLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOT.

Yangi O'zbekiston oldida turgan dolzarb vazifalardan biri jahon xalqlari hamjamiyatiga hamma bilan teng sharoitlarda qo'shilish muammosini hal etishdan iboratdir. Jamiyat hayotida bag'rikenglik madaniyatini qaror toptirish, yangi dunyoqarash, yangi milliy mentalitetni yangi mezonlar asosida shakllantirishni taqazo etadi. Bag'rikenglik madaniyatining asosiy ma'nosi boshqa xalq, millat va elat vakillarining moddiy va ma'naviy madaniyatiga hurmat bilan munosabatda bo'lish, tegishli integratsiya jarayonlarida manfaatdor ishtirok etishdan iborat. Zamonaviy axborot jamiyatida ma'lumotlarning mavjudligi, tarixiy bilimlar bilan tanishish ma'naviy madaniyatning o'sishini belgilovchi qulay omil ekanligi haqidagi qarashlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

1.1-§. Ma'naviy-axloqiy dunyoqarashni yuksaltirishning retrospektiv asoslari va namoyon bo'lish shakllari.

Yangi asr insoniyat tarixi uchun noma'lum bo'lgan ulkan iqtisodiy o'zgarishlar va yangilanishlar asri bo'lishi bilan birgalikda ko'plab davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazib bormoqda. Mana shunday sharoitda O'zbekistonda yosh avlodning kelajagi va ertangi kuni borasida qayg'urish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi.

Yoshlarni ham ma'nan, ham jismonan, ham ruhan tetik va barkamol qilib tarbiyalash bilan bir qatorda, ularning ijtimoiy faolligini oshirish masalasi ham kun tartibidagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Shu boisdan «mustaqillikka erishgan davlatlar singari O'zbekiston ham yangi jamiyat barpo etishda o'ziga xos va mos yo'lni ishlab chiqdi, turli yo'nalishlarda o'z taraqqiyotini ta'minlagan davlatlarning

tajribalarini ijodiy rivojlantirib, o'ziga maqbul yo'ldan bordi. O'zbekiston taraqqiyotining o'ziga xos modeli mamlakatimizdagi ichki sharoitdan kelib chiqqan holda belgilangan bo'lib, bu ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarning izchillik bilan olib borilishiga asoslangan yo'ldir»³.

Yoshlarda ijtimoiy erkinlik va milliy o'ziga xoslik shaxsiy mayl, individual xohish, subyektiv xususiyatlar, sog'lom ijtimoiy maqsadlarga xizmat qiladi. Bunday tartib va qoidalar yoshlar tabiati va tafakkurini muayyan mafkuraviy dunyoqarash bilan shakllantirib boradi. O'zbekistonda yoshlar manfaati va fuqarolar tinch-totuvligini o'zida aks ettirgan mafkuraviy immunitetning asosiy maqsadi:

birinchidan, har bir yosh avlodning muayyan millat vakili sifatida hayotda o'z o'rnini va mavqeiga ega ekanligini milliy g'oya bilan belgilash;

ikkinchidan, o'zini uzoq asrlar davomida shakllangan millat vakili sifatida ajdodlar merosiga voris ekanligini his qilish sharoitini yaratish;

uchinchidan, milliy mentalitetga ega bo'lish insonning kamsitilishi yoki qoloqligi emas, balki umuminsoniy qadriyatlar sari yo'l ochuvchi fazilat ekanligini tushunib yetishiga xizmat qilishdir.

O'tmish milliy-ma'naviy merosimiz imkoniyatlaridan foydalanish va uni bilish yosh avlodni ma'naviy merosimizga yuksak hurmat va e'tibor ruhida tarbiyalashga qaratilgan. «Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, – deydi I.A.Karimov, – u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda yetilgan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi. Tabiatga yaqinlik, jonajon o'lkaning benihoya go'zalligidan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi,

³ Jumayev O. Siyosiy bashorat va tahlil // Jamiyat va boshqaruv, 2008-yil № 2, 89-bet.

kuchaytiradi. Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi»⁴.

Bugungi o'sib kelayotgan yoshlarning bilim darajalari, faoliyatlarining keng miqyosliliigi, dunyoqarashida shakllangan yangicha qadriyatlar yurt kelajagini belgilab beradi. Aytish mumkinki, hozirgi yoshlarda diniy va dunyoviy qadriyatlar birligini shakllantirish va ularni jamiyatda mavjud axloq va odob ideallariga e'tiqodli qilib tarbiyalash globallashuv jarayonida eng muhim vazifa hisoblanadi. «Inson ma'naviy olamining yuksalishi bilan bog'liq turli holatlar haqida ko'p gapirish mumkin. Lekin, muxtasar qilib aytganda, Ollohning o'zi bizga buyurgan komil inson bo'lish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi oliyjanob fazilatlarning ma'no-mazmunini nafaqat chuqur anglash, balki ana shunday xususiyatlarga ega bo'lish, ularga amal qilib yashash – odamzodning ma'naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezon, desak, hech qanday xato bo'lmaydi»⁵.

Bizga ma'lumki, XXI asr madaniy makoni ochiq tizimga aylandi. Oqibatda esa turli millat vakillari o'rtasida sog'lom muloqotni o'rnatish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shunday qilib, bag'rikenglik madaniyati umuminsoniy madaniyatni tushunishga olib keladigan ma'naviy faoliyat mahsuli bo'lib, u o'zaro sog'lom muloqot va sabr-toqat orqali bu jarayon ishtirokchilarining mafkuraviy pozitsiyalarini o'z ichiga qamrab oladi. Bag'rikenglik madaniyati har bir xalq yoki millat vakilini o'z taqdirini o'zi belgilash darajasiga olib chiqadi. Muloqotda boshqalarni «o'zga» deb tushunish begonalikni qisman yengish demakdir. Madaniyatlarning demokratik makonida muloqot orqali shaxs go'yo inson «men»ini yengadi, uning ma'naviy olami hududini kengaytiradi. Muloqot jarayonida shaxsning o'z taqdirini o'zi belgilash erkinligi insonlarning umumiy ma'naviy-axloqiy faoliyatiga mos keladi.

Yoshlarning bag'rikenglik madaniyati umuminsoniy ijtimoiy jarayonlardan, insoniyatni qiziqtirayotgan yoki bezovta qilayotgan muammolardan xabardorligi darajasi, BMT, Yunesko, Yunisef kabi xalqaro tashkilotlar dasturlari, loyihalari,

⁴ Karimov I. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-tom. Toshkent: O'zbekiston, 1996. 80-b.

⁵ Karimov I. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 25.

qarorlarini bilishi, ularni amalga oshirishda faol qatnashishi bilan ham muayyan darajada bog'liqdir.

Bag'rikenglik madaniyati mamlakatda millatlar, etnoslar, elatlar o'rtasida inoqlik, ijtimoiy-madaniy hayotda realizm uchun zamin hozirlaydi. Madaniy tolerantlik ayniqsa, ko'p millatli davlatlarda ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning, mamlakatda baynalmilal muhitni shakllantirishning imperatividir. O'zbekistonda 136 ta millat, elat va etnik guruh yashaydi. Ularning har birida o'ziga xos madaniyat, urf-odat, muloqot tili, tafakkur va turmush tarzi, bayram va marosimlar bor. Madaniyatlardagi turfa xillik umumiy ijtimoiy-madaniy hayotni go'zal, maftunkor, qiziqarli, millatlararo munosabatlarni va muloqotni jonli qiladi, chunki faqat jonli aloqalargina ijtimoiy-madaniy hayotga dinamizm baxsh etadi, o'zida davrning dolzarb muammolarini, g'oyalarini, qadriyatlarini aks ettiradi. Yoshlarimiz ommaviy axborot vositalari, internet orqali har kuni rang-barang axborotlarni qabul qilmoqda. Lekin, biz ularga nimani ko'rib, nimani ko'rmaslikni taqiqlash, umuman olganda, bir tomonlama tarbiya berish tarafdori emasmiz. Chunki biz ochiq va erkin demokratik jamiyat quryapmiz.

Zamonaviy dunyoda madaniy taraqqiyotning muqobil jihatlarini tan olish insoniyat sivilizatsiyasining yaxlitligini inkor etish emas, balki har bir xalqning bu yaxlitlikka mustaqil ravishda kirish imkoniyatiga urg'u berishdir. Madaniyatning semantik qatlamlarini o'zlashtirish insonning o'tmish va kelajakka nisbatan haqqoniy yondashuvini ta'minlaydi. Go'yoki, o'zaro ma'no bilan boyitish jarayoni mavjud bo'lib, bu bizga tarixiy jarayonga o'zgacha nigoh bilan qarash, o'zimizga o'zga davr nigohi bilan munosabatda bo'lish, bugungi harakatlarimizning o'z ma'nosini chuqurlashtirish va o'zimizni anglash imkonini beradi. Bag'rikenglik madaniyatining insonparvar jihatlarini har bir inson hayotining ma'nosiga aylanadi, zamonaviy jamiyatning ma'naviy olamini yanada boyitadi.

Insonning ijtimoiy faoliyati har doim ikkita vektorga bo'ysunadi:

- a) sabab, - o'tmishdan kelajakka qarab borish;
- b) maqsadli, bugungi kundan kelajakka qarab harakat qilish.

Inson mohiyatini anglash mezoni bo'yicha bag'rikenglik haqidagi tarixiy-

falsafiy ta'limotlar to'rtta falsafiy variant shaklida tasniflanadi: naturalistik, psixoanalitik, kommunikativ, axloqiy va aksiologik.

Naturalistik variantda bag'rikenglik tushunchasi insonning tabiiy tana mohiyatini tan olishga asoslanadi, buning natijasida u inson individlarining tabiiy, tug'ma umumiy sifati sifatida qaralib, ularni birga yashashga undaydi.

Psixoanalitik versiyada bag'rikenglik insonning ongsiz harakatlarining halokatliligini cheklaydigan, jamiyat va madaniyat orqali ularga yuklangan sun'iy axloqiy qoida sifatida talqin etiladi.

Shaxsning ma'naviy va kommunikativ mohiyati haqidagi ta'limotga asoslangan kommunikativ versiya – «Men» va «Sen» shaxslararo munosabatlar aspektidagi bag'rikenglikni tavsiflaydi, bu ma'naviy muloqotning ajralmas qismi sifatida tushuniladi.

Insonning ma'naviy olamida bag'rikenglik-shaxs-individning ma'naviy xususiyati bo'lib, uning tuzilishining elementi sifatida yaqqol namoyon bo'ladi. Shaxslararo munosabatlarda bag'rikenglikning universal shakllari dialog va e'tirofdir.

Bag'rikenglik bu – o'z-o'zini tashkillashtiruvchi tamoyil bo'lib, u o'ziga xos kommunikativ jarayonning konsensus yo'nalishini ifodalaydi. Bag'rikenglik shaxsning boshqa hayotiy pozitsiyasiga, shuningdek, turli insonparvar g'oyalar, urf-odatlar, xulq-atvor madaniyati va boshqalarga nisbatan ma'lum bir g'oyaviy va axloqiy munosabat sifatida namoyon bo'ladi. Bag'rikenglik nafaqat shaxsiy aloqalar, munosabatlar, jamoaviy yaqinlashuv, odamlar uyushmasining belgilangan maqsadga erishishi uchun shakllanadigan ijtimoiy faoliyatdir.

Bag'rikenglik axloqiy, diniy, siyosiy, huquqiy va pedagogik ijtimoiy-madaniy munosabatlarda ham sodir bo'ladi, shu munosabat bilan bag'rikenglikning qator ijtimoiy-madaniy shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin, jumladan, axloqiy, diniy, siyosiy, huquqiy, pedagogik kabi. Bu shakllarning barchasi o'ziga xos xususiyatlari, subyektlari va funksiyalari bilan ajralib turadigan, yagona muhim asosga (shaxsning integral mohiyati)ga ega va o'zaro bir-biriga ta'sir qiladi, jamiyatda inson hayotining barqarorligini ta'minlaydi.

Bag'rikenglik madaniyatini tashkil etuvchi asosiy axloqiy munosabatlar inson tomonidan o'ylab topilmagan, balki odamlarning obyektiv real munosabatlari sifatida borliqning ma'naviy tuzilishi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, bag'rikenglik madaniyatining ramzi sifatida murosaga kelish madaniyatini tarbiyalash zarurati paydo bo'ladi. Hozirgi kunda bag'rikenglik madaniyati har bir insonning ajralmas xususiyatiga aylanishi kerak, chunki u jamiyat barqarorligining kafolati va konsepsusga olib keladigan vektor hisoblanadi. Bu esa inson ongini yangi qadriyat yo'nalishlariga, ijtimoiy voqelikni idrok etishning boshqacha usuliga yo'naltirishni taqazo etadi.

Ma'naviy bag'rikenglik bu hodisaning asosiy ijtimoiy-madaniy shakllarining chuqur mohiyatidir. Diniy bag'rikenglik har qanday dinning qadriyatlarini (misantropiklardan tashqari) har bir din uchun mutlaq qadriyatlar va insoniyat jamiyati uchun nisbiy qadriyatlar sifatida tavsiflaydi. Diniy bag'rikenglikning asosiy vazifalaridan biri umuminsoniy tinchlikka erishish va konfessiyalararo nizolarni bartaraf etish uchun dindorlarni birlashtirishdan iboratdir. V.Tichkov bag'rikenglik haqida quyidagicha fikr bildiradi: «Bag'rikenglik – shaxsiy yoki ijtimoiy sifat bo'lib, dunyo va ijtimoiy muhitning serqirra ekanligini tan olishni, bu dunyo qarashlarning ham har xil bo'lishini tan olishni nazarda tutadi»⁶. B.Vulfov esa: «Bag'rikenglik – inson (yoki guruh)ning boshqacha mentalitet, boshqacha turmush tarziga ega kishilar bilan birgalikda yashash qobiliyatidir»⁷, – deb ta'kidlaydi. Shuningdek, islom olamida mashhur bo'lgan vatandoshimiz marhum shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf⁸, Shayx Abdulaziz Mansur, Alovuddin Mansur, Muhammad Taqiy Usmoniy, Doktor Muhammad Sa'id Ramazon Butiy, Mahmud Sa'id Tantoviy va boshqalarning asarlarida⁹ ham

⁶ Тишков В. Очерки теории и политики этничности в России. – М.: Институт этнологии и антропологии РАН, 1997. – С.165.

⁷ Вулфов Б. Воспитание толерантности: сущность и средства. // Внешкольник, 2006, № 6, -С.27.

⁸ Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 6-жуз-Т; Шарқ, 2012. Ҳадис ва Ҳаёт тўнлами. 34-жуз – Тошкент: Ҳилол-Нашр, 2013; Одоблар хазинаси 4-жуз, Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳрирати, 2009; Рухий тарбия. 3-жуз. Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳрирати, 2008. Фикҳий йўналишлар ва китоблар. Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳрирати, 2011; Сунний ақидалар. Шарқ, 2011;

⁹ Шайх Абдулазиз Мансур. Куръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири.-Т.: Тошкент ислом университети, 2007. – 624 б; Шайх Абдулазиз Мансур. Аловуддин Мансур, Куръони каримнинг изоҳли таржимаси Бишкек 2001й Муҳаммад Тақий Усмоний. «Такмилоту фатҳил Мулҳим». Дорул қалам. 1-нашр.

bag‘rikenglik masalalari keng yoritilgan.

Turli manbalarda «tolerantlik» tushunchasi vazminlik, ko‘nikma, bo‘ysunmoq, kelishuv, oqillik, muruvvat, mehr-oqibat, muhabbat, kechirimlilik sifatida talqin etiladi¹⁰. G.Ayzenk bu tushuncha asosida uch ma‘no borligini ta’kidlaydi: murosasozlik, chidamlilik va o‘zga olamning o‘ziga yaqinlashishiga, muloqotga kirishishiga ruxsat berishdir¹¹. Ijtimoiy jihatdan «tolerantlik» bu – o‘zgalar borlig‘iga, turmush tarziga, urf-odatlariga, g‘oyalariga, xulqiga, fikriga, inson, millat, voqelikka baho berishiga chidamlilik – bag‘rikenglikning o‘ziga xos ko‘rinishidir. «Frustratsion», «koring»¹² holatidagi tolerantlik bu – insonning u kirib qolgan og‘ir vaziyatdan chiqish, yechilmas muammosini hal qilish, ushalmagan orzulariga erishish, sodir bo‘lgan o‘zaro agressiv ziddiyatni yumshatish imkonini beruvchi vositadir.

Siyosiy va huquqiy bag‘rikenglikning asosiy mazmuni shaxs huquq va erkinliklari, ko‘p qutbli dunyo, demokratiya, multikulturalizm g‘oyalarining amaliy ifodasidir. Pedagogik bag‘rikenglik o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi ta’lim sohasidagi munosabatlarning subyektiv insoniy xarakterini tavsiflaydi. Bu zo‘ravonliksiz, plyuralizm va dialog usullaridagi muloqot orqali ta’minlanadi. Ma’naviy bag‘rikenglik, shaxslarning tinchlik va o‘zaro yordamga ruhiy moyilligi yoki boshqalarga nisbatan o‘z burchini oqilona anglashi yoki umuminsoniy huquq qonuniga asoslanadi. Siyosiy bag‘rikenglik siyosiy ijtimoiy-madaniy munosabatlarda amalga oshiriladi, bunda u konsensus, murosas, manfaatlarning pragmatik mulohazalari asosida tuzilgan kelishuvlar shaklida bo‘ladi. Huquqiy

Маҳмуд Саъид Тантовий «Асарот ан торийкит-тасаввуфир-рошид», 1-нашр 1408 х.й. Муҳаммад Саъид Рамазон Бутий «Ал- Ҳикам вал-Атоийя- шарҳ ва таҳлил». Дорул фикр Байрут 2003й. Доктор Муҳаммад Саъид Рамазон Бутий. «Шахс сийётун иставкафатни» Дорул фикр. Дамашк. 2 нашр. 1999й . Обидов Раҳматуллох «Қуръон ва тафсир илмлари» - Тошкент: «Тошкент ислом Университети», 2003й. Айдарбек Туленов. «Ислом ва ақиданараст оқимлар», , «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳрирати, 2014.

¹⁰ Толерантност. – М.: 2003, - С. 46-47.

¹¹ Лукин В., Мусиенко Т. Толерантност в гражданском обществе: проблемный концептуализации, Спб., 2003, С.13-19.

¹² Словар практического психолога. Тузувчи С.Й. Головин. – Минск, 1997. – С. 745. «Копинг» тушунчаси Р.С. Лазарус томонидан фанга киритилган, яъни «сопинг» – инсоннинг унинг олдида турган оғир ва унга ноқулайлик туғдираётган қийинчиликларни енгиш қобилиятидир.

«Фрустрация» – лот. фрустрато – алдаш, ёлгон, омадсизлик, орзуларнинг пучга чиқиши, режаларнинг барбод бўлиши, ушалмаган орзулар натижасида ҳосил бўлган ўзига хос психологик ҳолат шароитида кўрилатган чора.

bag'rikenglik fuqarolarning teng huquq va erkinliklarini ta'minlaydigan qonunlarga asoslanadi. Pedagogik bag'rikenglik bolani, o'quvchini rivojlanayotgan shaxs sifatida tushunishga asoslanadi, tarbiyachi va bilimdon kishilarning ruhiy va ma'naviy sifatlar bo'yicha tengligini ta'minlaydi. Ta'lim va tarbiya tizimida bag'rikenglikni ro'yobga chiqarishga ko'p qirralilik, erkin tarbiya, zo'ravonliksiz tarbiya, pedagogik hamkorlik, tinch-totuvlikni tarbiyalash, muloqot tamoyillari asos bo'ladi. Zamonaviy maktabning vazifalari bag'rikenglik pedagogikasini yaratish va amaliy jihatdan-pedagogik munosabatlarni va axloqiy tarbiyani insonparvarlashtirishdan iboratdir.

Insoniyat madaniyati boy va xilma-xildir. U jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida vujudga kelgan va uning tarixi bilan uzviy bog'liqdir. «Madaniyat» atamasi (kelib chiqishi lotincha) insonning o'z moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun faoliyat jarayonida ishlab chiqargan o'zgartirish, takomillashtirish degan ma'noni anglatadi. Madaniyat bu – ijtimoiy jihatdan orttirilgan va avloddan avlodga o'tadigan, odamlar o'zlarining hayotiy faoliyatini tashkil etadigan ijtimoiy jihatdan orttirilgan muhim ramzlar, g'oyalar, qadriyatlar, urf-odatlar, e'tiqodlar, an'analar, me'yorlar va xulq-atvor qoidalarining ma'lum bir to'plamidir. Atrofimizdagi butun dunyo madaniyat olamidir. Madaniyatning eng muhim xususiyati uning hamma narsani qamrab olishi, jamiyat va shaxs hayotining barcha sohalariga daxldor bo'lishidir. Madaniyatning asosiy ahamiyati insonning ma'naviy kamolotiga, uning iste'dodi va qobiliyatini to'liq ochib berishga doimo hissa qo'shishidir. Inson madaniyatning rang-barang olamini yaratgan holda bir vaqtning o'zida ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi, uning ma'naviy qiyofasini shakllantiradi. Bir hududda yashovchi, lekin bir-biri bilan aloqada bo'lishi shart bo'lmagan har xil madaniyatlar va aholining turli milliy, etnik va diniy guruhlari ko'plab madaniyatlarga ega jamiyatni tashkil qiladi. Bunday jamiyatda tafovutlar salbiy qabul qilinadi va kamsitish uchun asos bo'ladi, har bir guruh o'zining madaniy yutuqlarini istisno deb biladi va boshqalardan ustunligini shubha ostiga qo'ymaydi. Madaniyatlararo jamiyat bu – turli madaniyatlar, turli xil milliy, etnik va diniy guruhlarning bir hududda yashabgina

qolmay, balki bir-birining turmush tarzi va qadriyatlarini ham tan oladigan jamiyatdir. Ular bir nechta submadaniyatlardan dinamik, o'zgaruvchan va yashovchan yagona madaniyatning paydo bo'lishi uchun asos bo'lgan o'zaro ta'sir munosabatlarini saqlab turadilar.

Jamiyatda bag'rikenglik turli ijtimoiy-madaniy munosabatlarda amalga oshiriladi, shu munosabat bilan bag'rikenglikning axloqiy, diniy, siyosiy, huquqiy va pedagogik shakllarini asosiy mezon sifatida ajratib ko'rsatish mumkin. Bag'rikenglik inson hayotining uchta asosiy shaklida mavjud: individual, shaxslararo va ijtimoiy-madaniy.

Individual hayotda bag'rikenglik shaxsning ruhiy olamining elementi, uning ma'naviy sifati hisoblanadi. Bag'rikenglik va ma'naviyatning nisbati dialektik xususiyatga ega, chunki, bir tomondan, «bag'rikenglik» «ma'naviyat»dan kengroqdir. U shaxsiy hayot, shaxslararo va ijtimoiy-madaniy sohalarda ma'naviyatni ifodalashning umumiy mexanizmidir. Boshqa tomondan, «ma'naviyat» «bag'rikenglik»dan ko'ra kengroqdir, chunki u ikkinchisini o'z ichiga oladi.

Bag'rikenglik madaniyati har doim ma'naviy-axloqiy idealning ishlashi bilan bog'liq bo'lib, uning obyektiv jihatdan namoyon bo'lishi o'ziga xos ma'no-mazmun kasb etadi.

O'tmishga qaytish, milliy va umuminsoniy madaniyatni o'zida aks ettirish, har safar ma'lum bir ma'naviy madaniyat darajasiga ma'lum bir hayotiy pozitsiyadan kelib chiqqan holda yondashiv o'ziga xos tarzda amalga oshiriladi. Bag'rikenglik madaniyatida tarixan shakllangan har qanday insoniy faoliyat usuli o'z maqsad-muddaosiga ega, ya'ni har bir shaxsning muayyan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini ifodalaydi. «Bir mamlakatda tinchlik va mo'lchilik bo'lib, uning ovozi atrofga tarqalsa, buni eshitgan savdogarlar, hunarmandlar va olimlar har tomondan kela boshlaydilar. Bunday shaharga atrofdan keluvchilar ko'payib, ular har xil mol olib keladilar. Bu bilan mamlakat obod bo'lib, xazina boyligi ortadi» -

(A.Donish)¹³.

Bag'rikenglik madaniyatini yuksaltirish o'ziga xos insonparvarlik yo'nalishda amalga oshiriladi.

Shaxsni ma'naviy yuksaltirish, uning axloqiy mavqeini mustahkamlash uchun shunday sharoit yaratish zarurki, insonning madaniyatdagi ma'naviy qadriyatlar boyligi bilan tanishishi uning o'ziga xos ehtiyojiga aylanadi. Shaxs o'tmish madaniyatini butun yaxlitligi va ko'p qirraliligi bilan o'zlashtirishga intilishi, o'zini uzluksiz madaniy jarayonning bo'g'ini sifatida his qilishi kerak. Shaxs faoliyati ma'naviy madaniyatning potensial asosini zamonaviy inson ma'naviy dunyosini shakllantirishga qaratilgan real faoliyat yurituvchi harakat yo'nalishiga o'zgartirishning hal qiluvchi shartiga aylanadi. Inson ma'naviy-ruhiy faoliyatining faol energiyasi tufayli tashqi olamning sababiy munosabatlarini chuqur tushunishga qodir mavjudot hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, islom manbalarida bag'rikenglik g'oyalarini aks ettirgan manbaviy asoslar: Qur'on va hadislardan, mo'tabar tavsif kitoblaridan tashqari, buyuk muhaddis imomlar – Buxoriy¹⁴ va Termiziy¹⁵larning hadis to'plamlari, zamonamizning peshqadam ulamolari U.Alimov, Abdulaziz Mansur¹⁶, Muhammad Sodik Muhammad Yusuf tafsiri¹⁷ va undan tashqari shu mualliflarning tadqiqot mavzusiga oid yana bir necha kitoblari ijtimoiy-falsafiy nuqtayi-nazardan o'rganildi¹⁸.

Bag'rikenglik madaniyati har bir insonning ichki tajribasiga aylanadi, zamonaviy jamiyat madaniyatini yanada boyitadi. Inson bag'rikengligi mantiqiy konstruksiyalarga ko'ra, obyektiv voqelik muayyan his-tuyg'ular vositasida

¹³ А.Дониш. Наводир ул-вақое (Нодир воқеалар). И.М.Мўминов таҳрири остида, Тошкент: «Фан» нашриёти 1964. – 63 б.

¹⁴ Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ҳадис. Ал-жомий ас-саҳиҳ.- Т.1-4. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1991-1992; Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ал-адаб ал-муфрад. // Шамсуддин Бобохонов таржимаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1990.

¹⁵ Абу Исо ат-Термизий. Саҳиҳи Термизий // Абдуғани Абдулло таржимаси. – Тошкент: Ғофур Ғулом, 1993.

¹⁶ Абдулазиз Мансур. Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Тошкент: ТИУ нашриёт матбаа бирлашмаси, 2009.

¹⁷ Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. Т. 1-6. – Тошкент: Мовароуннахр. 2005-2007.

¹⁸ Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Мусталаҳул ҳадис. – Тошкент: Шарқ, 2011; Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Одоблар хазинаси. // Ал-адаб ал-муфрад шарҳи. Т.1-4. – Тошкент: Шарқ. 2008-2009; Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Васатия – ҳаёт йўли. – Тошкент: Шарқ. 2006; Муҳаммад Содиқ. Муҳаммад Юсуф. Фикҳий йўналишлар ва китоблар. Т.: Шарқ. 2011; Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф, Ихтилофлар, сабаблар, ечимлар. – Тошкент: Шарқ. 2011; Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Очиқ хат. – Тошкент: Ҳилол-нашр, 2015.

sezgilarimizda, ongda o'ziga xos ma'naviy-ruhiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, ong va tafakkurimiz, ongimiz dunyoning hayotiy taraqqiyotini, bag'rikenglikni singdirish natijasida shakllanadi. Bag'rikenglik ijtimoiy hayotning dinamik mezon bo'lib, voqea va faktlar o'rtasida ko'priklarni o'rnatishga katta yordam beradi. Shu jihatdan olib qaraganda, bag'rikenglik madaniyati insonning eng muhim, asosiy xususiyatidir. Bu shaxsning tanlangan maqsad va qadriyatlarga intilishi, ma'naviy hayotga qobiliyati sifatida yaqqol aks etadi. Biroq, bu qobiliyat shaxsga potensial ravishda xosdir, shuning uchun uni samarali shakllantirish uchun maxsus yaratilgan psixologik-pedagogik sharoitlar va vositalar tizimi kerak.

Madaniyat har doim baholash komponentini o'z ichiga oladi va uning aksiologik xususiyatlaridan tashqarida tushunib bo'lmaydi, chunki u bevosita affektiv-emotsional soha bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shu sababli, san'at insonparvarlik va ma'naviy qadriyatlar tizimi sifatida shaxsning bag'rikenglik madaniyatini shakllantirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Bizga ma'lumki, Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy va boshqalarning ijodidagi axloqiy g'oyalarda odamlar o'rtasidagi munosabatlarda adolat, xayrixohlik va vijdonlilikka asoslangan bag'rikenglik yaqqol namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, shuni aytishimiz mumkinki, vijdon axloqiy tuyg'u sifatida o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lib, bag'rikenglik madaniyatining ajralmas atributi hisoblanadi. Insonning hayosi, adolati, mehr-oqibati ularning birligida yaqqol namoyon bo'ladi. Vijdon-bu qalbning xohishi, ma'naviy-axloqiy ehtiyojdir. Buning sababi shundaki, ruh hech qachon yo'q bo'lib ketmaydi, lekin har gal hamma narsa o'zgarganda yuksaklikka ko'tariladi. Inson ma'naviy-ruhiy olamining yuksalish taraqqiyotining asosini vijdon tashkil etadi. Shaxsning tarbiyasida inson vijdoni muhim o'rin tutadi. Bu tushuncha har qanday odamni boshqalardan ajratib turadi. Agar odamda vijdon bo'lsa, u o'z harakatlari uchun javobgar ekanligini tushunib yetadi. Har qanday insonning odamiyligini aynan vijdon saqlab qoladi, hatto o'lim yaqinlashganda ham vijdonni sotib bo'lmaydi.

Hayotda inson o'z vijdoni amriga qarshi harakat qilishi-bu o'sha insonning katta aybi hamda o'zi tomonidan amalga oshirilgan ma'naviy-ruhiy jinoyatidir. Vijdonni sotish, vijdonni yo'qotish katta ma'naviy gunohdir. Insonning subyektiv tomoni ham to'g'ri, ham haqiqiydir, lekin haddan tashqari qabul qilinganda, u absurdlikka olib keladi. Subyekt – shaxs, shu ma'noda u cheksiz ma'naviy-ruhiy faoliyatning ifodasidir. Shuning uchun odam xudbin bo'lmasligi kerak. Boshqa tomondan, esa cheklash – subyektivlik sharti hisoblanadi. Insonning shaxsiy o'ziga xos xususiyatiga ko'ra, obyektiv dunyo unga dushman dunyodir, lekin uning ma'naviy-ruhiy olamiga nisbatan cheksiz va umumiylik ko'rinishida bu dunyo ma'naviy ozuqa manbayi bo'lib xizmat qiladi. Oddiygina ruh emas, balki haqiqiy shaxs bo'lish uchun u umumiylikning o'ziga xos ifodasi yoki cheksizlikning yakuniy ko'rinishi bo'lishi kerak. Oqibatda u o'z subyektivligidan voz kechishi, uni yolg'on deb bilishi, o'z haqiqati va voqeliginigina tan olgan holda murosa qilishi kerak. Shaxsning ma'naviy rivojlanishida inkor lahzasi zarur, lekin u hayotning maqsadi emas, balki faqat bir lahza yoki o'n bo'lishi mumkin.

Bag'rikenglik masalasi bo'yicha mahalliy tadqiqotlarni tahlil qilish quyidagi yondashuvlarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi:

- ontologik nuqtayi nazardan bag'rikenglik obyektiv reallik sifatida namoyon bo'ladi, uning doirasida millatlararo bag'rikenglikning umumiy masalalari o'rganiladi;

- aksiologik nuqtayi nazardan bag'rikenglik milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi va uni etnik o'ziga xoslik uzluksizligining asosi va mexanizmi sifatida baholash o'rinli bo'ladi;

- ijtimoiy-falsafiy jihatdan bag'rikenglik ijtimoiy ong shakllari bilan uyg'un holda yaqqol namoyon bo'ladi va bu jarayonda millatlararo bag'rikenglikning siyosiy, diniy muammolari o'ziga xos tarzda tadqiq qilinadi;

- tipologik bag'rikenglik g'oyalarining rivojlanishi ishonch va e'tiqod nuqtayi nazardan ma'no-mazmun kasb etadi va uning doirasida umumiy bag'rikenglik turlarining shakllanishi va rivojlanishining tadrijiy asoslari yaqqol namoyon bo'ladi.

1.2-§. Yoshlarda milliy va umuminsoniy bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish zarurati va rivojlantirish tendensiyalari

Globalashuv umuminsoniylikka intilish sifatida multikulturalizmga qarshi bo‘lib, asil madaniyatlarni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu qarama-qarshilikning yechimini umumbashariylikning madaniy timsolida ko‘rish mumkin, keng ma’noda tushunilgan bag‘rikenglik esa bunday ramziylikning imperatividir. Bunday sharoitdagi jamiyatda bag‘rikenglik madaniyati oqilona tashkil etilgan kollektiv ong doirasida shakllanadi. Qadriyat munosabatlarining mantiqiyliги ularni nutq, tahlil, tushunish va mulohaza maydoniga kiritishni nazarda tutadi.

Bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish ko‘proq turli ijtimoiy guruhlardagi shaxslarning umumiy etnik va konfessiyadan tashqari tarkibiy qismini anglash natijasida yuzaga keladi. So‘nggi o‘n yilliklar davomida ko‘p millatli O‘zbekiston sovet jamiyatidan zamonaviy modernizatsiya jamiyatiga o‘tishning murakkab yo‘lini bosib o‘tdi, bu respublika hayotining barcha sohalariga, shu jumladan, millatlararo munosabatlar va madaniyat rivojiga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. O‘zbekistonda mavjud davlat hokimiyati va ijtimoiy harakatlarning turli siyosiy kuchlarning kurashi bilan bog‘liq etnik siyosat va bag‘rikenglik sohasidagi faoliyati evolyutsiyasining dastlabki davri (1980-yillarning oxiri – 1990-yillarning birinchi yarmi) yetakchilari ijtimoiy harakatlarning haddan tashqari siyosiylashuvi ostida qoldi. Mazkur davrda davlat hokimiyati organlari siyosatida ushbu sohaga ikki tomonlama tendensiya kuzatiladi. Ya’ni, milliy harakatlarni rivojlantirishga va ularga yordam berish muammolariga (jumladan, iqtisodiyotning umumiy inqirozli holati bilan izohlanadi) hamda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga juda kam e’tibor qaratildi. O‘zbekistondagi millatlararo munosabatlar ba’zi tashqi kuchlarning siyosiy kurashi jarayonida faol ishlatilishi va etnik harakatlarning eng radikal jihatlaridan foydalanishga moyillik mavjud bo‘lgan.

Shuni ta’kidlash kerakki, 1990-yillarning boshidagi notinch davrlarda O‘zbekiston Respublikasining ko‘p millatli xalqi orasida radikal etnotsentrik g‘oyalar (aslida millatchilik g‘oyalari) keng qo‘llanilmagan. SSSR parchalanib

ketganidan so'ng sodir bo'lgan shov-shuvli voqealar qarama-qarshilik, o'zaro ayblov yo'li kabilarning jamiyatga foyda keltira olmasligini ko'rsatdi. Millatlararo munosabatlarda barqarorlikni saqlash, bag'rikenglik, e'tiqod, madaniyat, urf-odatlar, qo'shnilar tilini hurmat qilish, xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirish, totuvlikni mustahkamlashning eng muhim vositasi ekani yaqqol namoyon bo'ldi. Bu holat esa 1990-yillarning boshlariga to'g'ri keladi. XX asr respublika xalqlarining tarixan shakllanishi va millatlararo bag'rikenglikning mustahkamlanishi uchun o'ziga xos sinov davri bo'ldi desak, yanglishmagan bo'lamiz. Shu bois «Dunyoda o'zini millat deb hisoblaydigan birona subyekt yo'qki, unda millatparvarlik tuyg'ulari bo'lmasin»¹⁹.

1990-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab esa respublikaning barqarorlashayotgan siyosiy hayotiga ijtimoiy-siyosiy harakatlarning bosqichma-bosqich qo'shilish jarayonlari, hokimiyat organlari, etnik va konfessiyaviy harakatlar o'rtasida konstruktiv muloqotning yo'lga qo'yilishi, adekvat va yaxshi munosabatlarning rivojlanish davri boshlandi. Ayni paytda, bizning fikrimizcha, bag'rikenglik madaniyati, turli etnik guruhlar, madaniyatlar, konfessiyalar vakillariga o'zaro rozilik va hurmat bilan munosabatda bo'lish uchun mustahkam poydevor yaratilgani mintaqada modernizatsiya jarayonlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning zaruriy shartidir.

Zamonaviy global dunyoda bag'rikenglik madaniyati obyektiv ravishda jamiyatni modernizatsiya qilish jarayonlarining rivojlanishi uchun zaruriy asosga aylanadi. Falsafiy va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan, u farqlarga ijobiy, hatto rag'batlantiruvchi munosabat madaniyatini, aniqrog'i, «boshqalar» uchun kommunikativ ochiqlik madaniyatini ifodalaydi. Bag'rikenglik madaniyati modernizatsiya qilinayotgan ko'p millatli jamiyatda bag'rikenglik, tinchlik va totuvlik tamoyillarini faol rivojlantirish va amalga oshirishni nazarda tutadi.

Jahon hamjamiyati va xalqlarning millatlararo, konfessiyalararo va madaniy aloqalarining murakkab jarayonlariga mos keladigan eng muhim tushunchalaridan biri bag'rikenglikdir. Bag'rikenglik zamonning o'ziga xos imperativi, xalqaro,

¹⁹ Отамуратов С. Миллий ривожланиш фалсафаси. – Тошкент, 2005. 185-бет.

ijtimoiy va shaxslararo munosabatlar strategiyasi va taktikasiga aylandi. Turli etnik guruhlar, dinlar va madaniyatlar vakillariga hurmat-ehtirom ko'rsatish zamonaviy sivilizatsiyaning saqlanib qolishi va rivojlanishining ajralmas shartidir.

Hozirgi vaqtda dunyoda tajovuz kuchayib, ijtimoiy-siyosiy, diniy, etnik muammolarni hal qilishning zo'ravonlik usullari keng qo'llanilib borayotgan bir paytda boshqa tizimni oqlaydigan yangi bag'rikenglik falsafasini yoyishga intilish tabiiydir. Bu boshqalarni qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilishga va ular bilan muloqot va kelishuv orqali munosabat qilishga tayyorlikni o'z ichiga oladi.

So'nggi o'n yilliklarda «bag'rikenglik madaniyati» tushunchasidan tobora ko'proq foydalanilmoqda va bu tushunchaga kundan kunga talab ortmoqda, bu nafaqat o'tmish va hozirgi zamonning ko'plab taniqli mutafakkirlarining idealini, balki bugungi kunda ba'zi qo'shni davlatlarda turli sohalarda va insoniy munosabatlarning turli darajalarida, xususan, etnik va konfessional muhitda murosasizlikning o'sishini ham aks ettiradi. Bag'rikenglik madaniyati sodir bo'layotgan voqealarga faol munosabatda bo'lish, inson huquq va erkinliklarini tan olish, shu jumladan o'zaro tushunish va hurmat bilan munosabatda bo'lish madaniyati va turmush tarzi sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

Bag'rikenglik madaniyatining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar quyidagilardir:

- 1) hayot sifati va darajasi;
- 2) siyosiy vaziyat va ijtimoiy hayot;
- 3) ijtimoiylashuv va murosaliilik;
- 4) shaxsiy, madaniy va tarixiy xususiyatlar.

Bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirish jamiyatni modernizatsiyalash jarayoni bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu ijtimoiy munosabatlarning tubdan o'zgarishidir. Modernizatsiya ham ilg'or texnologiyalar, ham innovatsion siyosiy, madaniy va ijtimoiy mexanizmlarning paydo bo'lishi va rivojlanishini nazarda tutadi. Modernizatsiyaga o'tish kamdan kam hollarda tinch va bir tekis davom etadi. Chunki bu jarayon barcha ijtimoiy institutlar va jamiyatning butun a'zolariga ta'sir qiladi. Modernizatsiya iqtisodiy, tashkiliy, siyosiy va madaniy sohalarning

kengayib borayotgan tabaqalanishi bilan yonma-yon keladi va ko'p jihatdan jamiyatda bag'rikenglik madaniyatining rivojlanishini belgilaydi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlarining tabiati, chegaralari va mazmunini belgilaydigan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ichki modernizatsiya xususiyatlari orasida uni amalga oshirishda davlatning alohida roli va uning to'liq tabiati qayd etilgan.

Turli dunyoqarashlar, madaniy an'analar tashuvchilarining to'qnashuvlarsiz va uyg'un yashashining usul va vositalarini izlash va qo'llash mavzusi doimo faylasuflar, madaniyatshunoslar, sotsiologlar, dinshunoslar, psixologlar, siyosat, jamoat va din arboblarning e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Ijtimoiy-madaniy muvofiqlik darajasiga, o'rganilayotgan sohadagi bilimlariga qarab, ularning har biri bag'rikenglikka munosabat ta'rifini o'ziga xos tarzda shakllantiradi. Agar oldinlari shu munosabat bilan faqat «bag'rikenglik» va «diniy bag'rikenglik» tushunchalari ifodalangan bo'lsa, keyingi yillarda «bag'rikenglik madaniyati» tushunchasi tobora keng qo'llanilmoqda. Bag'rikenglik masalalarini konseptual jihatdan rivojlantirishga doir qarashlar, shuningdek, bu yo'nalishning axloqiy masalalari dastlab Arastu, Konfutsiy, Aflotun kabi qadimgi mutafakkirlarning falsafiy asarlarida o'z aksini torgan.

O'z davrida mashhur yunon faylasufi Arastu bag'rikenglik haqida shunday fikrlarni bildirgan: «Bag'rikenglik – zarur vaqtda, zarur miqdorda sarflash xislati, fazilatidir. Bemavrid, o'rinsiz sarflovchi odam o'zini shu bilan boy-badavlat qilib ko'rsatmoqchi bo'lgan (obro'parast, maqtanchoq) odamdir. Qizg'anchiq, mayda odam esa katta pullar sarflash o'rnini kelganida (to'yda yoki boshqa marosimda) behimmatlik qilib, ozgina sarflovchi odamdir. Qo'li ochiq odam o'z o'rnida va bermalol sarflovchi odamdir. Xullas, bag'rikenglik maqtovli xislat bo'lib, bunday xislatli odam keragidan kamroq ham, keragidan ortiqcha ham sarflamaydi. Demak, bag'rikenglik madaniyati kamlik va ortiqchalik o'rtasidagi xislatdir. Bag'rikenglikning turli ko'rinishlari bor deb o'ylaydilar. Masalan, bir odam (falonchini qandaydir kichik xatosi uchun jazolamay) bag'rikenglik qildi, deydilar. Bu xarajatlar, moddiyat ma'nosidagi emas, balki botiniy, ruhiy olam sohasidagi

tushunchadir»²⁰.

Bag'rikenglik tarix davomida turli xalqlar va dinlarning birgalikdagi hayotini ta'minlagan va umumbashariy qadriyat sifatida uzoq tarixga ega bo'lgan eng muhim tamoyildir. Shu ma'noda bag'rikenglik madaniy, diniy va siyosiy munosabatlar tizimidagi axloqiy qadriyat, desak yanglishmagan bo'lamiz. Shuning uchun bag'rikenglik madaniyati siyosiy masalalarni hal qilishda alohida o'rin tutadi. Ta'kidlash joizki, bag'rikenglik, umuminsoniy madaniyatning bir qismi bo'lishiga qaramay, tarixan, asosan, shahar, qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikning qadimiy an'analari ustuvor bo'lgan madaniyatga xosdir. Shu nuqtayi nazardan, bag'rikenglik O'rta Osiyo xalqlari madaniyatida alohida o'rin tutadi, ular tarixan sayyoramizning ko'chmanchi, dehqon, hunarmand va madaniyat vakillaridan iborat bo'lgan. Ular madaniyatining falsafiy va axloqiy tabiati bag'rikenglikni qadim zamonlardan buyon madaniyatning asosiy g'oyasi sifatida e'tirof etgan. Shuni ta'kidlash kerakki, turli xalq, millat va elatlarning turmush tarzi va tafakkuri, shu asosda ham dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi o'troq, shahar xalqlarining madaniyati ko'chmanchi xalqlarning turmush tarzi, tafakkuri va madaniyatidan tubdan farq qiladi. Ko'chmanchi xalq dehqon va hunarmandlardan o'zining jangovar fazilatlarini bilan ajralib turardi.

Arab olimi Ibn Xaldun «Al-Muqaddima» risolasida ko'chmanchilarning bu psixologik va axloqiy xususiyatini mohirlik bilan tilga oladi. Ibn Xaldun johil arablarning jangovar qobiliyatini shu ijtimoiy hayot tarzidagi ma'naviy-axloqiy fazilati sifatida baholaydi. «Yovvoyi xalqlar boshqalarga qaraganda ko'proq hokimiyatni egallash imkoniyatiga ega, chunki ko'chmanchi hayot jasorat sababidir, ... ular boshqalarga qaraganda g'alaba va zulmga qodir»²¹.

O'rta Osiyo xalqining boshqa xalqlar va etnik guruhlariga qilich tortmasligining, boshqalarning din va qarashlariga bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lishining sabablaridan biri, umuman olganda, ularning dini va

²⁰ Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Таржимон Маҳкам Маҳмуд. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. Б – 126-127.

²¹ Басиева С.М. Историко-социологический трактат Ибн Халдуна «Мукаддима» / С.М. Басиева. – М., 1965. – 223 с.

madaniyatining turmush tarzi, tafakkuri va bag'rikenglik xususiyati bilan chambarchas bog'liq. Biroq, g'alaba qozongan ko'chmanchilar tomonidan qayta-qayta bosqinlar, adolatsizlik, zulm, parchalanish va assimilyatsiya qilinishiga qaramay, O'rta Osiyo xalqlari dunyoga mashhur madaniyatini saqlab qolish va qayta tiklashga muvaffaq bo'lishdi. Shuningdek, ular muayyan ma'noda johil ko'chmanchilarni tarbiyalashga ham erishdilar. Shunga qaramasdan, tarixda bosqinchilik natijasida o'z madaniyatining ma'naviy asoslari zaiflashgani va siyosiy hokimiyatni yo'qotishi natijasida tarix sahnasidan o'chib ketgan xalqlar ham ko'p bo'lgan.

O'rta Osiyo xalqlarining bag'rikenglik g'oyasi qadimiy madaniyatdan kelib chiqqanligi haqida tarixiy dalillar mavjud. Bu g'oyaning asosi axloqiy va ma'naviy xarakterga ega bo'lgan bu xalqlarning qadimiy madaniyatida shakllangan yaxshilik va yomonlik kuchlarining murosasiz kurashi haqidagi o'ziga xos ijtimoiy-falsafiy fikrlar bilan chambarchas bog'liq. Bu xalqlarning bag'rikenglik madaniyati boshqa dinlarga qarshi takfir va ularning izdoshlariga qarshi jihod g'oyasiga asoslangan emas, balki ma'naviy va axloqiy prinsiplarga zid bo'lgan yovuzlik, jaholat va zulmat kuchlariga qarshi kurash g'oyasiga asoslangan. Demak, bu madaniyatdagi bag'rikenglik g'oyasi tashqi hodisa emas, balki bu xalqlar madaniyatining asosiy tabiiy hodisasidir. Shunday qilib, bag'rikenglik odamlarni dindorlik asosida guruhlariga ajratadigan siyosiy guruhlariga qaraganda tubdan farq qiladi.

Bag'rikenglik madaniyatining asosiy maqsadi, odamlarni tarbiyalash va ularga qarshi kurashishga tayyorlashdir. Xalqlarni ikki etnografik va geografik guruhga bo'lish prinsipi har doim siyosiy va diniy nizolarning manbalaridan biri bo'lib kelgan. Bugungi kunda bunday munosabat islom dunyosida siyosiy maqsadlariga erishish uchun hokimiyatga intilayotgan ekstremistik guruhlar tomonidan qo'llanilmoqda. Tarixdan ma'lumki, islom arab qabilalarining markazlashgan davlatda birlashishi, arab etno-siyosiy hamjamiyatining shakllanishi va bundan keyin turli mamlakatlarning birlashuvi asosida xalifalik qurish jarayonidagi muhim diniy-siyosiy hodisaga aylangan. Arab zodagonlari tomonidan belgilangan siyosiy dasturni amalga oshirish muqarrar ravishda islomda

arab qabilalarining islomdan oldingi dinlari, g'oyalari va umuman arab bo'lmagan madaniyatlarning asoslarini topish va buni siyosiy maqsadlarga erishish vositasiga aylantirish uchun harakat qilindi.

Islom, takfir va jihod g'oyalaridan foydalanish, ayniqsa, Ummaviylar xalifaligi tomonidan Eron va Rim imperiyasini zabt etish davrida o'z cho'qqisiga chiqdi va bu jarayon Abbosiylar hukmronligi davrida ham davom etdi. Islom niqobi ostida musulmonlar o'rtasida siyosiy hokimiyat uchun kurashdagi siyosiy ziddiyatlar islom ummatining parchalanishiga va bu din ichida mazhablarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu jarayonga mahalliy xalqlarning kuchli iqtisodiy, siyosiy va madaniy bosimi katta ta'sir ko'rsatdi.

Ummaviylar siyosatiga qarshi ozodlik kurashi bir tomondan, xalq qo'zg'olonlarini bostirishga urinishlari, boshqa tomondan, turli islomiy oqimlar vakillarining hokimiyatni qo'lga olish yoki takfir va jihod g'oyalaridan foydalangan holda milliy manfaatlarni himoya qilish uchun olib borayotgan kurashi turli mazhabdagi musulmonlar hayotiga ham jiddiy ta'sir qildi. Afsuski, o'sha davrdan boshlab bir musulmonni boshqa musulmon kofir deb hisoblashi va yana bir musulmonning boshqa musulmonga qarshi jihod qilishi, biz bugun ko'rib turganimizdek, an'anaga aylandi. Boshqacha aytganda, islomda musulmonlarning turli siyosiy va diniy guruhlariga bo'linishi musulmonlar orasida xurofot va ekstremizmning kuchayishiga va ularning parchalanishiga olib keldi va ularni ta'qib qilish vositasiga aylandi. Bularning barchasi islom ulamolari uchun musulmonlar o'rtasida diniy va siyosiy nizolarning oldini olish va ularni birlashtirish zaruratini paydo qildi.

Abu Hanifa Ummaviylar va Abbosiylar xalifaliklarining notinch davrlarida mazhablararo nizolar xalifalikning ko'p joylarida siyosiy tus olgan vaqtda yashagan. Garchi bu kurashlar Ummaviylar sulolasi o'rniga Abbosiylar sulolasini hokimiyatga olib kelgan bo'lsa-da, xalifalikdagi nizolar va kurashlar tugamadi, chunki Abbosiylar ham xalqqa bergan va'dalarini bajarmadilar va ularga zulm va tahdid qilishda davom etdilar. Ummaviylar va Abbosiylarga ochiq qarshilik ko'rsatganliklari uchun xorijiyalar o'z atrofiga ko'p sonli odamlarni to'plab,

Xalifalikka qarshi kurasha boshladilar. Albatta, Abu Hanifa xorijiylarning fikriga qo'shilmadi va ochiqchasiga ularga qarshi chiqdi. Xorijiylar xavfi ostida Abu Hanifa Madinaga yo'l oldi va shu yerda boshpana topdi. Shialarning 11-yetakhshisi Marvon davrida Abbosiylar o'zlarini Payg'ambarning bevosita vorislari deb bilgan va xalifalikda hokimiyat uchun kurashgan. Abu Muslim al-Xurosoniy orqali Abbosiylar Ummaviylar ustidan ustunlikka erishdilar va 749-yilda Abu Muslim al-Xurosoniy xalifa deb e'lon qilindi.

Zaydlar harakati Ummaviylar hukumatini ham larzaga soldi. Shu bilan birga, alaviylar harakati kengayib, Bani Hoshim harakatiga yo'l ochdi. Xulosa qilib aytganda, Abbosiylar o'zlarini Rayg'ambar oilasining a'zosi deb da'vo qilib, Xurosonlik shialarning e'tiborini tortdi va oxir-oqibat 750-yilda xalifalikda hokimiyatni qo'lga kiritdi. Abbosiy xalifa Abu Abbos butun Ummaviylar sulolasini dahshatga solib, hatto ota-bobolarining qabrlarini ham vayron qilgandi. Biroq, Abbosiylar hokimiyatga kelganidan keyin xalqqa bergan va'dalarini bajarmadilar, jumladan, alaviylarga sodiqlikdan voz keshdilar. Ayniqsa, xalifa Mansur Abbos davrida alaviylar va Abbosiylar o'rtasida to'qnashuvlar bo'lib, xalq noroziligi yanada avj oldi. Xalifa Mansur alaviylar va zaydlar qo'zg'olonlarini bostirib, qatliom qilgan bo'lsa-da, xalifalikdagi siyosiy vaziyat tinchlanmadi.

Shunday qilib, xalifalikdagi hokimiyat uchun siyosiy kurash musulmonlarni turli mazhablarga ajratib, diniy xilma-xillikka va bu ular orasida diniy aqidarapastlikning rivojlanishiga olib keldi. Bir din vakillari bir-birlarini haqorat qilib, o'ldira boshladilar. Bu jamiyatning sog'lom o'sishiga va islom sivilizatsiyasining rivojlanishiga jiddiy to'sqinlik qildi. Mazhablar o'rtasidagi ziddiyatlar shu darajaga yetdiki, hatto xalifa Ma'mun davrida ham dinsizlar kofirlikda ayblanib, qatl etilardi. Xulosa qilib aytganda, musulmonlarning bir-birlarini kufrga hukm qilishi va islomiy oqim vakillarining qatl qilinishi o'sha davrda avjiga shiqqan edi.

Abbosiylar xalifaligining siyosiy va ma'naviy inqirozi davrida takfirning xavfini anglab yetgan Abu Hanifa qiyomat kuni yagona Allohga, payg'ambarga, farishtalarga bo'lgan ishonchni asos qilib oldi. Qur'on va Sunnat bo'yicha,

musulmonlarning gunohi, katta yoki kichik bo'lishidan qat'i nazar, dindan qaytmas ekan, kufr keltirmasligini isbotladi. Rayg'ambarimiz (s.a.v.) hadislarida aytilganidek: «Iymon-Allohga va Uning farishtalariga, kitoblariga, payg'ambarlariga, yaxshi va yomon taqdiriga ishonishdir»²². Ammo ba'zi Abbosiy xalifalari o'zlarining siyosiy manfaatlari uchun bu islom ta'limotini unutdilar. «Xalifa Mansur o'z majburiyatlarini buzgan Mavsil ahlini o'ldirish uchun faqihalardan fatvo talab qilgan kuni, Abu Hanifa qat'iy e'tiroz bildirdi, ular musulmonlar bo'lishi mumkinligi sababli o'ldirish huquqiga ega emasliklari to'g'risida ahdlashishganini aytdi. Ular faqatgina uch holatda agar taraflar jangda qatnashsa: kufr, qasos va isyon holatida o'ldirilgan Xalifa Mavsil ahlini o'ldirishdan tiyilishi kerak edi»²³.

Abu Hanifa fikriga ko'ra, qozi-Xudo, U mo'minlardan kimni xohlasa, kechiradi va jazolaydi. Hatto musulmon gunoh qilgan bo'lsa-da, lekin hech kimni Xudoga sherik qilmasa, u imonli bo'lgani uchun bunday musulmonni kechirish mumkin deb qayd etilgan. Go'yo bola ota -onasini sevadi, lekin ularga bo'ysunmaydi. Mo'min ham Rabbiyni sevadi, lekin ba'zida Uning amriga bo'ysunmaydi. Shunday qilib, kimdir gunohi uchun jazolanishini biladi, lekin u ikki sababga ko'ra gunoh qiladi: birinchidan, gunohi kechirilishiga umid qiladi, ikkinchidan, gunohlari uchun o'limigacha Xudoga tavba qilishiga umid qiladi²⁴.

Shu bilan birga Abu Hanifa kufrning mohiyatiga ham oydinlik kiritdi. U kufr so'zi to'liq inkor qilishni anglatishini aniqladi, lekin agar mo'min Allohga va Uning payg'ambarlariga, farishtalarga va oxirat kuniga ishonib, amrlarga bo'ysunmasa, u kofir emas, balki gunohkor bo'ladi. Kufr esa imonni inkor etishdan kelib chiqadi. Islom qonunlari har bir musulmonning gunohi uchun tegishli jazoni nazarda tutadi. Xalifalikdagi siyosiy inqiroz davrida Buyuk Imom ta'limoti ilohiyotni rivojlantirdi, islom madaniyatini boyitdi va musulmon jamoasini qutqardi. Abu Hanifa «jihod» atamasini shunday izohlaganki, musulmon nafaqat boshqa musulmonga qarshi jihod qilishga, balki hech bir sababsiz musulmon

²² Муснади Абу Ханифа. Душанбе, Эр-граф, 2009. –Б.10.

²³ Аҳмадов С. Баъзе хусусиятҳои фикҳ ва каломи Имоми Аъзам Абу Ханифа (р). Душанбе, 2009. –Б. 20.

²⁴ Абу-Ханифа Нуман ибн Сабит. Трактатий. Важнейшее знаний. М Муравей 2001. 188 с.

bo'lmaganga qarshi jihod qilishiga ham haqli emas. U islomiy manbalarga asoslangan holda jihodning har xil turlarini aniqlab, musulmon bo'lmaganlarga qarshi jihod qilish musulmon va uning oilasi, mol-mulki, vatani va diniga tajovuz qilgan taqdirdagina joiz ekanligini ta'kidlaydi. Shu tariqa Abu Hanifa jihodni musulmonlarning dushman tajovuzidan o'zini himoya qilishi va ularning bosqini xavfini yo'q qilish deb tushungan, bu nafaqat bag'rikenglik tabiatini, balki vatanparvarlik ma'nosini ham anglatadi. Zero, «Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarini asrab-avaylashga da'vat etadi»²⁵.

Bundan tashqari, Buyuk Imom zamon talablariga muvofiq, ilohiy va fiqhii ta'limotlarni ishlab chiqishda, Qur'on va Sunnatdan boshqa manbalar-ijtihad, qiyos va urf-odatlardan foydalanib, islom madaniyatidagi aql va yangilikning o'rnini ham keng tushuntirdi. Shu nuqtayi nazardan, islomdagi bag'rikenglik urf-odatlardan biri sifatida foydalanishda katta rol o'ynadi. Chunki, bu urf-odatlardan biri sifatida foydalanishda katta rol o'ynadi. Chunki, bu urf-odatlardan biri sifatida foydalanishda katta rol o'ynadi. Chunki, bu urf-odatlardan biri sifatida foydalanishda katta rol o'ynadi.

Buyuk Imom mahalliy tillarni ham hurmat qilgan. U ibodat va iltijo qilishdan oldin niyatni aytish mumkinligini va shu tilda diniy yodgorliklarni yaratishga o'z hissasini qo'shdi. Hanafiylik ilohiyoti va huquqshunoslik ta'limotlarining bu tomoni ta'limotni qabul qilgan xalqlarga o'z milliy urf-odatlariga hech qanday to'siqsiz amal qilishiga imkon berdi. Hozirgi kunda dunyodagi musulmonlarning ko'pchiligini tashkil etuvchi Hanafiy mazhabining turli xalqlar orasida tarqalishining sabablaridan biri uning intellektual, bag'rikeng va insonparvar tabiati bilan bog'liq.

Bunga qo‘shimcha ravishda, Abu Hanifa islomda ratsionallik va bag‘rikenglik g‘oyasini rivojlantirish bilan birga, o‘z ta’limotining bu ustunlarini islom axloqi bilan bog‘lash uchun katta kuch sarfladi. U axloqni dinni bo‘ysundirishning bir qismi deb hisoblagan va axloq qoidalariga rioya qilishni

²⁵Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқини ўрганиш бўйича илмий-оммабоп рисола. – Тошкент: Маънавият, 2017; – Б. 5.

musulmonlar uchun «mo‘minning ichki ishini tartibga soluvchi»²⁶ diniy burch deb bilgan. Shu tariqa Buyuk imom axloqning ta’limiy tomonini takomillashtirdi va axloq asosida islomning barqarorligini oqladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ommaviy xalifaliklar va Abbosiylar siyosiy inqirozi, siyosiy va diniy kurashlarning keskinlashuvi davrida islomning ma’naviy -axloqiy hodisa sifatida shakllanishida Hanafiy mazhabining ahamiyati katta bo‘lgan edi. Darhaqiqat, «Dunyoda dinga ishonchi bo‘lmagan xalq yo‘q. Chunki muayyan xalq dinsiz, e’tiqodsiz, biror-bir narsaga ishonchsiz holda yashay olmaydi».²⁷ Shu bois, hanafiy mazhabi nuqtayi nazaridan, ekstremistik va terroristik g‘oyalarni targ‘ib qilishda islomdan foydalanish islomga qarshi harakatdir va uni mustahkamlash va targ‘ib qilish esa ekstremizm va terrorismning oldini olishda katta ahamiyatga ega.

Shunday qilib, Hanafiy mazhabining intellektual, bag‘rikenglik va axloqiy tabiati, Abu Hanifa va uning izdoshlarining sa’y -harakatlari bilan musulmonlar bag‘rikenglikni islomning asosiy g‘oyasi sifatida topa oladigan maktabga asos soldi.

Bugungi kunda, har qanday ekstremistik diniy-siyosiy partiyalar va harakatlar, asosan, islom olamidagi jahon va mintaqaviy kuchlarning geosiyosiy manfaatlaridir. Bunga o‘xshash holat Abbosiylar xalifaligi davrida ham sodir bo‘lgan edi. Demak, har bir musulmon o‘z dini, e’tiqodi va vatanini himoya qilishda bag‘rikenglik tamoyillariga amal qilishi muhim ahamiyatga ega.

Bag‘rikenglikni biz hech qachon befarqlik yoki e’tiborsizlik sifatida qabul qilmasligimiz kerak. Bu shuningdek, boshqalarning dunyoqarashi va turmush tarzini qabul qilishni anglatmaydi, balki boshqalarga o‘z dunyoqarashiga muvofiq yashash huquqini berish bilan xarakterlanadi. Biz bu o‘rinda jamiyatda bag‘rikenglik madaniyati va birga yashash etikasining ahamiyatini aniqlash uchun milliy va diniy madaniyatlar to‘qnashuvining boshlanishiga e’tibor qaratishimiz kerak bo‘ladi. Bu dunyo boshqaruviga qiziqishning ortishi nasroniylik va islomiy to‘qnashuvga olib kelgani sir emas albatta. Xristianlik Sertuaginta (70 ta tarjima)

²⁶ Ахмадов С. Баъзе хусусиятҳои ғиқҳ ва каломи Имоми Аъзам Абу Ҳанифа (р). Душанбе, 2009. –Б.50.

²⁷ Мўминов А., Йўлдошхўжаев Ҳ., Раҳимжонов Д., Комилов М. Динишунослик . – Тошкент: ЎАЖБНТ Маркази, 2004. – Б.9.

orqali Yevropa qit'asiga kirib, Vatikanda katolik cherkoviga asos solgan. Yevropadagi monoteizm, butparastlik va nigilistik maktablarni jilovlashning kuchli vositasiga aylandi.

Boshqacha qilib aytganda, yangi din bir muncha vaqt Yevropa jamiyati va davlatchiligining rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan har qanday elementlarni yengish uchun birlashtiruvchi omil bo'lib kelgan. Qolaversa, bir qator Yevropa milliy davlatlari diniy mansubligi asosida iqtisodiy va tijoriy ittifoqqa aylandi. Xitoy, Hindiston va Markaziy Osiyoning madaniy mintaqasida ham xuddi shunday birlik g'oyasi mavjud edi, u butun yerning geografik atamasi (Moviy g'ildirak ostida) bilan umuminsoniy jamiyat sifatida ifodalangan edi. Ammo bu yerda diniy asosda kelishuv yo'q bo'lgan. Shundan so'ng, islom dinining paydo bo'lishi xalqlar va davlatlarning diniy mansubligining asosiy omili sifatida siyosiy va iqtisodiy munosabatlarning kuchli omiliga aylantirdi. Ya'ni aynan islom armiyasi xristian mamlakatlari va qadimgi madaniyatlar-kortlar, bobilliklar, ossuriylar va forslar tarqalgan mintaqada fathlarni amalga oshirdi, ularni islomga da'vat etdi va madaniy ta'sirini kamaytirdi. Bundan tashqari, ular ellinistik madaniyat zonasining katta qismini doimiy ravishda egallab olishdi, bu esa Ispaniyaning Andalusiya provinsiyasi orqali Yevropaning umumiy xavfsizligiga jiddiy xavf tug'dirdi. Islom o'z tabiatida keng diniy fundamentalizmning mohiyatini namoyon etdi. Bu voqelik iqtisodiy, diniy va siyosiy integratsiya asosida «Salb yurishlari» deb nomlangan Yevropa davlatlarining birinchi ittifoqini Islomning kengayishiga va Muqaddas Vatanining ozod qilinishiga qarshilik sifatida paydo bo'lishiga olib keldi.

O'rta asrlar sharoitida teokratik musulmon imrerialari mustahkamlana boshladi. Bu paytga kelib, O'rta Yer dengizidagi xristian va islom olamlarining qarshiligi doimiy bo'lib qoldi. Har ikki tomon ham munozaralarda asosiy pozitsiyani egallagan edi. O'z da'volarini isbotlash uchun ular muqaddas matnlarga tayanishdi, bu esa dinlarga fundamentalistik yondashuvni vujudga keltirdi. Har bir tomon samoviy kitoblarning muqaddasligi asosida o'z huquqlarini talab qilmoqchi bo'ldi. Arablar esa o'z navbatida Islom payg'ambari Muhammad (s.a.v.) qiyofasini, musulmon madaniyatini, Qur'on va Sunnatni ko'z

qorachig'idek himoya qildilar. Shu bilan birga, arab tili global kuchga aylandi. Boshqa tomondan, yarim orolning arab qabilalari o'zlarining butun tarixi davomida bu kashfiyotdan boshqa hech narsaga ega bo'lmaganlar va shu sababli bu diniy va milliy g'oya atrofida birlashganlar. Bu xatti-harakatlar yangilik bo'lmagan va bu boshqa dinlar an'analariining bir qismi bo'lgan, xolos. Barcha dinlarda diniy ta'limotning uch tomonlama konsepsiyasi mavjud (germenevtik uchlik)-muqaddas matn, talqin va qo'llanilish. Shu nuqtayi nazardan, fundamentalistik yondashuv inqirozli vaziyatlardagi muammolarni Bibliya matnidagi mavzu nuqtayi nazaridan ataylab baholashga intiladi. Bunday talqin qilish variantlari, ya'ni masalani turli dinlarning pozitsiyasiga qarab talqin qilish va uni turli geografik sharoitda amalda qo'llash kamdan kam hollarda hisobga olinadi. Shu nuqtayi nazardan, fundamentalistik g'oyalarning siyosiy vosita sifatida globallashuv jarayonlari bilan uyg'unligi bag'rikenglik g'oyasining mavjud bo'lishiga jiddiy xavf tug'dirishi mumkin. Eng yomoni, rivojlangan davlatlar musulmon kishilari qadriyatlariga siyosiy texnologiya libosini kiydirishni xohlaydilar. Bunga Yaqin Sharqdagi siyosiy va xavfsizlik bilan bog'liq xavfli vaziyat yaqqol namuna bo'ladi. Bu jarayonning terrorchilik harakatlari ko'rinishidagi salbiy ta'siri hozirda boshqa mamlakatlarga ham keng tarqalmoqda. Shu boisdan ham bunday buzg'unchilik va tajovvuzkorlik haqida Qur'oni karimning Baqara surasi 190-oyatida shunday deyiladi: «Albatta, Alloh haddan oshuvchilarni (tajovvuzkorlarni) yomon ko'rgay»,²⁸ Niso surasining 93-oyati ham shunga hamohangdir: «Kimda-kim qasddan bir mo'minni o'ldirsa, uning jazosi jahannamda abadiy qolishdir. Yana unga Alloh g'azab qilgay, la'natlagay va unga ulkan azobni tayyorlab qo'ygay»²⁹.

Mazkur oyati karimalarda, birinchi navbatda, Alloh tomonidan ato etilgan insonning hayoti daxlsiz ekani bayon qilinadi. Unga nisbatan har qanday tajovvuz kechirilmas gunoh bo'lib, uni sodir etgan kishi abadiy jahannamda qolishi

²⁸Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири ҳилол. Т. 1. – Тошкент: Ҳилол-Нашр, 2017. – Б. 177.

²⁹Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири Абдулазиз Мансур – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2017. – Б. 516.

muqarrarligi asoslangan. Qasos surasi 77-oyatida: «Yer yuzida buzg‘unchilikni izlamang. Albatta, Alloh buzg‘unchilarni suymas»,³⁰ deyilgan.

Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston» asarida xalqlar do‘st, ittifoq bo‘lib yashash lozimligi targ‘ib qilingan, qirg‘in keltiruvchi urushlar qoralangan. Abu Nasr Forobiy «Fozil shahar tabiatan sog‘lom bo‘lgan insonlar guruhining birlari bilan hamkorlik qilish yo‘lini afzal bilganlari»³¹ fikri bir tomondan, jamiyatdagi barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan ularning yagona maqsad sari jamoaning umumiy farovonligini yaratish uchun harakatini ifodalaydi. Ahmad Yassaviy ham «Hikmatlar» asarida: «Sunnat ermish, kofir bo‘lsa berma ozor, Ko‘ngli qattiq dilozordan xudo bezor» deb dinsizga ham ozor bermaslikni ta‘kidlagan. Mahmudxo‘ja Behbudiyning «Aqida va vijdoni milliylarig‘a tasarruf etmaydurki, bul Qur‘oni karimni boshqalarning dinu-vijdonining ozod qo‘yganidan va islomning g‘ayridinlarni himoya etganlaridandur»³² g‘oyasida islom dinidagi millatlararo bag‘rikenglik ulug‘lanadi. Abdurauf Fitrat «Rahbari najot» risolasida «Din axloqiy hukmlardan iborat bo‘lib, o‘z tobelarini ikki dunyo saodatiga yetkazadi, inson hayotining samarasi shu saodati dorayn asri»,³³ deb ta‘kidlaydi. Yuqoridagilar shuni ko‘rsatadiki, bag‘rikenglikni diniy shaklda saqlash masalasi zamonaviy jamiyat xavfsizligi uchun juda muhim hisoblanadi.

Diniy bag‘rikenglik ichki barqarorlikni saqlashda, o‘zaro tushunmovchiliklarning oldini olishda, tashqi kuchlarning siyosiy maqsadlarini bostirishda va ularning davlat, millat, madaniyat va din barqarorligiga ta‘sirini zararsizlantirishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Aksincha, diniy bag‘rikenglik bo‘lmasa, dinlarning, konfessiyalar va konfessiyalarning xilma-xilligi davlatlarning ichki zaiflashuviga va beqarorlikka olib kelishi mumkin. Bu bayonot asosida diniy bag‘rikenglik mohiyatini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

³⁰Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири ҳилол. Т.4. – Тошкент: Ҳолол-Нашр, 2017. – Б. 411.

³¹Абу Наср Форобий. Фазилят, бахт-саодат ва камолот ҳақида. – Тошкент: Ёзувчи, 2001. – Б. 27-28.

³²Маҳмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар // Тўнловчи, сўзбоши ва изоҳлар Б. Қосимов – 2-нашри, тузатилган ва тўлдирилган, – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б.101.

³³Маънавият юлдузлари; (Марказий Осиёлик машҳур сиймолар, алломалар, адиблар) // Масъул муҳаррир Хайруллаев М.М. – Тўлдирилган қайта нашр. – Тошкент: А.Қодирий номидага халқ мероси нашр, 1999. –Б. 376.

«Diniy bag‘rikenglik-bu bitta din izdoshlarining boshqa dinlarga ergashuvchilarga bo‘lgan yoqimli va maqbul munosabatining ifodasidir. Ularning har biri o‘z e‘tiqodiga amal qiladi va shu bilan birga boshqalarning teng huquqlarini tan oladi». Biroq, diniy bag‘rikenglik katta qiziqish uyg‘otadigan ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, keng talqin va tavsiflarga ega. Demak, bu konsepsiya o‘ziga xos baho va ifodalarga ega. Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning: «Albatta, din yengildir. Kimki dinni og‘irlashtirsa, din unga g‘olib keladi. Osonlashtiring, yaqinlashtiring va xushxabar bering»,³⁴ «Dinda chuqur ketishdan saqlaning. Sizlardan oldingilar dinda chuqur ketishdan halok bo‘lganlar»,³⁵ «Musulmon uchun o‘z birodarini qo‘rqitish halol emas»,³⁶ degan hadislar islom dini bag‘rikenglik g‘oyalarining hozirgi davrdagi ahamiyatidan dalolat qiladi.

Bag‘rikenglik muammosini ko‘rib chiqishning turli jihatlarini G.Leybnits, N.Makiavelli, S.Monteske, J.Russo, B.Srinozaning klassik asarlarida mavjud. Liberalizm, insonparvarlik va bag‘rikenglik g‘oyalari R.Beyl, F.Volter, T.Gobbs, J.Lokk va boshqa ma‘rifatparvarlarning shaxsiy erkinlik huquqiga o‘xshash asosiy e‘tiqod erkinligini targ‘ib qilgan qarashlarida o‘z ifodasini torgan.

Zamonaviy G‘arb tadqiqotchilarining asarlarida har xil turdagi siyosiy tizimlarda bag‘rikenglik tamoyilini amalga oshirishning qiyosiy tahliliga, demokratik tuzumni saqlab qolish zarurati bilan bog‘liq bo‘lgan bag‘rikenglik xususiyatlari va chegaralarini hisobga olishga birinchi navbatda e‘tibor beriladi. A. Leyfartning «jamoaviy demokratiya» ta‘limoti, L.Rayning «Siyosat tuzilishining jamoaviy tabiati», J. Roulsning «adolat nazariyasi» va boshqa shu kabi tadqiqotlarda bu muammo o‘ziga xos tarzda o‘rganilgan. G‘arb olimlari ko‘p madaniyatli jamiyatdagi bag‘rikenglik madaniyatini yuksaltirish muammolariga katta ahamiyat beradilar (J. Berri, R. Kailin, M. Rleasant va boshqalar). Shuningdek, J. Mendok va M. Sandersning zamonaviy Yevropa jamiyatidagi bag‘rikenglik darajasi dinamikasiga oid tadqiqotlari, S.Stoufferning siyosiy bag‘rikenglik nazariyasi o‘ziga xos tahlili doirasidagi tadqiqotlarini ham alohida

³⁴Имом Бухорий. Саҳиҳ ал-Бухорий. – Дамашқ: Дор ал-улум ал-инсония, 1993. – Б. 23.

³⁵Имом Насойй. Сунан ан-Насойй. Ар-Риёд: Дор ас-салам лин-нашр ват-тавзй, 1999. – Б. 420.

³⁶Абу Довуд. Сунан. Байрут: Дор ал-юрва дар ал-Манҳаж, 2010. 5-жуз, – Б. 458.

qayd etish lozim. Z.Klayd va J.Uilyamsning zamonaviy liberal loyihasi va boshqalarda ham bag'rikenglik ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotni ta'minlovchi muhim omil sifatida e'tirof etilgan.

Millatlar va konfessiyalararo munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beruvchi muhim omil - bu muayyan xalqning milliy o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, jamiyatda mavjud bo'lgan etnik-diniy stereotiplardir. Z.V.Sikevish, N.G.Skvorsov, G.U.Soldatova, V.Yu. Xotinets va boshqalarning ilmiy izlanishlari ana shu muammolarga bag'ishlangan. O'z navbatida o'zbek olimlari bag'rikenglik madaniyatini yuksaltirish va modernizatsiya jarayonlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga katta e'tibor qaratmoqdaki, bu Z.Qodirova, U.Qo'shayev va boshqalarning asarlarida o'z aksini topgan. «Bag'rikenglik» tushunchasining ijtimoiy-madaniy qiymati va funksionalligining turli jihatlarini ochib beruvchi keng qamrovli tadqiqotlar Z. Qodirovaning umumiy tahriri ostida chop etilgan ilmiy to'plamda alohida o'rin egallagan. Mamlakatimiz sharqshunos olimlarining asarlari yurtimizdagi bag'rikenglik madaniyatining namoyon bo'lish xususiyatlarini dinshunoslik va islomshunoslik nuqtayi nazardan o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bag'rikenglik madaniyati ko'p madaniyatli jamiyat hayotida millatlararo va konfessiyalararo bag'rikenglik tamoyillarining faol rivojlanishi va amal qilishini nazarda tutadi. Zamonaviy globallashayotgan dunyo sharoitida bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish ko'p jihatdan modernizatsiya jarayonlari bilan bog'liq. XX asr oxiri XXI asr boshlarida modernizatsiya qilinayotgan davlat va jamiyatning millatlararo bag'rikenglik madaniyatining mohiyati davlat tuzilmalari bilan qarama-qarshilikdan konstruktiv muloqot o'rnatishgacha bo'lgan rivojlanishning ijobiy dinamikasida yotadi. Ko'rib chiqilayotgan davrda davlat va jamiyatning konfessiyalararo bag'rikenglik madaniyatida mintaqadagi konfessiyalarning rasmiy tengligidan ular o'rtasida ko'p qirrali aloqalarni rivojlantirishga o'tish kuzatilmoqda.

Bag'rikenglik madaniyati – kommunikativ ochiqlik madaniyati bo'lib, u modernizatsiya qilinayotgan ko'p madaniyatli jamiyat subyektlarining

bag'rikenglik tamoyillarini faol joriy etish va rivojlantirishni hamda turli shakllarga qarshi turishning samarali usuli sifatida ma'lum darajada murosasizlikning mavjudligini nazarda tutadi. Bag'rikenglik madaniyatining mavjudligi va rivojlanishi uchun ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlar insonning shaxsiy rivojlanishi va tanlash erkinligi huquqi, davlat va fuqarolik institutsionalligi va uning barcha shakllaridagi tajovuzkorlik shakllariga toqat qilmaslikning ko'rinishi sifatida majburiy murosasizlikning namoyon bo'lishidir.

Modernizatsiyaning mohiyati jamiyat hayotining kommunikativ komponenti samaradorligini oshirish maqsadida ijtimoiy-madaniy munosabatlarni sezilarli darajada o'zgartirishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi hududiy rivojlanishining notekisligi bilan ajralib turadi, bu esa tarkibiy qismlari va ijtimoiy-madaniy asoslarining tarixiy dinamikasida katta o'zgarishlarga ega bo'lgan eng yirik mamlakatda modernizatsiya siyosatining oqibatlaridan biridir. Umumjahonlikka intilish sifatida u o'ziga xos madaniyatlarni saqlash va rivojlantirishga, yo'naltirilganlik sifatida madaniy xilma-xillik bilan to'qnash keladi. Ushbu ijtimoiy-madaniy vaziyat turli madaniyatlar tashuvchilari tomonidan o'zaro munosabatlarining asosiy shartlaridan biri sifatida bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirishni taqazo etadi. Shu nuqtayi nazardan, bag'rikenglik madaniyati bag'rikenglik va murosasizlik chegaralarini belgilashda yangi pozitsiyalarni rivojlantiradi, bunga siyosat, huquq va axloqiy qiymat me'yoriy tizim uchun ko'rsatmalar sifatida yordam beradi.

O'zbekiston sharoitida etnik g'oyaning dolzarblashuvi va mamlakatda bag'rikenglik madaniyatini shakllantirishda davlat institutlari bilan bir qatorda ishtirok etgan fuqarolik jamiyati institutlarining faollashuvi kuzatiladi.

O'zbekiston Respublikasida ushbu madaniyatning shakllanishida ikki bosqich mavjud:

- 1980-yillarning oxiri – 1990-yillarning birinchi yarmida millatlararo bag'rikenglik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan etnik harakatlarning tez siyosiylashuvi va radikallashuvi bilan ajralib turadi;

- 1990-yillarning ikkinchi yarmi – 2000-yillarda hokimiyat va millatlararo

munosabatlar doirasida konstruktiv muloqotni yo'lga qo'yish, puxta o'ylangan milliy siyosatni ishlab chiqish va millatlararo bag'rikenglik madaniyati uchun mustahkam poydevor yaratish jarayonlari bilan ajralib turadi.

XX asr oxiri - XXI asr boshlarida konfessiyalararo munosabatlarning rivojlanish dinamikasini tahlil qilish O'zbekiston Respublikasida dialogik paradigmani shakllantirish va uning asosida konfessiyalararo bag'rikenglik madaniyatining yangi modelini qurish jarayonini aniqlash imkonini beradi. Bu jarayon, bir qator salbiy hodisalar mavjudligiga qaramay, mamlakatimizda konfessiyalararo bag'rikenglik madaniyatini yuksaltirish borasida to'plangan tajribasi o'ziga xos o'rinni egallaydi.

O'zbekiston Respublikasida milliy siyosatni olib borishning o'rnatilgan amaliyoti shuni tasdiqlaydiki, faqat davlat hokimiyatining barcha bo'g'inlari va darajalari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati tuzilmalari, shu jumladan, asosiy milliy hamjamiyatlarning tegishli tuzilmalari salohiyatini yuksaltirish asosida milliy rivojlanish va millatlararo hamkorlikning ustuvor muammolari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining, xususan, etnik bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati joylarda muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlashi mumkin.

XXI asr boshlarida yaxshi qo'shnichilik, diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va hamkorlikning barqaror xususiyatlari, etnik-konfessiyaviy munosabatlarning uyg'un rivojlanishi O'zbekiston uchun ustuvor yo'nalishga aylandi.

Jahon moliyaviy inqirozi oqibatlarini bartaraf etishning zamonaviy sharoitida rivojlangan bag'rikenglik, madaniy xilma-xillik, konsolidatsiya va o'zaro yordam an'analari mintaqaviy va O'zbekiston jamiyatining keyingi rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qildi.

XX-XXI asrlar davomida O'zbekistondagi chuqur o'zgarishlar, yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, siyosiy rejimlarning o'zgarishi, qadriyatlar yo'nalishlari, fan va madaniyatdagi tez o'zgarishlar davlat va jamiyat hayotining ma'naviy hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Davlat diniy siyosatining o'zgarishi diniy

tashkilotlar sonining ko'payishi, ularning jamiyat hayotidagi rolining oshishi uchun munosib shart-sharoit yaratdi.

XX asrning oxirida O'zbekistondagi chuqur o'zgarishlar nafaqat milliy va ijtimoiy harakatlarning o'sishini, balki davlat va jamiyatning ma'naviy hayotining dinamikasini ham kuchaytirdi. Ijtimoiy-madaniy sohaga va jamiyatdagi dindorlarning xulq-atvoriga konfessiyaviy ta'sir kuchaydi. 1990-yillarda, o'tish davrida, respublikada diniy uyg'onish jarayoni boshlandi, masjidlar, cherkovlar, monastirlar, ibodatxonalar va boshqalarni keng ko'lamda qurish va ta'mirlash ishlari boshlandi. Ilgari faoliyati taqiqlangan ko'plab diniy tashkilotlar o'z faoliyatini qonuniy ravishda amalga oshira boshladilar. O'zbekistonda an'anaviy ravishda polikonfessional munosabatlarning ustuvor bo'lganligi sababli, bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etdi.

1990-2021-yillarda konfessiyalararo bag'rikenglik rivojlanish dinamikasini tahlil qilish natijasida, O'zbekiston Respublikasida uning rivojlanish vektori diniy ozchiliklarning qonuniy huquqlarini saqlab qolish va ta'minlashda konfessiyalarning rasmiy tengligidan mamlakatning yetakchi konfessiyalari o'rtasida keng ko'lamli va diversifikatsiyalangan aloqalarni rivojlantirishga qaratilganligini ko'rsatdi. Bu jarayonga respublikada tarixan shakllangan millatlararo va konfessiyalararo munosabatlar turining amal qilishi yordam berdi. Bularning barchasi mintaqada bag'rikenglik madaniyatining ijobiy o'sishi uchun eng muhim katalizator bo'lib xizmat qilmoqda. Shunga qaramay, ushbu dinamikada bir qator salbiy hodisalarni qayd etish kerak. Birinchidan, bular islom diniga nisbatan diniy ozchilik sifatida harakat qiladigan ba'zi diniy jamoalari kamroq bo'lgan O'zbekiston uchun an'anaviy islom e'tiqodida bo'lgan kishilar o'rtasidagi qarama-qarshiliklardir, ikkinchidan, musulmonlar jamoasida tashkiliy va intellektual, ilmiy jihatdan islohotlar olib borishga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi, bu esa aholining, ayniqsa, musulmon jamoasining bag'rikenglik madaniyatining o'sishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Uchinchidan, noan'anaviy diniy oqimlarning murosasiz faoliyati va ularga diniy jamoa yetakchilari faoliyatiga dunyoviy jamoatchilik, jumladan, ilmiy ziyolilar tomonidan zaif

munosabatning mavjudligi va boshqalar shular jumlasidandir.

Shunday qilib, sog'lom muloqotga asoslangan bag'rikenglik madaniyati shaxs va ko'p millatli, ko'p konfessiyali jamiyatning, shu jumladan, mintaqaviy jamiyatning jadal ijtimoiy-madaniy rivojlanishi uchun eng samarali omil hisoblanadi. Insoniy destruktivlik, zo'rvonlik va murosasizlik sohalarini qisqartirish modernizatsiya tashabbuslari samaradorligini oshirishning eng muhim shartidir.

Modernizatsiya qilinayotgan davlat yoki jamiyatda bag'rikenglik madaniyati namoyon bo'lishini yanada chuqur o'rganish istiqbollarini bir qator fikrlar bilan bog'lash mumkin. Masalan, zamonaviy dunyoda turli darajadagi bag'rikenglik va murosasizlik va ushbu davlatning ruxsat etilgan chegarasini aniqlash mavzusi samarali bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, zamonaviy dunyoda «bag'rikenglik madaniyati» nisbatini tahlil qilish, umuman olganda, turli xil ilmiy sohalaridagi ma'lumotlar va xususan, ijtimoiy so'rovlar natijalaridan foydalangan holda kengaytirilishi va chuqurlashtirilishi mumkin. Zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan bog'liq bo'layotgan voqealarni tahlil qilish orqali bag'rikenglik madaniyatining ko'rib chiqilgan ko'rinishlarini kengaytirish va to'ldirish mumkin.

Xullas, birinchidan, O'zbekistonning jahon iqtisodiyoti va savdosida, jahon siyosatida, xalqaro madaniy aloqalarda tobora ortib borayotgan ishtiroki, haqiqatan ham, har kuni aholining eng keng qatlamlarida bag'rikenglik zarurligini keltirib chiqaradi. Har qanday sivilizatsiyalashgan jamiyatning vazifasi nafaqat bag'rikenglik muammosini nazariy tushunish, balki bag'rikeng dunyoqarash, xulq-atvor va turmush tarzini shakllantirish uchun real ijtimoiy sharoitlar va ta'lim dasturlarini yaratishdir. Shu nuqtayi nazardan, ilmiy izlanishlarimiz diqqat markazida muhim qarama-qarshilik va ko'p qirraliligi bilan ajralib turadigan bag'rikenglik turadi. Ikkinchidan, bag'rikenglikning ijtimoiy-falsafiy asoslari bag'rikenglikning ijtimoiy-madaniy va sivilizatsiya hodisasi sifatidagi imkoniyatlari, shakllanishi, amal qilishi va rivojlanishini belgilovchi ijtimoiy-falsafiy bilimlarning qonuniyatlari, tamoyillari, tushunchalaridir. G'arb va Sharqda bag'rikenglikning ijtimoiy-falsafiy asoslarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki,

odamlar orasida qarashlardagi tafovutlarning tabiiyligiga ishonsh, majburan o'zgartirishni inkor etish mumkin.

1.3-§. Yoshlarda ma'naviy-axloqiy dunyoqarashni yuksaltirish va bag'rikenglik madaniyatini shakllantirishga doir zamonaviy qarashlar tahlili

Hozirgi kunga qadar murosasizlik yoki diniy aqidaparastlikning mavjudligi manfaatdor davlatlar qo'lida kamsitishning ta'sirli vositasi sifatida ishlatilib kelmoqda. Shu sababdan, azaldan yashirin siyosiy maqsadlarni ko'zlagan din me'yorlari va milliy qadriyatlarni tarqatish uchun mubashir (arabcha ism «xushxabar keltiruvchi voiz») deb nomlangan targ'ibot guruhlarini faoliyatida noto'g'ri xatti-harakatlar sodir bo'ladi.

Insoniyatning qadimgi tarixida O'rta Yer dengizi madaniyatida globallashtirishning birinchi belgilari Aleksandr Makedonskiyning g'oyalari va ellinistik madaniyatning shakllanishi orqali paydo bo'lgan. (Kosmopolitizm qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan, dunyo fuqaroligi haqidagi fikrlarni Sokrat bildirgan, ammo Diogen birinchi marta o'zini «kosmopolit» deb e'lon qildi. Hozir kosmopolitizm (dunyo fuqarosi) g'oyasi kuchayib bormoqda. Bu g'oyaning asoschisi Aristotel bo'lib, ushbu g'oya Iskandar yurishlari davrida ildiz otgan. Bunda milliy, diniy qadriyatlar, asriy an'analar tan olinmaydi. «Vatan», «millat», «milliy davlatchilik» tushunchalari eskirdi, hammamiz bitta davlat, bitta hukumat tuzamiz, Vatanningni qo'y, dunyo fuqarosi bo'l», degan g'oya kosmopolitizmga tegishlidir.

Shu tariqa, Rim imperiyasi O'rta Yer dengizi havzasida o'z gegemonligini mustahkamlab, turli madaniyatlarning chuqur uyg'unlashuvini o'rnatdi, ularning ta'siri bugungi kunda ham mavjud.

Sobiq ittifoq respublikalari o'rtasida turli xil diniy va mazhabiy harakatlarni namoyish etish va tarqatishga o'xshash urinishlar kuchaygan, ular asosan jamiyatni ichidan turib kuchsizlantirishga qaratilgan edi. Sovet Ittifoqida ateizmning davlat darajasida qo'llab-quvvatlanishi tufayli, mustaqillikka erishish jarayonining

boshida, diniy xarakterdagi har qanday targ'ibot tahlil qilinmasdan qabul qilindi va barcha din vakillari orasida bu siyosat keskin tanqid qilindi. Ayni shu munosabat bilan davlat, jamiyat va shaxs hayotida bag'rikenglik an'analari inqirozga olib kelindi. Rayg'ambarimiz (s.a.v.) «Dinda chuqur ketishdan saqlaning. Sizlardan oldingilar dinda chuqur ketishdan halok bo'lganlar»,³⁷ «Musulmon uchun o'z birodarini qo'rqitish halol emas»,³⁸ degan hadislar islom dini bag'rikenglik g'oyalarining bugungi kundagi ahamiyati qanchalik darajada yuqori ekanligini ko'rsatib turibdi.

Bag'rikenglik va zo'ravonlik dialektik xususiyatga ega tushunchadir. Zo'ravonlik harakati nafaqat bardoshli obyektlar tizimini, toqat qilinadigan obyektlar - subyektlarning tuzilishini belgilaydi. Qadriyat-me'yoriy tizim sifatida bag'rikenglik va zo'ravonlik bir-birini amalga oshirish uchun shartlardir. Plyuralizm jamiyatda ko'plik va xilma-xillikning mavjudligini bildiradi, bag'rikenglik esa butun tizimning faoliyat yuritishi va mavjudligini ta'minlovchi birlik tamoyilini joriy qiladi. Bag'rikenglik prinsipi despotizm asoslarini aniqlash va uning namoyon bo'lishining oldini olishga keng imkon beradi, chunki u o'zaro ta'sir qiluvchi subyektlar pozitsiyalarining tengligi o'rtasidagi farqni nazarda tutadi.

Ma'lumki, 1995-yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan «Bag'rikenglikka bag'ishlangan yili» deb e'lon qilingan. Bu qaror YUNESKO tashabbusi bilan qabul qilingan. Ushbu harakatga sabab insoniyat jamiyatlarining tinch hayotiga va umuman xalqaro barqarorlikka bir qator jiddiy tahdidlarning mavjudligi va hattoki kuchayib borayotganidan xavotirda bo'lganligi bilan xarakterlanadi. Ushbu global muammolar orasida, birinchi navbatda, quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- etnomilliy nizolar;
- ozchilikka nisbatan diskriminatsiya qilinishi;
- ksenofobiya, ayniqsa qochqinlar va muhojirlarga qarshi harakatlar;

³⁷Имом Насойй. Сунан ан-Насойй. Ар-Риёд: Дор ас-салам лин-нашр ват-тавзиъ, 1999. – Б. 420.

³⁸Абу Довуд. Сунан. Байрут: Дор ал-юсрва дар ал-Манҳаж, 2010. 5-жуз, – Б. 458.

- irqchi tashkilotlarning faoliyati va irqiy zo‘ravonlik harakatlari;
- diniy ekstremizm;
- ziyolilar, so‘z va fikr erkinligini ta’kidlaydigan boshqa shaxslarga nisbatan zo‘ravonlik va ta’qib;

- siyosiy harakatlar va mafkuralarga toqat qilmaslik;

Aholining zaif guruhlarini jamiyatdan chetlashtirishda ushbu guruhlarga nisbatan kamsitish va zo‘ravonlikka asoslangan munosabatda bo‘lish. Ayni paytda «Ijtimoiy hayotimizda ko‘plab ijobiy jarayonlar bilan birga yosh avlodning qalbi va ongini egallashga qaratilgan ma’naviy tahdidlar ham tobora xavfli tus olmoqda»³⁹.

Murosasizlik, haqiqatan ham, zamonaviy dunyodagi eng katta global muammolardan biriga aylandi. Uning mohiyati individlar va madaniyatlar o‘rtasidagi tafovutlarni inkor etish va bostirishdan iborat. Kollektiv va hatto davlat mavqeyi darajasiga ko‘tarilgan murosasizlik demokratiya tamoyillariga putur yetkazadi, insonning shaxsiy va jamoaviy huquqlarining buzilishiga olib keladi.

Madaniyatlar va odamlar o‘rtasidagi tafovutlar bo‘linish va hatto qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarishi mumkin: bular demokratiya va plyuralizmning tabiiy oqibatlari bilan belgilanadi. Ammo bunday qarama-qarshiliklarni bartaraf etish yoki o‘ziga xos qarash va pozitsiyalarni o‘rnatish uchun kuch ishlatish qabul qilinishi mumkin emas. Ana shu asosiy tamoyillardan kelib chiqib, YUNESKO o‘zining ellik yilligi munosabati bilan o‘z Konstitutsiyasining muqaddimasi matnini dunyoga eslatib o‘tadi: «Urushlar odamlar ongida boshlangan ekan, tinchlikni yaratish ham odamlar ongidan boshlanishi kerak».

Sovuq urush tugab, kommunistik blok parchalanganidan keyin chuqur ijtimoiy va geosiyosiy o‘zgarishlarni boshdan kechirayotgan zamonaviy dunyo hozirgi vaziyatning imkoniyatlari va xavf-xatarlarini yanada adekvat tushunishga tobora muhtoj bo‘lib bormoqda. XXI asr boshida anarxiya va zo‘ravonlik hukmronligining oldini olish uchun individual va jamoaviy mas’uliyat va yanada samarali institutlarni rivojlantirish uchun yangi tajriba va yangi tashabbuslar zarur

³⁹ Мирзиёев Ш. Ёшлар куни муносабати билан Ўзбекистон ёшларига табриги. <https://daryo.uz>. 2020/06/29.

bo'la boshladi

XX asr insoniyat taraqqiyotining eng og'ir davri bo'lib, jahonning ijtimoiy hayot larzalari va inqiloblari, global ekologik muammolarning keskinlashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy burilishlar, inson hayotining ma'naviy-axloqiy asoslarining zaiflashuvi bilan xarakterlandi. Bu juda ko'p odamlarning o'limi, qirg'inlar, inson resurslarining katta yo'qotishlari bilan birga amalga oshdi. Ayniqsa ko'pgina mamlakatlarda qurol va texnologiyalarning to'planishi va vayronkorligining hozirgi darajasida insoniyatni inqiroz va halokatli vaziyatlarga solmasdan turib, ijtimoiy va xalqaro muammolarni kuch bilan hal qilish mumkin emasligi hammaga ayon bo'ldi. Shuning uchun insoniyatni qutqaradigan muammolarning boshqa g'ayrizo'ravon yechimlarini izlash va topishgina emas, balki ularni har tomonlama ko'rib chiqish va faol rivojlantirish kerak bo'lmoqda.

O'z navbatida bag'rikenglik muammosini o'rganishning ahamiyati ham butun dunyoda sodir bo'layotgan voqealar, ham so'nggi o'n yilliklarda mamlakatimizda sodir bo'lgan voqealar bilan bevosita bog'liq. Mahalliy urushlar va terroristik harakatlar, qochqinlar olomoni va milliy ozchiliklarni ta'qib qilish uzoq vaqtdan beri to'plangan va jilovlangan g'azab va o'zga e'tiqod vakillariga nisbatan nafratning bugungi kunda paydo bo'lganining ishonchli dalilidir. Insoniyat endilikda «o'z-o'ziga qarshi urush» davriga kirdi. Ya'ni, bugungi kunda boshqa tilda so'zlashuvchi, boshqa dinga e'tiqod qiluvchi, boshqa qadriyatlar tizimiga amal qiluvchi odamlarga qarshi urush, uni olib borish usullari ancha xilma-xil va murakkablashdi. Toqatsizlik insoniyatni ommaviy qabrga olib boradi. Odamlarning ma'naviy-axloqiy munosabatlar doirasidagi vahshiyliги bizning ko'z o'ngimizda sodir bo'lmoqda. Umuman, insoniyatning ham, xususan, jamiyatimizning zamonaviy muammolari ham insonlar uchun eng qiyin narsa ularning hayoti, ijtimoiy o'zgarishlari uchun yo'l-yo'riq va mezon tanlash ekanligini ko'rsatib turibdi.

Bag'rikenglik murosaga erishish, nizolarni bartaraf etishning eng muhim shartidir, shuning uchun bag'rikenglik muammosi bugungi kunda xalqaro ma'noga ega bo'ldi. 1992-yilda BMT Bosh Assambleyasi YUNESKOning XX asrning

so'nggi o'n yilligida BMTning «Bag'rikenglik yili» deb o'tkazish tashabbusini olqishlab rezolyutsiya qabul qilgani bejiz emas. Ammo o'zaro bag'rikenglik, sivilizatsiyalar to'qnashuvi, madaniyatlar, millatlar, alohida guruhlar, alohida odamlar bir-birlarini oddiygina yo'q qilishlari mumkinligi ham aniq. 1996 yil YUNESKO tomonidan "Bag'rikenglik yili"- deb e'lon qilindi. Ana shu g'oya doirasida qator xalqaro tadbir va anjumanlar o'tkazildi. Ushbu konferensiyalarning mazmuni bag'rikenglik tushunchasining tibbiy va ekologik jihatdan, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy jihatdan talqinlari qanchalik keng ekanligini ko'rsatadi. Bu talqinlarning barchasi o'z asoslari va mavjud bo'lish huquqiga ega, chunki bag'rikenglik shunchaki mavhum falsafiy ideal va o'ylab topilgan nazariy konstruksiya emas, balki insoniyat omon qolishining amaliy shartidir. Agar insoniyat bu hayotda bag'rikenglikni rivojlantirmasa, faqat va faqat o'zini halokatga uchratadi.

Bag'rikenglik – bu madaniyatning yaxlitligi bo'yicha amalga oshiriladigan o'ziga xos konstruktiv yondashuvdir. Chunki aynan bag'rikenglik yaxlitlik talablarini turli modallik subyektlari faoliyat sohasining xilma-xilligi orqali amalga oshiradi, bu esa ularning har biri uchun birgalikda yashash zarurligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2017-yil sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifi ilgari surilganligi ham e'tiborga molikdir. Jahon miqyosida e'tirof etilgan «Ushbu rezolyutsiya bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan»⁴⁰ligi bilan ham ahamiyatlidir.

Shuningdek, O'zbekiston taklif etgan rezolyutsiyaning asosiy maqsadi - barcha uchun ta'lim olish imkoniyatini taqdim etish, savodsizlik va bilimsizlikni bartaraf etishdan iborat.

O'zbekistonning BMTdagi doimiy vakolatxonasi xabarida ta'kidlanganidek,

⁴⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. -B. 244-254.

rezolyutsiya nafaqat BMTning barcha a'zo davlatlari tomonidan bir ovozdan ma'qullangan bo'lib, balki 50 dan ortiq davlatlar hammuallifligida qabul qilindi. Mualliflar orasida Qirg'iziston, Livan, Marokash, Birlashgan Arab Amirliklari, Ummon, Pokiston, Koreya Respublikasi, Rossiya, Saudiya Arabistoni, Singapur, Sudan, Tojikiston, Tailand, Ozarbayjon, Jazoir, Bahrayn, Belorussiya, Gana, Tunis, Turkmaniston, Filippin, Yaponiya va boshqa davlatlar bor.

Rezolyutsiyada ta'lim, tinchlik, inson huquqlari, bag'rikenglik va do'stlik g'oyalari olg'a suriladi va shuningdek, dunyoda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash uchun integratsiya, o'zaro hurmat, inson huquqlarini himoya qilish, bag'rikenglik va o'zaro tushunishning muhimligi tan olinadi.

Bag'rikenglik-bu kimdir boshdan kechiradigan, lekin uni faol ravishda ifoda etmaydigan, unga zid bo'lgan ko'rinishlarni bostirishga yoki taqiqlashga harakat qilmaydigan o'ziga xos munosabatlarni saqlashni anglatadi. Ushbu ta'rif bag'rikenglikni nazariy tushunish va amaliy tamoyil sifatida o'rganishdagi mavjud yondashuvlarda aks ettirilgan shakllarini zaif, yuzaki bag'rikenglikdan o'zaro boyituvchi tanqidiy muloqot-barqaror bag'rikenglikkacha tizimlashtirish imkonini beradi. Bag'rikenglikni shakllantirishning muhim shartlari-axloqiy salomatlik, o'z-o'zini anglash, onglilik, qiziquvchanlik, o'zini o'zi qadrlash, ichki erkinlik, tanqidiylik, ochiqlik va boshqalardir. Raqobat va qarama-qarshilik munosabatlari nafaqat bag'rikenglik chegaralarida joiz, balki undan oldin ham bo'ladi. Bag'rikenglikka xos dialektik va qarama-qarshilik mavjud: bag'rikenglik nafaqat boshqalarni qabul qilish, balki boshqasini inkor etish hamdir. Boshqacha qilib aytganda, bag'rikenglik qabul qilish va inkor etish dialektikasidir; va shunday tarzda, biri ikkinchisini, hech bo'lmaganda, qisman taxmin qiladi. Shuning uchun ham taniqli faylasuv olim Z.Davronov bag'rikenglikning xilma-xil shakllarda namoyon bo'lishini tezislar orqali quyidagicha izohlab o'tadi:

«**Birinchidan:** bag'rikenglik faqat diniy sohalarda qo'llaniladigan tushuncha bo'lmasdan, insonlar o'rtasida bo'lib o'tadigan turli sohadagi munozaralarda aks etadigan keng ma'nodagi tushunchadir.

Ikkinchidan: bag'rikenglik insonlarning barcha sohalardagi his-tuyg'usini,

umumiy faoliyatini, qamrab oladigan qarashlar yig'indisidir.

Uchinchidan: bag'rikenglik bu barcha razolatlardan uzoq bo'lishga, ulardan xalos bo'lishga undovchi tushunchadir.

To'rtinchidan: bag'rikenglik bu insonlarda barcha sohalarida ezgulik va yaxshilik rishtalarini namoyon qiluvchi falsafiy tushunchadir.

Beshinchidan: bag'rikenglik bu – barcha illatlarni keltirib chiqaradigan sohalarida sabr-toqatli bo'lishga chorlovchi faoliyatdir»⁴¹.

Bag'rikenglik muammosini o'rganishning ahamiyati, birinchi qarashda, bag'rikenglik g'oyasi sodda va ravshan bo'lishi bilan ortadi. Ba'zan shunday deb fikr yuritishning o'zi kifoya. Darhaqiqat, bu hayotda odamlar, biz bir-birimizga va kelishmovchiliklarga bag'rikeng bo'lamiz, biz birga yashaymiz va muzokaralar stolida yuzaga keladigan barcha muammo va qarama-qarshiliklarni hal qilamiz, aks holda na g'olib bo'lamiz, na yutqazamiz. Bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish zarurligi to'g'risida umumiy kelishuv paydo bo'lishiga qaramay, zamonaviy jamiyatda xalqaro hamkorlikka putur yetkazuvchi, o'tkir millatlararo nizolarni keltirib chiqaradigan jiddiy muammolar ham kuzatilmoqda. Bunday murosasizlik va qarama-qarshiliklarni bartaraf etish yoki yumshatishning yo'li bormi? Bu savollarga javob bermasdan, ushbu muammoga adekvat yondashuvni ishlab chiqishga ishonish qiyin.

Aslida, bag'rikenglik g'oyasi bir qarashda ko'ringanidan ancha murakkabroq: birinchidan, u ma'lum metodologiyaga asoslanadi va bir qator oqibatlarga olib keladi. Shu bilan birga, bag'rikenglik turli shakllarda mavjud bo'lishi mumkin va shunga mos ravishda turli xil oqibatlarga olib keladi; ikkinchidan, bag'rikenglik muammosi insonning mohiyati, uning o'ziga xosligi, bilish imkoniyatlari va chegaralari, haqiqatni anglash, madaniyatlarning o'zaro ta'siri, muloqot va o'zaro tushunish va boshqalar muammosiga oid bir qator fundamental falsafiy va antropologik muammolar bilan bevosita bog'liqdir. Uchinchidan, omma ongida bag'rikenglik g'oyasini amalga oshirish jamiyatda

⁴¹Давронов З. Бағрикенглик тушунчасига яна бир чизги // Модернизация, инновацион тараққиёт ва толерантлик ривожі истиқболлари (1-китоб). - Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2010. – Б. 29.

shaxsni tushunish va uning oid bog‘liq bir qator munosabatlarning shakllanishi bilan bog‘liq amaliy qiyinchiliklar bilan birga namoyon bo‘ladi.

Masalan, mustaqillikka munosabat, mustaqillik, shaxs, uning e‘tiqodi va harakatlari uchun shaxsiy javobgarligi, o‘z hukmlarining nisbiyligini tushunishdan kelib chiqqan holda, o‘z g‘oyalari va e‘tiqodlarini majburlash va kuch bilan singdirishga yo‘l qo‘yilmasligi shular jumlasidandir. Bunday munosabatlar tarixiy davrda paydo bo‘lgan va bundan tashqari, madaniyatda nisbatan yaqinda ildiz otgan va shuning uchun barcha jamiyatlarda mavjud emas.

Masalan, mamlakatimiz tarixida bag‘rikenglikni tarbiyalash uchun zarur shart-sharoit yaratilmagani aniq. Mamlakatimizda hamon ko‘pchilik hamfikirlikni, xoh u konfessiyaviy, xoh siyosiy-mafkuraviy bo‘lsin ma‘qul ko‘radi. Bunga sabab sovet tuzum davrida plyuralizm va bag‘rikenglik ma‘naviy zaiflik, prinsipiiallik yo‘qligi sifatida qabul qilinganligi edi. Chunki, Sobiq tuzum davrida mamlakatimizda diniy bag‘rikenglikni rivojlantirishda yetarlicha shart-sharoit yaratilmagani aniq.

Ijtimoiy rivojlanishning hozirgi bosqichida dunyo yaxlitligining o‘ssishi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, bu esa umumiy qiymat shartlarini qabul qilishni nazarda tutadi. O‘zaro tushunishning asoslarini izlash bag‘rikenglik tushunchasini tahlil qilish va tushuntirish bilan bog‘liq muammolarni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Shuni ham ta‘kidlash joizki, mamlakatimizda faol kechayotgan ijtimoiy-madaniy fermentatsiya jarayonlari milliy madaniyatning mafkuraviy o‘zagini o‘zgartirib yubordi, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni sezilarli darajada ijobiy tomonga burdi. Sobiq tuzum davridagi «yagona to‘g‘ri dunyoqarash»ni tiklashga urinishlar bugungi kunda ahamiyatga ega emas. Biroq, mafkuraviy chalkashlik, o‘zaro begonlashish holati o‘z-o‘zidan yo‘qolmaydi. Bu yerda ijtimoiy-madaniy yo‘nalishdagi nazariy fikrni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalar bag‘rikenglik g‘oyasini amalga oshirishning muhim amaliy ma‘nosini isbotlaydi. Biroq, uning jamiyatda ildiz otishi va o‘ssishi uchun haqiqiy shart-sharoitlarni (ijtimoiy, madaniy, psixologik)

yaratish masalasini hal qilish uchun bag'rikenglik muammosini nazariy tahlil qilish, bag'rikenglik haqidagi umumiy tushunchani anglash, hozirgi bosqichda ushbu hodisaning rivojlanish darajalari va chegaralarini aniqlashga katta yordam beradi.

So'nggi o'n yilliklarda jamiyatimizda shuningdek, qator xorijiy mamlakatlarda ham ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatning o'zgarishi bag'rikenglik hodisasini har tomonlama nazariy jihatdan o'rganish uchun qulay shart-sharoit yaratdi. Bundan tashqari, umumiy siyosiy vaziyat, xususan, O'zbekistondagi vaziyat bu muammoni o'rganishni yanada zaruratga aylantiradi. Zamonaviy falsafiy adabiyotlarda bag'rikenglik muammosi rivojlanishning dastlabki bosqichida, davriy nashrlarda va ijtimoiy-falsafiy to'plamlarda keyingi falsafiy qarashlarning rivojlanishi uchun boshlang'ich ma'lumot sifatida katta hajmdagi materiallar nashr etilganda inson hayotining muayyan sohalarida bag'rikenglik tahlili va bag'rikenglikni har qanday darajadagi insoniy munosabatlarning asosiy tamoyili sifatida qabul qilish zarurligi, bag'rikenglikni zamonaviy insoniyatning omon qolishining asosiy shartlaridan biri sifatida tan olish zarurligi haqida umumiy fikrlarni aks ettirdi.

Diniy ko'rinishdagi bag'rikenglik kuchli markazlashgan davlat hokimiyatining o'rnatilishi tufayli din ijtimoiy institut sifatida shakllanmaguncha va u darajada dunyoqarash shakli sifatida har qanday dinning muhim xususiyati hisoblanadi. Dinni siyosiylashtirish, uni mafkuralashtirish va institutsionallashtirish muqarrar ravishda diniy bag'rikenglikning muhim xususiyatining salbiy tomonga o'zgarishiga olib keladi. Bu haqida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev alohida ta'kidlab: «Bugungi kunda butun dunyo, ayniqsa, Islom hamjamiyati davrning tahlikali tahdidlari bilan yuzma-yuz turibdi. Islom dinini siyosiylashtirish va musulmon yoshlarni radikallashtirish borasidagi urinishlar bunday xatarlarni o'ta jiddiy tahlil qilish, baholash va ularga munosib javob berishni taqozo etmoqda. Dunyodagi ayrim doiralar Islomga qarshi kayfiyatni kuchaytirgan holda, Islom dinini terrorizm mafkurasi bilan bog'lashga urinayotganini ming afsus bilan qayd etishga to'g'ri keladi. Bu omil Islom olamini

yanada jipslashishga chorlamoqda. Islom hamjihatligi jahondagi keskinlikni yumshatishda muhim rol o'ynashi mumkin»⁴², dedilar.

Dunyo hamjamiyatini tinch-totuvlik, taraqqiyotga chorlovchi diniy bag'rikenglik siyosati va shu yo'ldagi sa'y-harakatlar O'zbekistonning din sohasidagi mustahkam mavqeyini belgilashi bilan birga, boshqa xalqlar orasida ham hurmat e'tiborini oshirib, xorijliklarning diqqatini jalb qilmoqda. Albatta, diniy bag'rikenglik tamoyillarining rivoji mintaqadagi dolzarb muammolardan bo'lmish –tinchlikni ta'minlashga xizmat qilishi muqarrardir. Shu boisdan ham YUNESKO, Los-Anjeles Bag'rikenglik muzeyi (AQSh), AQShning Global hamkorlik instituti, Markaziy Yevropa universiteti qoshidagi dinlarni o'rganish Markazi (Vengriya, Budapesht), Bag'rikenglik ta'limi markazi (AQSh), Xolokost va Bag'rikenglik markazi (Gonkong), Germaniya akademik almashuvlar xizmati, Toshkentdagi Gyote instituti, Nemis xalq universitetlari tomonidan islom dini va boshqa din vakillarining urf-odat, an'ana va udumlarining diniy ta'limotlar bilan bog'liqligini o'rganish fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarning yaxshilanishiga, ularda vatanparvarlik tuyg'ularining kuchayishiga olib kelishi to'g'risida bir qancha muhim ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Buning natijasida esa «bag'rikenglik», «bag'rikenglik madaniyati», «diniy bag'rikenglik», «milliy bag'rikenglik», «umumbashariy bag'rikenglik» tushunchalarining metodologik asoslariga oid bir qator konseptual g'oyalar ishlab chiqilmoqda.

Mamlakatimizda ayni shu yo'nalishda olib borilayotgan izchil siyosat, xalqaro miqyosda ham e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, O'zbekistonning diniy bag'rikenglik g'oyasini ilgari surishdek xayrli ishda nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi amalda o'z ifodasini topmoqda. Shuni qayd etish joizki, O'zbekiston Respublikasi 1993-yili 26-oktyabrda YUNESKO xalqaro tashkilotiga a'zo bo'lib kirgandan buyon, ushbu tashkilot doirasida ko'plab ilmiy-ma'rifiy anjuman va forumlar uyushtirib, yurtimizda hamkorlikda qator tadbirlar o'tkazib

⁴² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 18-oktyabr kuni Toshkent shahrida o'tkazilgan «Islom hamjihatligi: O'zbekiston – Ozarbayjon misolida» mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigi. Manba: http://uza.uz/oz/politics/islom-amzhi-atligi-zbekiston-va-ozarbayzhon-misolida-mavzuid-18-10-2017?month=08&year=2017&ELEMENT_CODE=islom-amzhi-atligi-zbekiston-va-ozarbayzhon-misolida-mavzuid-18-10-2017&SECTION_CODE=politics.

kelmoqda. Bular orasidagi diniy bag‘rikenglik, dinlararo muloqotga bag‘ishlangan uchrashuvlar, albatta, kelajakda o‘z samarasini beradi. Masalan, YUNESKO bilan hamkorlikda o‘tkazilgan «Tinchlik madaniyati va dinlararo bag‘rikenglik» mavzusidagi xalqaro kongress, «So‘fizm va dinlararo bag‘rikenglik» mavzusidagi xalqaro seminar, «Markaziy Osiyoda madaniyat va din» mavzusidagi xalqaro forum, Toshkent islom universitetida YUNESKOning «Jahon dinlarini qiyosiy o‘rganish» kafedrasining rasman ochilishi, «Imom al-Buxoriy, Ahmad Farg‘oniy sivilizatsiyasining yaratilishi» SD-RW diskini tayyorlashi, «Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tarixi» va «O‘zbekiston moziy e‘tiqodlar tarixi» kitoblarining nashr qilinishi fikrimizning dalilidir. Shu nuqtayi nazardan, bag‘rikenglik madaniyatini islom dinida namoyon bo‘lish xususiyatlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish, hamda ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan xulosalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Umumjahon insonparvarlik qadriyatlari nuqtayi nazaridan bag‘rikenglik odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning ijtimoiy tasdiqlangan huquqiy normasi, zamonaviy ijtimoiy taraqqiyotning dolzarb qiymati sifatida ishlaydi. Ommaviy ongda bag‘rikenglik qadriyatlaridan biri sifatida tasdiqlanmay turib, globallashuv davrida jamiyatning mavjudligi mumkin emas. Bag‘rikenglik xilma-xillikdagi uyg‘unlikdir. Bu nafaqat ma’naviy burch, balki siyosiy va huquqiy ehtiyojdir. Bag‘rikenglik-bu tinchlikka erishishga imkon beradigan va urush madaniyatini tinchlik madaniyatiga almashtirishga yordam beradigan fazilatdir.

Bob bo'yicha xulosalar:

Birinchidan, bag'rikenglik tamoyili qadriyatlar va manfaatlar to'qnashuvlarining birligi bo'lgan etnik nizolarni hal qilish uchun yetarli asosdir. Bardoshlilik o'zining doimiy shaklida turli qadriyatlarning o'zaro tan olinishi va o'zaro hurmat asosida, hatto bir-birini rad etishiga qaramay, birga yashashga imkon beradi. Shunday qilib, biz bag'rikenglik tuzilmasida asosiy omil sifatida bag'rikenglikning faol komponentini, integral ko'rsatkichi sifatida esa turmush tarzini ajratib oldik. Chunki, insonni nafaqat bag'rikenglik xulq-atvorini o'rgatish va boshqasini qabul qilishga umumiy munosabatni rivojlantirish, balki uning shaxsiyatining shunday sifatini shakllantirish muhimdir, bu shaxsning xatti-harakatlarida, turmush tarzida namoyon bo'ladigan faol bag'rikenglik sifatida belgilanishi mumkin. Bag'rikeng turmush tarzi inson bag'rikengligining eng yorqin namoyon bo'lishi himoyalanaadi, chunki u qadriyatlar, munosabatlar va xatti-harakatlarning tirik xususiyatlarini tavsiflaydi.

Ikkinchidan, kommunikativ bag'rikenglik - bu odamning odamlarga bo'lgan munosabatining o'ziga xos xususiyati bo'lib, uning fikricha, noxush yoki qabul qilinishi mumkin bo'lmagan holatlarga, uning fikricha, o'zaro munosabatlardagi sheriklarning ruhiy holati, fazilatlar va harakatlariga toqat qilish darajasini ko'rsatadi. Bizning fikrimizcha, shaxslararo muloqotda bag'rikenglik doimiy shaxsiy xususiyat va u vaziyatga bog'liq bo'lishi mumkin, shu sababli turli suhbatdoshlar bilan muloqot qilishda o'zgaradi. Demak, zamonaviy jamiyat taraqqiyoti insoniyat oldiga o'zaro bag'rikenglik tamoyillarini tarbiyalash zaruratini qo'ymoqda, buni ma'lum bir tarixiy davr talabi deyish mumkin.

Uchinchidan, ta'lim tizimi bag'rikenglikni shakllantirishdagi ijtimoiy omillarni nazarda tutadi. Qabul qilingan bag'rikenglik to'g'risidagi davlat hujjatlarida ta'lim uning barcha ko'rinishlarida tinchlik madaniyati g'oyalarini jamiyat hayotiga targ'ib etish va ildiz otishning asosiy kanali sifatida qaraladi.

Oliy ta'lim muassasalarining bugungi kundagi eng muhim vazifasi talabalarda atrofdagi dunyo haqida mustaqil fikr yurita olish, boshqa madaniyat

vakillari bilan aloqa o'rnatish, ularning qadriyatlari va an'analarini hurmat qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan shaxsiy fazilatlarni shakllantirishdan iboratdir. Bag'rikenglikni shakllantirish nafaqat tarbiyaning maqsadi, balki uning zarur tarkibiy qismidir. Rivojlanayotgan ta'lim paradigmasi umumiy madaniy va maxsus bilimlar o'rtasidagi optimal muvozanatni topish uchun konseptual va instrumental asosdir. Ijtimoiy, ilmiy va gumanitar bilimlarning bu jarayondagi hal qiluvchi rolini tan olmaslik mumkin emas.

To'rtinchidan, bag'rikenglikni shakllantirishni oliy o'quv yurtlari talabalarini tayyorlash tizimining uzviy tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish taklif etilmoqda, uning elementlari ham ta'lim mazmunida, ham ta'lim shakllari, usullarini belgilash jarayonida mavjud. Oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida bag'rikenglikni shakllantirish jarayoni o'quv material mazmuniga va universitetdagi o'quv ishlariga e'tiborni qayta tashkil etish zarurligini taqozo etadi. Mutaxassisning axloqiy kompetensiyalari tizimining zaruriy elementi sifatida bag'rikenglik ko'rib chiqilishi mumkin. Axloqiy kompetensiya deganda, bitiruvchining kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorligini belgilovchi nazariy bilimlar, axloq sohasidagi amaliy ko'nikmalar va ma'lum shaxsiy fazilatlar majmuini birlashtirishga asoslangan murakkab individual psixologik ta'lim tushuniladi.

II- BOB. YOSHLARDA MA'NAVIY-AXLOQIY DUNYOQARASH VA BAG'RIKENGLIK MADANIYATINI YUKSALTIRISH OMILLARI HAMDA SHART-SHAROITLARI.

Jamiyat hayotini modernizatsiya qilish bag'rikenglik madaniyatini yuksaltirish jarayoni bilan chambarchas bog'liq. Shu nuqtai nazardan, bag'rikenglik madaniyati va murosasizlik chegaralarini belgilashda yangi pozitsiyalarni rivojlantirishi, bugungi siyosat, huquq va axloq qiymat-me'yoriy tizim uchun ko'rsatmalar sifatida katta yordam beradi. Bugungi kunda yangi kommunikatsiya texnologiyalari va ijtimoiy harakatchanlikning o'shishi tufayli shaxslararo, guruhlararo va xalqaro munosabatlarning ziddiyatli xarakteri tobora ortib bormoqda. Bag'rikenglik asosiy demokratik qadriyat sifatida ishlaydi. Jamiyatda bag'rikenglik qadriyat sifatida e'tirof etilgani bag'rikenglik turmush tarzining keng tarqalganligi bilan baholash mumkin. Bag'rikenglik asosiga qurilgan turmush tarzi boshqa birovni qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilishga tayyorlikni nazarda tutadi; ishonch, boshqalarni tinglash; emratiya, hamdardlik, ziddiyatli vaziyatlarni konstruktiv hal qilish, o'z his-tuyg'ularini tajovuzkorlik va zo'rvonliksiz ifoda etish o'z manfaatlariga zarar yetkazmasdan o'zaro hamkorlik qilishga tayyor bo'lishlik va boshqalar shular jumlasidandir.

2.1-§. Jamiyat ijtimoiy-siyosiy hamda ma'naviy-axloqiy hayotini rivojlantirishda bag'rikenglik madaniyatining o'rni

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi, uning xalqaro siyosiy makonga kirishi faqat asosiy demokratik qadriyatlarni o'zlashtirish bilan muhim. Ana shunday demokratik qadriyatlardan biri bag'rikenglikdir. Bag'rikenglik muammosi ko'p millatli tarkibi va ko'p konfessiyali tabiati, jamiyatning o'zgarishi, ommaviy ongda turli xil noto'g'ri qarashlar va qo'rquvlarning namoyon bo'lishining kuchayishi, jamiyatda uyg'unlik va bag'rikenglikning pasayishi tufayli Yangi O'zbekiston uchun ham dolzarbdir. Bugungi kunda odamlar hayoti va ongidagi barcha voqealar tafovutlar muammosi bilan singib ketgan. Aynan farq

zamonaviy ijtimoiy hayotning asosiy tuzilmasini tashkil etuvchi omilga aylanadi. Farq g'oyasi (borliq, ma'nolar, haqiqatlar) inson ongi va borlig'ida hal qiluvchi ekzistensial ahamiyatga ega. Bag'rikenglik etnik, ijtimoiy va madaniy xilma-xillikka, jamiyatda barqarorlikka intilishga asoslanadi. Insoniyat faqat bag'rikenglik tamoyillari asosida zamonaviy plyuralistik, ko'p madaniyatli dunyoda omon qolishi mumkin. Shu sababli bag'rikenglikni chuqur tushunish va talqin qilish turli xil dunyoqarash, ijtimoiy va ilmiy voqelikning turli kontekstlarida zarur.

Bag'rikenglik hodisasi falsafa, psixologiya, pedagogika, siyosatshunoslik, etnologiya, sotsiologiya fanlarida alohida e'tibor mavzusidir. Biroq, bag'rikenglik muammosi insonni, uning o'ziga xosligini, bilim imkoniyatlari va chegaralarini tushunish va o'zaro kelishish, madaniyatlar va sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqot bilan bog'liq bir qator fundamental ilmiy-falsafiy dunyoqarash muammolari bilan bog'liq bo'lganligi sababli, bu obyektiv ravishda dolzarb muammoni keltirib chiqaradi. Aynan ijtimoiy falsafa zamonaviy jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarni tushunishga va ularga faol ta'sir ko'rsatishga, inson faoliyatining falsafiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga chaqiriladi.

Muayyan davlat yoki mintaqalarda bag'rikenglik madaniyatining namoyon bo'lishini tahlil qilish mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi. Ushbu tadqiqotda O'zbekistonning ko'p millatli mintaqasi modeli ilmiy-amaliy jihatdan ko'rib chiqiladi. Bu model aholi tarkibining sezilarli konfessiyaviy xilma-xilligi bilan ajralib turadi, unda ma'muriy-geografik joylashuvi tufayli markazning qonunlari va periferiyalari ishlaydi. Bundan tashqari, postsovet o'zgarishlari sharoitida bu yerda ko'p madaniyatli mintaqaviy jamiyatni ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ijtimoiy modernizatsiya qilishning noyob tajribasi to'plangan, qisqa tarixiy davrda jamiyatni shakllantirish va qo'llab-quvvatlashda sezilarli yutuqlarga erishilgan. «Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi»da ta'kidlanganidek, «Bag'rikenglik – turli-tumanlikdagi birlikdir. Bu faqat ma'naviy burchgina emas, balki siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Bag'rikenglik–tinchlikka erishishni musharraf qilguvchi

va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga eltuvchidir»⁴³.

Ijtimoiy falsafa doirasida amalga oshirilgan mavzuga faol yondoshish insonning o'z mavjudligi va boshqalar bilan birga yashashiga faol munosabati, xatti-harakatlarini tanlash uchun mas'uliyatga asoslangan bag'rikenglikning axloqiy mohiyatini ifodalaydi, shuningdek, bizga shunday qilish imkonini beradi va jamiyatda bag'rikenglikni o'rnatish mexanizmining arxitektonikasini taqdim etadi. Bu haqida faylasuf olim O.Musayev shunday yozadi: «Bag'rikenglik – liberal jamiyat fuqarolaridan talab qilinadigan siyosiy fazilat bo'lib, o'z navbatida, siyosiy jarayonda u yoki bu o'zaro munosabatlar ishtirokchilarining fikr va qarashlari o'zaro zid kelgan sharoitlarda o'z nuqtai nazarlarining chinligiga shubha qilmagan holda, biroq muammoli vaziyat xususida muxolif qarash va yondashuvlarning ham ifoda etilishiga imkon berishga tayyorlik va shu orqali o'zaro munosabatlarning umumiy asoslarini saqlab qolishga intilish bilan bog'liq konstruktiv xatti-harakatda yaqqol namoyon bo'ladi»⁴⁴.

Kundalik hayotdagi insoniy bag'rikenglik yo'li «o'zgalikni» tushunish va tan olishni nazarda tutadi, u bag'rikenglikning falsafiy aks etishida mumkin bo'lgan tarixiy shartli va turli sivilizatsiyalarda «ildiz» bo'lgan bag'rikenglik haqidagi g'oyalar asosida muvaffaqiyatli natijalarni beradi. Shunday qilib, bag'rikenglikning ijtimoiy-falsafiy asoslarini rivojlantirish, bag'rikenglik tushunchasi va uni O'zbekiston davlatida o'rnatish strategiyasi bilan bog'liq chalkash gnoseologik vaziyatni aniqlashtirish, uning axloqiy asoslarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Bag'rikenglikning axloqiy tushuncha sifatida ijtimoiy-madaniy talqini amalga oshiriladi. Bag'rikenglikni axloqiy tushuncha deb hisoblash mumkin, chunki, bag'rikenglik axloqiy me'yorlar va umuminsoniy qadriyatlarni bilishga, ulardan turli faoliyatda foydalanish qobiliyatiga, axloqiy ma'naviyatga asoslanadi. Bag'rikenglikni axloqiy jihatdan qabul qilib bo'lmaydigan og'ish mavjudligining ta'sir kuchidan foydalanishdan ma'naviy jihatdan ahamiyatini rad etish sifatida

⁴³ Бағрикенглик тамойиллари декларацияси –Тошкент, 2002. – Б. 10.

⁴⁴ Мусаев О. Ўзбекистонда диний бағрикенглик амалиётининг ўзига хос хусусиятлари. «Фалсафа ва ҳуқуқ». –Тошкент.: –Ўзбекистон. –Б. 2-4.

tushunish mumkin. Bag‘rikeng turmush tarziga fuqarolik jamiyati va shaxs hayotiy faoliyatining integral ko‘rsatkichi sifatida qaraladi, chunki u qadriyatlar, munosabatlar va xatti-harakatlarning tirik xususiyatlarini tavsiflaydi. Bag‘rikenglikka oid masalalarni o‘ziga xos voqelik sifatida idrok etish xalq og‘zaki ijodining noyob durdonasi bo‘lmish «Alpomish» dostonidayoq o‘z ifodasini topgan. «Bu mumtoz asarda tarix to‘fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o‘zligini doimo saqlagan el-yurtimizning bag‘rikenglik, matonat, oliyanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlarini o‘z ifodasini topgan»⁴⁵. Shuningdek, bag‘rikenglikning jamiyat taraqqiyoti va inson ma‘naviy kamolotidagi o‘rni masalasi haqidagi mulohazalar o‘zining dastlabki ilmiy-falsafiy ko‘rinishida Platon, Aristotel, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ibn Xaldun, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi Sharq va G‘arbning buyuk mutafakkirlari asarlarida o‘ziga xos talqin etilganini ko‘rish mumkin⁴⁶.

Axloq–inson bag‘rikengligining asosini, belgilovchi omildir. Determinant kompleksi subyektning xatti-harakati, uning rivojlanishi va o‘z-o‘zini rivojlantirishiga katta ta‘sir ko‘rsatadigan hodisalardan iborat. Qadriyatlar bag‘rikenglikning axloqiy mexanizmining asosini tashkil qiladi. Bag‘rikenglik axloqiy qadriyatlardan biridir. Shaxsning bag‘rikenglik darajasini baholashda eng muhim ko‘rsatkich bag‘rikeng xulq-atvori, axloqiy faolligi hisoblanadi. Axloqiy faoliyat bag‘rikenglik namoyon bo‘lishining yuqori darajasini tavsiflaydi, chunki shaxsning axloqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish darajasining yetakchi mezonlaridan biri sifatida axloq e‘tirof etiladi. Shuning uchun ham Z. Qodirova axloqiy bag‘rikenglik tushunshasini izohlab, «Axloqiy tolerantlik – bu

⁴⁵ Каримов И.Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 33.

⁴⁶ Қаранг: Аристотель. Поэтика.-Л.:1927; Августин А. Исповед.-М.: Канон, 1997; Платон. Собр.соч. В 3-х т.Т.2. – М.: 1970; Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри.- Тошкент: Ғофур Ғулом, 1993; Форобий Абу Наср. Рисолалар. – Тошкент: Фан, 1975; Беруний Абу Райхон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар.Танланган асарлар.1-жилд. – Тошкент: Фан, 1968; Абу Али Ибн Сино. Тиб қонунлари. Уч жилдлик.-- Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994; Амир Темур. Темур тузуклари.- Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996; Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи.-- Тошкент: Ўзлнон, 1993; Алишер Навоий. Хайратул аброр. – Тошкент: Ғофур Ғулом, 1989; Абдурауф Фитрат. Раҳбари Нажот. – Тошкент: Шарқ, 2000; Маҳмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1999.

boshqa axloqiy qarash yoki qadriyatni, agar ular insonparvarlik va tinchliksevarlik tamoyillariga zid kelmasa, qanday bo'lsa shundayligicha ko'rib chiqish va qabul qilishdir. Shu bilan birga, axloqiy, etik qadriyatlar ijtimoiy-shaxsiy qadriyatlar bo'lib, maxsus qonunlar va me'yorlar bilan tartibga solinmaydi. Tolerantlikning axloqshunoslik, ma'naviyat va axloqiylikka kategorial-konsertual jihatdan kiritilishi, nafaqat bu tushunchalarning yuqori darajadagi shakllangan maqomining mustahkamlanishiga, balki keyinchalik, bu kategoriyaning ijtimoiy axloqiy jarayonlarda ishlatish va undan foydalanishni ortimallashtirishga ko'maklashadi»⁴⁷ degan xulosaga keladi.

Zamonaviy o'tish davri jamiyatida «bag'rikenglik» tushunchasi polisemik xususiyatga ega. Bag'rikenglik-bu tabiiy ijtimoiy-madaniy me'yor, shaxsning atrofidagi tabaqalashtirilgan jamiyatga ijobiy munosabati bo'lib, u boshqalarga konstruktiv xayrixohlik bilan baho berish va unga qarshi turishni rad etishdan iborat. Bag'rikenglik diniy, etnik, ijtimoiy, siyosiy o'zgarishlar sharoitida shaxslarning birgalikda yashashining himoyachisi va tarafdori bo'lib, jamiyatning o'zini-o'zi saqlab qolishining asosidir.

Zamonaviy madaniy hayot bag'rikenglik madaniyati oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Hayot talablari va pragmatik manfaatlar «zaruriyatga bag'rikenglik»ni shakllantiradi. Bag'rikenglikning bu shakli diametral qarama-qarshi manfaatlar, fikrlar va pozitsiyalar jamlangan megapolislar uchun xosdir. Bunday qarashlar xilma-xilligi doimiy o'zaro yaqin ta'sirda bo'lib, buning natijasida qiyin yon berish va murosaga ehtiyoj paydo bo'ladi. Germaniyadan immigrantlar va nemis millatiga mansub aholini keng qamrovli ijtimoiy-psixologik va sotsiologik o'rganish Germaniyada tug'ilgan aholining ijtimoiy, etnik va shaxsiy bag'rikenglik darajasi yuqori ekanligini ko'rsatdi. Shu boisdan ham faylasuf olim S.Otamuratov, «Millatparvarlik bu millatni ulug'lash, uning buyukligini qalb va yurak bilan his etish, uni har qanday zararli g'oyalar hamda kuchlar ta'siridan himoya qilish, uning o'sib, ulg'ayib borishiga o'z hissasini qo'shishga harakat qilish ruhiyatiga ega

⁴⁷Qodirova Z. Axloqiy tolerantlik tushunchasi // Modernizatsiya, innovatsion taraqqiyot va tolerantlik rivoji istiqbollari (1-kitob). - Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2010. – 28-bet.

bo‘lish kabi juda katta ulug‘vor tuyg‘ularni o‘ziga qamrab oladi. Millatparvarlik millatchilik emas, balki o‘z millatini ulug‘lash, uning taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishga intilish orqali o‘zga millatlarni hurmat qilish, ularning ham o‘ziga xos manfaatlari borligini tushunib yetishdir»⁴⁸, deb ta’kidlaydi.

Nemis muhojirlarining atigi 16 foizida yuqori darajadagi ijtimoiy bag‘rikenglik aniqlangan. Nemis millati vakillarining yuqori darajadagi bag‘rikenglik ongi ko‘p jihatdan Germaniyaning immigratsiya siyosati bilan belgilanadi.

Zamonaviy O‘zbekistonda bag‘rikenglik munosabatlarini amalga oshirish darajasi ko‘p jihatdan jamiyatda uch darajadagi bag‘rikenglik munosabatlarini shakllantirish bo‘yicha samarali faoliyatga bog‘liq: davlat, ijtimoiy va individual. Bag‘rikenglik tuzilishida darajalari, turlari, shakllarini farqlash kerak. Bag‘rikenglik tashuvchisi subyektiga ko‘ra individual, ijtimoiy va davlat darajalarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Turlarning xilma-xilligi asosida siyosiy, etnik, diniy, ijtimoiy va boshqalarni ajratish kerak. Har bir turdagi bag‘rikenglik yoki murosasizlik turli shakllarda o‘zini namoyon qilishi mumkin. Bag‘rikeng ong dunyoning o‘ziga xos falsafiy qarashi bo‘lib, madaniyatlar, mafkuralar va e’tiqodlarning barsha xilma-xilligini tushunishga qodir. Shaxsning bag‘rikenglik xulq-atvorini shakllantirish mexanizmi fuqarolarni bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash uchun jamiyatning barcha ijtimoiy institutlarini faollashtirishni nazarda tutadi. Bag‘rikenglik, bir tomondan, davlatlarning qonun chiqaruvchi organlari tomonidan ishlab chiqilishi kerak, ikkinchi tomondan, jamiyatning har bir a‘zosi uchun xulq-atvor normasi bo‘lishi kerak. U nafaqat orzu qilingan narsani e’lon qilish, balki ehtiyoj sifatida mavjud bo‘lib, ularsiz insonparvarlik, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarga asoslangan normal hayot qurish mumkin emas.

Bag‘rikenglikning aks ettirilgan shakllarini befarqlik va kamsitishdan tortib, barqarorlikning o‘zaro boyituvchi kafolatigacha bo‘lgan doirada tasniflash mumkin. Bag‘rikenglikning barqaror shakli, sherigini shaxs sifatida tan olish, hurmat, boshqalarning ham yashash huquqiga ega ekanligini tan olish qobiliyati

⁴⁸ Отамурастов С. Глобализм и миллат. Тошкент, 2008. – Б. 99.

bilan tavsiflanadi va mumkin bo'lgan aloqa nuqtalarini aniqlash uchun tanqidiy muloqotni nazarda tutadi. Barqaror bag'rikenglik shakli shaxs rivojlanishiga hissa qo'shadi, chunki tanqidiy muloqot ma'lum bir pozitsiyaga boshqa tomondan qarash imkoniyatini beradi.

Bag'rikenglik chegarasi muammosining umumiy yechimi qiyin, chunki u bag'rikenglik obyektni aniqlash bilan bevosita bog'liq. Bag'rikeng va murosasizlik o'rtasidagi chegara shunchalik nozikki, uni aniq belgilash mumkin emas, ammo qabul qilinishi mumkin bo'lmaganlar doirasi ancha torroq ekanligiga asoslanib, tashqi murosasizlik har birining qadriyatlar tizimiga muvofiq belgilanadi. Madaniy kategoriyalar tizimidagi bag'rikenglik tahlili shuni ko'rsatdiki, instrumental-texnologik ma'noda tushuniladigan bag'rikenglik va zo'ravonlik dialektik birlikni ifodalaydi, uni amalga oshirish uchun zo'ravonlik bardoshli obyektlar va subyektlar tizimini belgilashni talab qiladi. Shunday qilib, toqat qilinadigan obyektlar-subyektlar doirasi tasvirlangan, shuning uchun zo'ravonlikning o'zi bag'rikenglik chegarasini taxmin qiladi va belgilaydi.

Qadriyat-me'yoriy tizim sifatida bag'rikenglik va zo'ravonlik qilmaslikning o'zaro bog'liqligi dunyoni tartibga solishning zo'ravonliksiz vositalari allaqachon bag'rikenglik yondashuvini o'z ichiga olganligida ifodalanadi. Bag'rikenglik va plyuralizm turli nuqtai nazardan jamiyatning adolatli va erkin tartib idealini tavsiflaydi, bu yerda plyuralizm bag'rikenglik bilan qayta tiklanadi. Amaliy tamoyil sifatida bag'rikenglikni amalga oshirish jamiyatda joriy etilgan me'yorlarning tabiati va turli sohalarda, ham madaniyat, ham siyosatda munosabatlar subyektlarining tengligi bilan bog'liq. Ichki davlat tuzilishi va siyosati sohasida bag'rikenglik amaliy tamoyil sifatida demokratik shaklda eng maqbul tarzda amalga oshiriladi. Bag'rikenglik faqat e'tirof etilgan holatdagina amalga oshishi mumkin.

Bag'rikenglik tamoyili etnik nizolarni hal qilish uchun yetarli asosdir, chunki bag'rikenglik o'zining barqaror shaklida turli qadriyatlarni o'zaro tan olish va o'zaro hurmat asosida, hatto o'zaro rad etish shartida ham birga yashashiga imkon beradi. Etnomilliy munosabatlar sohasida bag'rikenglik tamoyilini amalga

oshirishning qiyinligi turli madaniy an'analar, noqulay ijtimoiy sharoitlar va etnik guruhlarni birlashtirishning ma'muriy-zo'ravonlik yo'li doirasidagi bag'rikenglikni boshqacha tushunish bilan bog'liq. Til sohasida bag'rikenglik insonning irqi, millati, yoshi, sog'lig'i, ijtimoiy mavqeyi, jinsiy ko'rinishiga nisbatan his-tuyg'ulari va qadr-qimmatiga putur yetkazadigan usullar o'rniga lingvistik ifodaning yangi, maqbul usullarini topish shaklida namoyon bo'ladi. Lingvistik bag'rikenglik ijtimoiy madaniyat darajasi va ijtimoiy fan an'analari, jamiyat mafkurasi va mentaliteti, iqtisodiy taraqqiyot va tijorat manfaati kabi omillar bilan bog'liq.

Bag'rikenglik muammosi mamlakatimizda ham, xorijda ham bir qator konferensiya va simpoziumlarda muhokama qilindi, chunki bugungi kunda bag'rikenglik har qachongidan ham ko'proq mavhum falsafiy ideal va o'ylab topilgan nazariy konstruktsiya emas, balki omon qolishning amaliy shartidir. Ijtimoiy rivojlanishning hozirgi bosqichida dunyo yaxlitligining o'sishi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, bu esa umumiy qiymat shartlarini qabul qilishni nazarda tutadi. O'zaro tushunishning asosiy asoslarini izlash bag'rikenglik tushunchasini tahlil qilish va tushuntirish bilan bog'liq muammolarni birinchi o'ringa qo'yadi. Shuni ham ta'kidlash joizki, mamlakatimizda faol kechayotgan ijtimoiy-madaniy fermentatsiya jarayonlari milliy madaniyatning mafkuraviy o'zagini yo'q qildi, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni sezilarli darajada insoniylikdan mahrum qildi. «Yagona to'g'ri» degan dunyoqarashni tiklashga urinishlar bizning davrimizda samarali bo'lishi mumkin emas. Biroq mafkuraviy chalkashlik, o'zaro begonalashish holati o'z-o'zidan yo'qolmaydi. Bu yerda ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi nazariy fikr o'z so'zini aytishi kerak.

Bag'rikenglik muammosini falsafiy dunyoqarash sifatida dolzarblashtirish uchun quyidagi shartlarga ega bo'lish kerak: shaxsning ichki dunyosini avtonomlashtirish, inson faoliyatida kuchli shaxsiy prinsip, ongning o'z asoslari ustida o'zini aks ettirish imkoniyati, qarama-qarshi mohiyati bilan shaxsning yaxlitligini saqlash, tanlash erkinligini shaxsning immanent harakati sifatida tan olish, hech bo'lmaganda bag'rikenglik chegarasi muammosini umumiy hal qilish.

Bag'rikenglik madaniyati – kommunikativ oshiqlik madaniyati bo'lib, u modernizatsiya qilinayotgan ko'p madaniyatli jamiyat subyektlarida bag'rikenglik tamoyillarini faol joriy etish va rivojlantirishni hamda turli shakllarga qarshi turishning samarali usuli sifatida ma'lum darajada muvofiqlilikning mavjudligini nazarda tutadi. Bag'rikenglik madaniyatining mavjudligi va rivojlanishi uchun ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlar quyidagilardir: insonning shaxsiy rivojlanishi va tanlash erkinligi huquqi, davlat va fuqarolik institutsionalligi, shaxsning turli shakllardagi tajovuzkorlik ko'rinishlariga toqat qilmasligida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy jamiyat sharoitida yangi ijtimoiy voqelik vujudga kelmoqda, u ijtimoiy taraqqiyotning ichki shaxslararo doirasini dolzarblashtiradi. Bu esa bag'rikenglikka bo'lgan munosabatni o'zgartirishga sabab bo'lmoqda. Bag'rikenglik zamonaviy jamiyatni oqilona tashkil etish tamoyili sifatida shaxsiy xulq-atvor madaniyati orqali o'zini yaqqol namoyon etadi. Bag'rikenglik erkinlik, ko'p yo'nalishlilik va insoniy munosabatlarning uzluksizligi natijasi bo'lib, ijtimoiy barqarorlikning sharti va kafolati sifatida xizmat qiladi. Bag'rikenglik madaniyati yordamida jamiyatdagi turli nizolar bartaraf qilinadi va konsensus mustahkamlanadi, chunki ijtimoiy manfaatlarining demokratik muvofiqlashtirishi nafaqat fuqarolarning fikrlarini hisobga olish, balki samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bag'rikenglik madaniyatiga kirish tezlik bilan amalga oshmaydi, buning uchun bir qator shart-sharoitlar, jumladan, shaxs ongini qayta yo'naltirish talab etiladi. Bag'rikenglik – bu har kimning turli siyosiy yoki konfessiyaviy qarashlarga ega bo'lish huquqini tan olish, boshqa, bir-biriga o'xshamaydigan qarashlar, xatti-harakatlar va urf-odatlarga ijobiy munosabat va hurmat demakdir. Ayni shu ma'noda bag'rikenglik ongga munosabati jihatidan, axloqiy tamoyilga aylanadi. Aksariyat sharq faylasuf olimlari ham dunyo baxtli, adolatli, rahm-shafqatli bo'lishiga umid qilishgan va bu bilan odamlarning o'z kelajagi haqidagi qo'rquvini rad etishgan. Saxovat, rostgo'ylik, vijdon, mutafakkirlarning fikricha, dunyo va insonning mohiyatini tashkil qilishi kerak bo'lgan. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bugun dunyoni shaffoflik, bag'rikenglik, muloqot va hamjihatlik tamoyillari asosida tashkil etishning real imkoniyati mavjud. Zamonaviy dunyoda

turli madaniyatlar vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning zichligi va intensivligi ortib bormoqda. Bunday sharoitda samarali muloqot qilish uchun bag'rikenglik madaniyatini - bir-birining xususiyatlarini o'zaro hurmat qilish madaniyatini rivojlantirish muqarrar va zarurdir. U yo'q bo'lgan joyda, nizolar ko'pincha etnik va konfessiyaviy muammolar ko'rinishida yuzaga keladi. Umuman olganda, O'zbekiston sharoitida bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish muammosi tarixan shakllangan ko'p millatli va ko'p konfessiyali aholi, shuningdek, biz boshdan kechirayotgan tarixiy davrning o'ziga xos xususiyatlari bilan ham bog'liq. O'zbekiston jamiyatining demokratik o'zgarishi, uning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi fonida rozilik va bag'rikenglikning roli ortib bormoqda. Shu boisdan ham insoniy munosabatlar doirasida bag'rikenglik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-madaniy shartlarini tahlil qilish zarurati paydo bo'ldi. Shu nuqtayi nazardan, o'rganilayotgan hodisaning muhim-funksional mohiyatini aniqlash va odamlarda konfessiya va etnik mansubligidan qat'i nazar, bag'rikeng ong va xulq-atvorni shakllantirishning maqbul modelini izlash muammosini yuzaga keltiradi.

Xulosa qilib aytganda, bag'rikenglik, xususan, axloqiy salomatlik, ochiqlik va qiziquvchanlik, onglilik, tanqidiylik, ichki erkinlik va boshqalarni shakllantirish asoslarini ochib berish bag'rikenglik ongini shakllantirish mexanizmlarini va buning uchun zarur ijtimoiy-madaniy sharoitlarni aniqlash imkonini beradi. Bag'rikenglikni ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: bag'rikenglik zamonaviy madaniyatning shunday qutqaruvchi yondashuvi bo'lib, u orqali siyosiy munosabatlarning yaxlitligi namoyon bo'ladi. Bag'rikenglik bu yaxlitlikni eng xilma-xil modallik subyektlari faoliyatining xilma-xil sohalari orqali amalga oshiradi, bu esa birgalikda yashashga olib keladi. Shuning uchun madaniyat o'zini bir butun sifatida saqlaydi. Ratsional-mantiqiy tahlil bilan to'ldirilgan bag'rikenglik muammosini ekzistensial tushunish bag'rikenglikni axloqiy qadriyat («ma'rifiy» tushunsha) va huquqiy me'yor sifatida tushunish mumkinligini aniqlash imkonini beradi.

2.1-§.Yoshlarda bag‘rikenglik tuyg‘usini shakllantirish millatlararo munosbatlarni tartibga solishning o‘ziga xos mexanizi sifatida.

O‘zbekiston Respublikasi hozirda o‘zining siyosiy va iqtisodiy tizimiga ega, dunyoning ko‘plab davlatlari tomonidan tan olingan suveren, mustaqil davlatga aylangan. Mustaqillik sharoitida o‘sha yillarning muhim yutug‘i – O‘zbekiston Respublikasi o‘zini suveren davlat sifatida o‘zbek xalqini, shuningdek, ko‘p millatli davlatimizni xalqaro miqyosda namoyon etishga muvaffaq bo‘ldi.

Hozirgi vaqtda yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bag‘rikenglik asoslariga rioya qilgan holda o‘zaro tinch-totuvlikda umrguzaronlik qilib ahil va inoq yashab kelmoqda. Shuning uchun ham B.Davronov: «Bag‘rikenglik bu – insonlar, jamoalar, jamiyatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma’naviy, madaniy sohalaridagi o‘zaro kelishuvchilik va murosa yo‘lini topish demakdir,»⁴⁹- degan ta’rif beradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham bu masalaga o‘zgacha yondashuv zarurligini ta’kidlab o‘tganlar: «Mamlakatimizda hukm surayotgan millatlar va fuqarolar totuvligi, o‘zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini ko‘z qorachig‘idek saqlash hamda mustahkamlashni o‘zimning ustuvor vazifam, deb hisoblayman. Ma’lumki, yurtimizda vijdon va e’tiqod erkinligi, turli millat vakillarining huquqlari keng kafolatlanib, diniy bag‘rikenglik muhiti mustahkamlanmoqda»⁵⁰.

Har qanday davlatda rivojlangan, sivilizatsiyalashgan jamiyat, huquqiy davlat va to‘laqonli fuqarolik jamiyatini barpo etishni millatlar va xalqlar tinchligisiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Hozirgi kunda dunyoda 3000 ga yaqin millat va elatlar yashaydi. Dunyodagi mamlakatlarning aksariyati bir millatli emas, ko‘p millatlidir. Dunyo mintaqalari aholisi etnik tarkibi, madaniyati va turmush tarzi jihatidan tobora xilma-xil bo‘lib bormoqda. Bu iqtisodiy va ijtimoiy hayotning baynalminallashuvi, xalqaro va ichki migratsiyaning kuchayishi, nikohlar sonining ko‘payishi natijasidir. Bu qonuniy jarayon bo‘lsa-da, ko‘pincha

⁴⁹Давронов Б. Бағрикенглик тушунчасига яна бир чизги // Модернизация, инновацион тараққиёт ва толерантлик ривожі истикболлари (1-китоб). – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2010. – 28-бет.

⁵⁰ Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон. НМИУ, 2016. –Б. 8.

etnik ziddiyatlarning kuchayishiga va ba'zan hatto qon to'kilishiga olib keladigan ochiq to'qnashuvlarga olib keladi. Ushbu munosabatda, bizning umumiy vatanimiz – O'zbekiston Respublikasi bugun mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha millat vakillarining hamjihatligi tufayli jadal rivojlanmoqda. Mustaqilligimiz mustahkamlanib, yurtimiz yangi marralar sari shiddat bilan odimlayotganligining asoslaridan biri – ijtimoiy totuvligimizdir. «Birliksiz yurt yemiriladi, ahil yurt yutadi», degan hikmat haqiqatini bugun barchamiz ko'rib turibmiz. Bugungi kunda mamlakatimizda xalqlar do'stligi mustahkam. Yurtimizda dinga nisbatan hech qanday cheklovlar yo'q. Biroq diniy erkinlikni cheklovchi qonunlar mavjud. Aholining asosiy qismi musulmon bo'lsa-da, O'zbekiston dunyoviy davlat hisoblanadi.

Jamiyatda millatlararo totuvlik va osoyishtalikka xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri bu – til bilan bog'liq jarayondir. Har qanday xalqning urf-odatlar, adabiyoti va madaniyati saqlanib qolishining asosi uning tilidir. Shunga ko'ra, mamlakatimizdagi til siyosatiga davlatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. Til siyosati O'zbekistonda milliy siyosatning eng muhim tarmoqlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasining amaldagi til siyosati, birinchi navbatda, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash, jamiyatda millatlararo totuvlikni mustahkamlashga qaratilgan. Chunki har bir xalqning tili va madaniyati, taraqqiyot sharoiti xalqlar o'rtasidagi munosabatlar va aloqalarga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, jamiyatda demokratlashtirishni yanada chuqurlashtirish, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy muammolarini hal etish eng dolzarb masalalardan biridir. Taraqqiyotning barcha sharoitlarida, eng avvalo, O'zbekiston xalqining birligi saqlanishi, har bir millat o'z manfaatlarini, milliy va davlat manfaatlarini ham unutmasligi kerak.

Zamonaviy O'zbekiston yangi siyosiy, ma'muriy va ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishga ega bo'lgan va xalqaro miqyosda tan olingan mustaqil davlatdir. Bu yerda erkinlik, o'zaro hamjihatlikni umuminsoniy qadriyatlar qatorida qabul qilingan ko'plab xalqlar vakillari tinch-totuv, ahil-inoq yashamoqda. O'zbekiston xalqining yuksak ma'naviyati va yuksak tafakkuri bilan uyg'unligi jamiyatni dadil

va tubdan o'zgartirishning hal qiluvchi omilidir. «O'zbekistonda amalga oshirilayotgan milliy demokratik o'zgarishlar esa xalqning an'analarini, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan qadriyatlarini qo'llab-quvvatlaydi, ularni milliy-madaniy boylik sifatida asrashga, ulardan yangi avlodni shakllantirishda unumli foydalanishga da'vat etadi. Qaysi mamlakatda, qanday ijtimoiy makonda ro'yobga chiqmasin, tom ma'nodagi demokratiya modernizatsiya bayrog'i ostida ana'anaviy qadriyatlarni rad etolmaydi, tadrijiylikka tayanmagan o'zgarishlar xalq turmush tarzi, qalbidan joy olmaydi»⁵¹.

Mustaqillik yo'lini tanlagan O'zbekiston uchun mustaqillik va suverenitet, erkinlik va ixtiyoriylik asoslarini yanada asrab-avaylash hayotiy zaruriyatdir. Albatta, bugungi kunda boshqa mamlakatlardagi kabi jamiyatimiz ham o'zining tarixiy taraqqiyotida murakkab davrni boshidan kechirmoqda. Bunday holat jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'siridan kelib chiqqanini har bir ongli yurtdoshimiz yaxshi tushunadi. Hozirda pandemiya munosabati bilan davom etayotgan ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz mamlakatda ishsizlik muammosini yanada keskinlashtirib, mehnatga qaytish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Shunday ekan, ishsizlar irqi, millati va dinidan qat'i nazar, davlat tomonidan ijtimoiy himoyalaniish huquqiga ega. Ya'ni millati va kelib chiqishidan qat'i nazar, insonlarni ijtimoiy himoya qilish milliy siyosatning eng dolzarb masalalaridan biridir. Chunki jamiyatning etnik tarkibiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri bu ishsizlikdir. Bu borada mamlakatimizda kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash kabi qator chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani yaqqol ko'rinib turibdi.

O'zbekistonda yashovchi ijtimoiy-etnik jamoalar davlat qurilishidagi ishtiroki va madaniy rivojlanish sur'atlarini belgilovchi o'ziga xos sharoitlarga qarab bir-biridan farq qiladi. Shunga ko'ra, barcha millat va elatlarning huquq va erkinliklarini birdek himoya qilishning samarali usullaridan foydalanish davlatimizning asosiy vazifasidir.

O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va siyosat barqaror sur'atlar bilan

⁵¹ Мусаев Ф. Демократик давлат куришининг фалсафий-ҳукукий асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. 235-бет.

rivojlanmoqda. Har bir millat, har bir elat shu kundan boshlab jamiyat va davlat oldidagi mas'uliyatini namoyon eta olishi kerak. Dunyodagi demokratik ko'p millatli davlatlarning bugungi holatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning barchasi hayotning turli sohalarida demokratik mexanizmlarni mustahkamlash, polietniklikni saqlash va takror ishlab chiqarish o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni muttasil hal etish yo'lida murakkab davrlarni boshidan kechirganini ko'rishimiz mumkin.

Jahon tarixiy tajribasi ko'rsatganidek, millat siyosati har qanday bosqichda, har qanday sharoitda davlat va jamiyat uchun muhim muammo bo'lib qolaveradi. Binobarin, mamlakatda amalga oshirilayotgan milliy siyosat hayotni tartibga solish va rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. O'zbekistonning bu boradagi tajribasi, faoliyati xalqaro ekspertlar tomonidan dunyoning ko'plab mamlakatlarida o'tkazilgan anjumanlarda yuqori baholanmoqda.

Umuman olganda, mamlakatimizda millatlararo totuvlik siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanadi: inson huquqlari bilan millat huquqlarini oqilona uyg'unlashtirish; ezgulik, millatlararo totuvlik, turli millat va elatlar o'rtasidagi hamjihatlik, o'zaro yordam va bir-birini qo'llab-quvvatlash; jamiyat barqarorligi va yaxlitligi; milliy qadriyatlar va umuminsoniy qadriyatlarni muvofiqlashtirish; konstruktiv milliy manfaatlarni amalga oshirish; mamlakatdagi barcha millat va elatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy taraqqiyotini tenglashtirish shular jumlasidandir.

Barcha millat va elatlarni birlashtirgan tarixiy jarayonning mushtarakligi ularning umumiy g'oya va qadriyatlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Mamlakatimiz yuritayotgan milliy siyosat demokratiya va murosaga, ilg'orlik va bunyodkorlik xarakteriga ega. Binobarin, mamlakatimizdagi millatlararo totuvlik va hamjihatlik jamiyatda yuzaga kelayotgan bugungi ijtimoiy-iqtisodiy inqirozni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etishiga ishonamiz. Sivilizatsiyalashgan iqtisodiyot, obod siyosiy-ma'naviy tuzilma va rivojlangan infratuzilmani shakllantirish uchun hozirda, eng muhimi, milliy hamjihatlik va birdamlikdir. Shubhasiz, jahonning ilg'or texnologiyasi va aql-zakovati asosida olib

borilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy qurilish o'zbek xalqining boshqa millat yoki elat vakillari bilan birga madaniyatli hayot kechirishga olib keladi.

Millatlararo munosabatlar madaniyati millatlararo munosabatlarni tan olish, rivojlantirish, o'zgartirish va takomillashtirish uchun zarur bo'lib, milliy taraqqiyotning ham, milliy g'urur ruhida tarbiyalashning ham samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi. Millatlararo munosabatlar madaniyatida odamlarning boshqa millat vakillariga munosabati jamlangan. Bu omillar hamisha shuni talab etadiki, «o'z xalqi milliy qadriyatini boshqa millat qadriyatlariga teskari qo'ymagan holda va aksincha, boshqa millat ma'naviyatini chuqur his qilish darajasiga o'sib chiqsa, va o'z milliy qadriyatini bema'lol va beminnat namoyish etish imkoniyatiga ega bo'lsa, milliy munosabatlarda do'stona iqtisodiy va ma'naviy muloqotdan o'zga niyat bo'lmasa, ana shunda turli millatlarning ma'naviyatini ifodalovchi umumbashariy qadriyatlar o'sib boraveradi»⁵². Millatlararo munosabatlar madaniyati milliy siyosat sohasidagi madaniyatdir. Bu ma'lum bir tizimli sifat, xalqlarning ijtimoiy hayoti va faoliyat tarzi, milliy va baynalminal g'oyalar, me'yorlar, e'tiqodlar va boshqalarning birligi va o'zaro ta'sirida rivojlanishini va uzluksizligini ta'minlash shakllaridan biridir. Millatlararo munosabatlar madaniyati tushunchasi ijtimoiy guruhlar, sinflar, xalqlar va shaxslarning madaniy darajasini tavsiflash uchun ishlatiladi. Millatlararo munosabatlar madaniyati ko'pincha xalqning umumiy madaniyati bilan bog'liq.

Tadqiqotchi Royon Ravshanovning yozishicha: XX asrning birinchi choragida Buxoro amirligida 60 ming rus fuqarolari yashagan. Qarshi shahrida esa bu davrda 800 nafar rus bor edi»⁵³.

E. Abduraxmonovning ma'lumoticha: «Kogon–Qarshi-Kitob, Kogon-Qarshi - Termiz oralig'ida temir yo'l qurilishi sababli Qarshiga keltirilgan avstriyalik nemis asirlari, xitoyliklar, rossiyalik harbiy mutaxassislar yashaganlar»⁵⁴. Jumladan, o'lkada aholi orasida pravoslav xristianlar, katoliklar, iudistlar hamda ularning

⁵² Махмудов Т. Мустақиллик ва маънавият. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 116-б.

⁵³ Равшанов П. Қарши тарихи. – Тошкент: Фан, 1995. – 629 б.

⁵⁴ Абдурахмонов Е. Карвон йўлларида пулат изларга. Ўзбекистон жанубий вилоятлари темир йўли тарихидан. – Қарши, 2000. – 654 б.

cherkovlari, ibodatxonalari, qabristonlari ham paydo bo'lgan edi. 1926-yilgi aholi ma'lumotlariga ko'ra shahar aholisining umumiy soni 15198 kishini tashkil qilib, shundan 11267 kishi o'zbeklar, 3097 kishi rus, ukrain va boshqa xalqlar vakillari edi»⁵⁵.

Jamiyat modernizatsiya qilinar ekan, turli millatlarning ongli va yaqin integratsiyalashuviga o'tish jarayoni tezlashadi.

Millatlararo munosabatlar madaniyati milliy hamjamiyatlarning rivojlanishi va yaqinlashuviga asoslanadi va xalqlarning iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotda haqiqiy tengligini, o'zaro do'stona yordamni, bir-birining milliy manfaatlarini va milliy farqlarini hisobga olishni, bir-birini hurmat qilishni ta'minlaydi. Bu xususiyatlar do'stona xalqlar, milliy va etnik guruhlarining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy hayotining umumiyligi, ilmiy dunyoqarashning birligi bilan belgilanadi. Professor T.Mahmudov inson ongida va hayotida tabiat, jamiyat bilan o'zaro uyg'unligining vujudga kelishi haqida shunday yozadi: «Qachonki, odamzod o'zini tabiat va koinot sarvari sifatida his qilgandan keyin, jamiyat hayoti va inson umri insoniy ehtiyojlarni aql bilan qondirish hamda ma'naviy munosabatlarni o'rnatish ekanligini tushunib yetgandan so'ng, tasavvur va tushuncha o'rtasidagi ziddiyat kamaya boradi, jamiyat deb atalmish odamlarni bir-biriga bog'liq hamda bir-birisiz yashashining iloji bo'lmagan birligi vujudga keladi»⁵⁶.

Tarkibiy jihatdan, millatlararo munosabatlar madaniyati uning ikkita asosiy tarkibiy qismi dialektik o'zaro bog'liqlik mavjudligi bilan belgilanadi. Birinchisi, milliy jarayonlarning mohiyatini ilmiy bilish va tushunish darajasi, ilmiy milliy siyosat tamoyillari va talablariga rioya qilish zarurati kabi insoniy fazilatlar majmuiyni o'z ichiga oladi. U muloqot predmeti orqali anglashning chuqurligini, ya'ni individual internatsionalistik ong darajasini tavsiflaydi. Ikkinchisi, internatsionalizm, integratsiya, milliy muammolar haqidagi bilimlarni qo'llash imkoniyatini aniq ko'rsatib beradi, insonning mavjud milliy o'zaro ta'sir tizimi

⁵⁵ Сухарёва О.К истории городов Бухарского ханства. – Тошкент, 1958. – С. 118.

⁵⁶ Махмудов Т. «Авесто» ҳақида. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 30.

talablariga amaliy munosabatini baholashga imkon beradi. Turli millat vakillarining kundalik muloqot madaniyati holati aholining ijtimoiy yetukligi mezonini ekanligi bejiz emas.

«Millatlararo jamiyat madaniyati» tushunchasini tahlil qilar ekanmiz, «millatlararo munosabatlar» tushunchasi bilan uzviy hisoblangan «milliy munosabatlar» kabi tushunchaga duch kelamiz. Ko'pgina ilmiy tadqiqotlarda bular ko'pincha bir-biridan farq qilmaydi, chunki ular bir martalik va bir vaqtning o'zida o'zaro bog'liqdir. Ichki tuzilmalarga, turli bog'lanishlar tizimiga kirib, ular tasodifiy va zaruriy, ijtimoiy va shaxsiy, chuqur, muhim va sirtida sodir bo'ladigan hodisalarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun turli milliy jamoalar o'rtasidagi munosabatlarga ko'pincha millatlararo munosabatlar, turli millatlar o'rtasidagi munosabatlarga esa milliy munosabatlar sifatida qaraladi. Shuni yodda tutish kerakki, milliy munosabatlar turli darajalarda-umumiy va individualdir. Shu munosabat bilan, birinchi navbatda, milliy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini bilishimiz zarur.

Milliy munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos shakli bo'lib, u teng huquqli fuqarolar va xalqlarning o'zaro ishonchiga asoslangan millatlararo munosabatlar tizimidir. Bu tizimga xalqlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, davlat-huquqiy, mafkuraviy, axloqiy-psixologik, madaniy-maishiy va boshqa munosabatlari kiradi. Milliy munosabatlarning o'ziga xos xususiyati ularning subyekti ijtimoiy-etnik jamoa: millatlar, milliy va etnik guruhlar ekanligi bilan belgilanadi. Demak, milliylik xalqlar ishidagi va xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy munosabatlarga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Bularning barchasi, o'z navbatida, milliy munosabatlarning nisbiy mustaqilligini va ularning o'ziga xos qonuniyatlarini belgilaydi. Demak, millatlararo munosabatlar ham milliy, ham umumiy munosabatlarning zaruriy jihati hisoblanadi, chunki insoniy munosabatlar ularning o'zaro munosabatlaridan boshqa narsa bo'la olmaydi.

Millatlararo munosabatlar natijasida integratsiya jarayonlarining turli shakllari vujudga keladi. Millatlararo munosabatlar kichik mintaqada, ko'p millatli

mamlakat doirasida, shuningdek, xalqaro munosabatlar sohasida amalga oshiriladi. Shuning uchun ular geografik joylashuvi va aloqada ishtirok etadigan odamlarning tarkibiga qarab juda xilma-xildir. Demak, millatlararo munosabatlar tabiiy, obyektiv dialektik jarayon bo'lib, barcha xalqlar uchun foydali, shuning uchun ixtiyoriylik va o'zaro tushunish asosida amalga oshiriladi. U insoniyat madaniyati rivojining natijasi, har bir shaxsning yashashi va rivojlanishining asosiy shartidir. Millatlararo munosabatlar milliy jarayonlarning shakli bo'lib, xalqlar hayotining barcha sohalariga-iqtisodiyot, siyosat, fan, madaniyat va boshqalarga ta'sir qiladi. Shu boisdan ham milliy munosabatlarni rivojlantirish umumiy jarayonning bir qismi sifatida belgilanishi mumkin. Ularning har birida o'zaro ta'sir qiluvchi va bir-birini to'ldiradigan odamlarning millatlararo munosabatlarining o'ziga xos shakllari va usullari mavjud. Millatlararo munosabatlarning o'ziga xos ichki «mexanizmlari» esa ijtimoiy tuzilmalar va suhbatdoshlarning shaxsiy xususiyatlari bilan belgilanadi.

Shuni yodda tutish kerakki, insoniy munosabatlarning baynalminalistik yetuklik darajasi nafaqat uning madaniy tamoyillarini o'zlashtirish, har qanday holatda ham yuksak milliy fazilatlarning rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Millatlararo munosabatlar tamoyillariga amal qilgan shaxs odatda ijtimoiy faol, istiqbolli va ertangi kunga ishonch bilan qaraydi.

Etnik to'qnashuvlar turli xalq, millat va elatlar o'rtasidagi millatlararo nizolar mustaqillikka, siyosiy hokimiyatga intilishga, diniy va etnik kamsitishlarga va hokazolarga olib keladi.

Etnik to'qnashuvlar turli sabablarga ko'ra paydo bo'ladi. Bugungi kundagi Isroil - Falastin mojarosi buning yorqin ifodasidir. 1947 yilda arablar esa yahudiylarning hududiga bositirib kirishdi. Ko'p yillik qurolli to'qnashuvlar hali hanuz davom etmoqda. Millatlararo nizolar ishtirokchi guruhlarining adovatini yanada kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Buni Turkiyadagi Kurd muammosining o'zi ham isbotlab turibdi. Kurdlar o'zlari to'plangan mintaqada kurd davlatini barpo etish maqsadida turk-kurd ziddiyatini keltirib chiqarishmoqda.

G'arbiy Yevropada terrorizm tahdidi islom bilan bog'lanib, ba'zan

musulmonlarning ta'qib qilinishiga sabab bo'lmoqda. Ayrim hollarda alohida millatning o'ta shovinistik so'zlari ham millatlararo nizolarni keltirib shiqaradi. Masalan, sobiq Yugoslaviya davlatidagi serblar va albanlarning shovinistik tashviqoti boshqa etnik guruh vakillarini tozalash yoki ta'qib qilish siyosatini olib borishiga sabab bo'ldi. Natijada, Yugoslaviya xalqlarining millatlararo nizolari birlashgan davlatning parchalanishiga olib keldi. Jahon siyosatida millatlararo nizolar antisemitizm targ'iboti bilan bog'liq holda tez-tez takrorlanmoqda. Ma'lumki, Germaniya va Italiyada yahudiylarga qarshi qirg'inlar bo'lgan. Millatlararo nizolar milliy jarayonlar va milliy hayotning ajralmas qismidir. Siyosiy barqarorlik, ijtimoiy totuvlik va millatlararo tinchlikni saqlash uchun millatlararo nizolarni keltirib chiqaradigan qarama-qarshilik va muammolarni doimiy ravishda hal etish zarur. Misol uchun, yurtimizda milliy tilni rivojlantirish muammosining hal etilmagani mamlakatdagi aksariyat ziyoli kishilarning e'tiroziga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun milliy tilni rivojlantirish yo'llarini taqdim etish orqali yuzaga kelishi mumkin bo'lgan millatlararo nizolarning oldini olish imkoniyatini yaratish zarur.

Bugungi globallashuv davrida turli millat va elatlarning munosabatlarini har qanday siyosiy mexanizmlar orqali tartibga solish imkonsiz bo'lib bormoqda. Aslida siyosat millatlararo munosabatlarni keskinlashtiradigandek go'yo. Shunday ekan, dunyo xalqlari o'rtasida o'zaro munosabatlar madaniyatini shakllantirish masalasi bugungi kun tartibidagi dolzarbligini yo'qotmaydi. Bugungi kun tartibida so'nggi o'n yilliklardagi migratsiya inqirozi ayniqsa, G'arbiy Yevrorada tobora keskinlashib bormoqda. O'z vaqtida Fransiya «multikulturalizm» g'oyasini ilgari surdi va sobiq Afrika koloniyalaridan kelgan qochqinlarni Yevropaliklar hayotiga moslashtirish siyosatini amalga oshira boshladi. Ko'rinib turibdiki, mamlakat bu borada sezilarli yutuqlarga erishdi. Biroq bugun millatlararo tinchlik o'rnatildi, qochqinlar oqimi bosim ostida emas, desak xato qilgan bo'lamiz.

Bundan bir necha yil avval Fransiya shaharlarida sodir bo'lgan dahshatli terrorchilik harakatlari ham shundan dalolat beradi. Ko'rinishidan obod jamiyatda bunday hodisalarning paydo bo'lishi esa muammoning to'liq hal etilmaganini

bildiradi. Ya'ni turli millatlarning bir-biriga munosabati o'zgarmagan. Jamiyatda bag'rikenglik yo'q. Shu bilan birga, hukumatning «multikulturalizm» siyosatini olib borishiga qaramay, «millatlararo munosabatlar madaniyati»ni to'liq shakllantira olmadi. Chunki, chinakam birlik va tinchlik ana shu muloqot madaniyati bilan chambarchas bog'liq. Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin birdaniga mustaqillikka erishgan respublikalarda millatlararo munosabatlar masalasi juda jiddiy muammoga aylandi. Bir qator mamlakatlarda bu unchalik kuchli bo'lmagan bo'lishi mumkin, chunki aholi nisbatan barqaror edi. Biroq, bir qancha respublikalarda aholining etnik tarkibi juda xilma-xil bo'lgan. Bu mamlakatlarda etnik adovat masalasi qurolli to'qnashuv darajasiga yetgan. Yaxshiyamki, O'zbekiston hukumati bunday salbiy holatlarning oldini oldi. Bugungi kunda mamlakatimizda shakllangan, mustahkamlanib, rivojlanib borayotgan milliy madaniyat integratsiyasi butun dunyoda millatlararo munosabatlarning rivojlanishiga asos bo'ldi.

Mustaqil O'zbekiston tarixi og'ir damlarda ham ezgulik, hamkorlik va o'zaro yordam an'analarini saqlab qolgan, har bir zarbaga qarshi turib, birdamlik bilan g'alaba qozongan xalq tarixidir. Zero, har bir O'zbekistonlik uchun mustaqillik, eng avvalo, mamlakatimiz milliy boyligini oshiruvchi, navqiron avlodni Vatanga cheksiz mehr-muhabbatda tarbiyalayotgan barcha xalqlarning umumiy mehnatidir. Bu g'oyalar O'zbekistonning asosiy qadriyatiga aylandi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning siyosiy irodasi tufayli mamlakatimizda millatlararo bag'rikenglik va ijtimoiy totuvlikning o'ziga xos modeli shakllantirildi. O'tgan yillar davomida ana shu model asosida millatlararo munosabatlar madaniyati shakllandi.

Bugungi kunda millatlararo munosabatlar madaniyati faqat o'zaro hurmatdan iborat emas. O'zbekistonda shakllangan ma'naviy qadriyatlar dunyoviy madaniyat, fuqarolik jamiyati normalari, ta'lim va mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga chuqur singib ketgan. Ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyat O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi uchun muhim intellektual resursga aylandi. Tinchlik va totuvlikni, diniy bag'rikenglikni mustahkamlash, xayriya, milliy ongni,

ideallarni shakllantirish, jamiyatni umumiy fuqarolik va demokratik qadriyatlar asosida shakllantirishni endi millatlararo munosabatlar madaniyatiga bog'lash mumkin.

Bugun mamlakatimiz oldiga qo'yilgan buyuk maqsad – barcha xalqlar uchun umumiy qadriyatlar va tamoyillar tizimini tan olishga qaratilgan birlikka erishishdir. O'zbekistonda erishilgan barcha yutuqlarning garovi xalqning birdamligidir. Bugungi kunda u mamlakat aholisining ko'pchiligi tomonidan o'zlashtirildi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Tinchlik va barqarorlik milliy yutuqdir, uni har kuni himoya qilish va mustahkamlash zarur. Ko'ngli ochiq fuqarolarimiz buni juda yaxshi tushunadi. Aynan shuning uchun ham O'zbekiston bugun butun dunyoda millatlararo tinchlikni asrab-avaylovchi va targ'ib qiluvchi, boshqalarga o'rnak bo'layotgan noyob davlat sifatida e'tirof etilmoqda.

Hozirda, eng muhimi, sivilizatsiyalashgan iqtisodiyot, obod siyosiy-ma'naviy tuzilma va rivojlangan infratuzilma – milliy hamjihatlik va birdamlikni shakllantirishdir. Demak, tolerantlik deganda, tor ma'noda, turli xil dinlarni inkor etmaslik, dinlararo bag'rikenglik tushuniladi. Ayni paytda, tolerantlik keng ma'noda faqatgina dinlararo munosabatlarga tegishli deb emas, balki butun millatlar va elatlarning hozirgi zamondagi turli-tuman turmush tarzlariga tegishli, deb tushunilishi kerak. Shu ma'noda, «tolerantlik» so'zining tushunilishi va talqini kengayib bormoqda¹.

Hozirgi davrda insoniyot dunyosini integratsiya va parchalanish jarayonlari o'rtasidagi qarama-qarshilik sifatida ko'rsatish mumkin. Bir tomondan, ijtimoiy aloqalarning keng doirasi-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqalarning rivojlanishi va faollashishi tufayli o'ziga xos faoliyat va aloqalarning yangi turlarining paydo bo'lishi va aktuallashtirishi, inson dunyosini yaxlitlik va birlik xususiyatlariga ega bo'lishiga olib keldi. Shu boisdan ham, insoniyatning umuminsoniy ehtiyojlari va hayotini ta'minlash muammolari, umumiy tarixiy taqdirlar va xalqlar xavfsizligi

¹ Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат. Р.Рўзиев ва Қ.Хоназаров умумий таҳририда. Тўлдирилган учинчи нашри. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б. 345-346.

to'g'risida xabardorlik kuchayib bormoqda, bu davrda zamonaviy inson dunyosi global xususiyatga ega. Boshqa tomondan, milliy va shaxsning o'zini o'zi anglashi va ularning ozod bo'lishi ta'sirida alohida jamiyatlarning parchalanishi, ijtimoiy hayot subyektlarining izolyatsiyasi va ajralib chiqishi kuzatilmoqda.

Zamonaviy dunyoning dolzarb jarayonlari ko'plab dunyoqarash tizimlari va munosabatlarining o'zgaruvchanligi va moslashuvchanligiga ta'sir qiladi. Ularning mazmuni haqiqiy ijtimoiy ehtiyojlarga moslashish va siyosiy raqobatchilarning g'oyalari va tamoyillari bilan muvofiqlashtirishni aniq ochib beradi. Zamonaviy demokratik asoslarning shakllangani buning dalilidir. Shu boisdan ham, bag'rikenglik muammosi O'zbekistonda fuqarolik-huquqiy ongning paydo bo'lishi va rivojlanishiga bag'ishlangan tadqiqotlarda, ayniqsa, mamlakatni zamonaviy liberallashtirish va demokratlashtirishga murojaat qilgan va ularning tarixiy kelib chiqishi va dolzarb sharoitlarini aniqlashga intilgan jamiyatshunos olimlarning asarlarida qizg'in muhokama qilinmoqda.

Tadqiqotlar natijasida, zamonaviy dunyoning globallasuvi sharoitida plyuralizm va bag'rikenglik tamoyillariga asoslangan yangi tipdagi ijtimoiy munosabatlarga o'tish zarurati yaqqol namoyon bo'lmoqda. XX asrning fojiali tajribasi bizni xalqaro munosabatlar sohasida murosasizlikning yanada tarqalishi insoniyat mavjudligini shubha ostiga qo'yishni tan olishga majbur qiladi. Zamonaviy jamiyatda bag'rikenglikning yo'qligi tizimli inqirozni yengib o'tishga to'sqinlik qiluvchi omillardan biridir.

Uzoq vaqt davomida davlatlararo munosabatlarda qabul qilingan ijtimoiy normalar Yevropa davlatlari tomonidan suverenitet va milliy huquqlarni saqlab qolish uchun o'z imkoniyatlarini tashkil etishga qaratilgan edi. Yevropa davlatlari xalqaro munosabatlarni o'z standartlariga moslashtirishdi. Sivilizatsiya mezonlari o'rniga, xalqaro muloqotning yangi tamoyillari -kamsitmaslik va shaxsiy huquqlar rivojlantirilgan edi. Dunyoning zamonaviy ko'rinishini zabt etish madaniyat va axloqiy qadriyatlarning ustuvor yo'nalishiga aylandi.

O'zbekiston Respublikasida bag'rikenglikni institutsionallashtirish milliy qonunchilik, shuningdek, bag'rikenglikni shakllantirishda ishtirok etadigan

ijtimoiy institutlar va davlat idoralarini belgilaydigan davlat dasturlari orqali amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda bag'rikenglikni institutsionallashtirish O'zbekistonning milliy xavfsizligini ta'minlash jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u me'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Biroq bag'rikenglikni shakllantirish zaruratini bunday ko'rib chiqish, bizningcha, bag'rikenglikning xulq-atvor standarti, bag'rikenglikni shakllantirish esa fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga ko'maklashishning milliy strategiyasi sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy faoliyat, shu jumladan, bag'rikenglikka asoslangan, bir tomondan, ijtimoiy hayotning genetikasi, uning voqeligi bo'lsa, ikkinchi tomondan, u insoniyatning o'zaro maqbul murosalarini izlash istagi kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Birinchidan, bag'rikenglik-bu madaniyatning yaxlitligi amalga oshiriladigan tejamkor yondashuv. Bag'rikenglik yaxlitlik talablarini turli modallik subyektlari faoliyat sohasining xilma-xilligi orqali amalga oshiradi, bu ularning har biri uchun birgalikda yashash zarurligini anglatadi. Ikkinchidan, bag'rikenglik kechikkan salbiy reaksiya bilan birgalikda yoqtirmaslikni o'z ichiga olish va uni neytral yoki ko'proq ijobiy bilan almashtirishdan iborat. Bag'rikenglik-bu kimdir boshdan kechiradigan, lekin uni faol ravishda ifoda etmaydigan, unga zid bo'lgan ko'rinishlarni bostirishga yoki taqiqlashga harakat qilmaydigan dushmanlikni saqlashni anglatadi. Ushbu ta'rif va bag'rikenglikni nazariy tushuncha va amaliy tamoyil sifatida o'rganishda mavjud yondashuvlar bag'rikenglikning aks ettirilgan shakllarini bag'rikenglikdan (zaif, yuzaki bag'rikenglik) o'zaro boyituvchi tanqidiy muloqot(barqaror bag'rikenglik)gacha tizimlashtirish imkonini beradi. Uchinchidan, bag'rikenglik-bu shaxsga xos xususiyatdir, lekin tug'ma emas, balki ijtimoiy muhit ta'sirida shakllantiriladi. Bag'rikenglikni shakllantirishning muhim shartlari-axloqiy tarbiya, o'z-o'zini anglash, onglilik, qiziquvchanlik, o'zini o'zi qadrlash, ichki erkinlik, tanqidiylik, ochiqlik va boshqalardir. To'rtinchidan, plyuralizm jamiyatda ko'plik va xilma-xillikning mavjudligini bildiradi, bag'rikenglik esa butun tizimning faoliyat yuritishi va mavjudligini ta'minlovchi birlik tamoyilini joriy qiladi.

Bag'rikenglik prinsipi despotizm asoslarini aniqlash va uning namoyon bo'lishining oldini olishga keng imkon beradi, chunki u o'zaro ta'sir qiluvchi subyektlar pozitsiyalarining tengligi o'rtasidagi farqni nazarda tutadi. Beshinchidan, diniy ko'rinishdagi bag'rikenglik kuchli markazlashgan davlat hokimiyatining o'rnatilishi tufayli din ijtimoiy institut sifatida shakllanmaguncha va u darajada dunyoqarash shakli sifatida har qanday dinning muhim xususiyati hisoblanadi. Dinni siyosiylashtirish, mafkuralashtirish va institutsionallashtirish muqarrar ravishda diniy bag'rikenglikning begonalashishiga olib keladi. Oltinchidan, bag'rikenglik tamoyili qadriyatlar va manfaatlar to'qnashuvlarining birligi bo'lgan etnik nizolarni hal qilish uchun yetarli asosdir. Bag'rikenglik o'zining doimiy shaklida turli qadriyatlarning o'zaro tan olinishi va o'zaro hurmat asosida, hatto bir-birini rad etishiga qaramay, birga yashashga imkon beradi.

2.3-§. Yoshlarda ma'naviy-axloqiy dunyoqarash va bag'rikenglik madaniyatini yuksaltirishda ijtimoiy muhitning ahamiyati

Zamonaviy dunyodagi bag'rikenglik fenomeni va uning tobora kuchayib borayotgan globallashuv jarayonlari bilan aloqasini uning umuminsoniy demokratik qadriyat sifatida o'rganish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Shu bilan bir qatorda, globallashuv o'zida etnik va madaniy identifikatsiya jarayonlarini, milliy va diniy ongning tiklanishidagi turli murakkab holatlarni ham namoyon etadi. Shu boisdan ham yoshlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashiga yot bo'lgan qadriyatlar va xulq-atvor me'yorlarining beqarorligi, tajovuzkorligi an'anaviy madaniyat inqiroziga olib kelishi mumkin. Shuni unutmashimiz kerakki, «globallashuv jarayoni, uning milliy g'oyaga ta'sir etishi ham umumiy qonuniyatdir. Bu jarayon turli mamlakatlar, xalqlar hayotida ularning bir-biriga bog'liqligini, o'zaro ta'sirini oshiradi, ma'naviy, g'oyaviy hayotida aks etmasdan qolmaydi»⁵⁷.

Jahon hamjamiyati va uning ilmiy tushunchasi hayotida millatlarning

⁵⁷ Миллий истиқлол ғояси ва раҳбар фаолияти. – Тошкент: Академия, 2007. – Б. 17.

xalqaro, konfessiyalararo va madaniy aloqalarining murakkab jarayonlariga mos keladigan eng muhimlaridan biri bu – bag‘rikenglik hodisasidir. Bag‘rikenglik zamonning o‘ziga xos imperativi sifatida xalqaro, ijtimoiy va shaxslararo munosabatlar strategiyasi va taktikasiga aylandi. Insoniyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichi ko‘p yo‘nalishli va asosan, qarama-qarshi tendensiyalar bilan tavsiflanadi. Mustaqil tarixiy ijod maydonida milliy-davlat tuzilmalari, etnik va konfessional jamoalar, shuningdek, madaniy o‘ziga xoslikka ega bo‘lgan ko‘plab ijtimoiy-madaniy guruhlar ko‘rinishidagi yangi ishtirokchilarning paydo bo‘lishi tufayli dunyo ko‘p qutbli, mozaik ko‘rinishga ega bo‘lib bormoqda.

Globalashuv sharotida bag‘rikenglik xususiy va umumiylikni, tafovutlar va birlikni insonparvar maqsadlardan kelib chiqqan holda bir-biriga bog‘lovchi o‘ziga xos ko‘prik bo‘lib xizmat qilishi kerak. Shuningdek, aynan insonparvarlik g‘oyasi globalashuvining yo‘llari va mexanizmlarini izlash, eng avvalo, insonparvarlik madaniyatini shakllantirish va umumjahon ma‘naviy-axloq tamoyillarini jamiyat hayotiga samarali tatbiq etishni nazarda tutadi. Ularning mazmuni zo‘ravonlik qilmaslik va har bir inson hayotini hurmat qilish, milliy madaniyat va qadriyatlarga sadoqat, birdamlik va adolatli iqtisodiy tartib, altruizm, tejamkorlik va saxovat, rahm-shafqat va mas‘uliyat, bag‘rikenglik va sabrlik, har doim yangilikka intilib yashash, nafaqat bugungi kun, balki o‘tmishga ham hurmat bilan qarashni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, S.Otamurodov ta’kidlaganidek: «Globalashuv bilan bag‘rikenglik o‘rtasidagi munosabatlarda ma’rifiy omil ustuvor darajada amal qilsagina milliy ma‘naviy va axloqiy qadriyatlarning milliy taraqqiyotga o‘z ta’sirini o‘tkazish imkoniyati kengayib borishi mumkin. Aslida, globalashuv bilan bag‘rikenglik bir-biriga zid bo‘lgan omillar hisoblanadi»⁵⁸.

Bag‘rikenglik passiv qabul qilish emas, balki noaniq, tushunarsiz, begona bilan aloqa nuqtalarini faol izlashdir. Hozirgi vaqtda dunyoda tajovuz kuchayib, ijtimoiy-siyosiy, diniy, etnik muammolarni hal qilishning zo‘ravonlik usullari keng qo‘llanib borayotgan bir paytda, boshqa tizimni oqlaydigan hayotiy qadriyatlar va

⁵⁸ Отамуратов С. Глобализация и бағрикенгликнинг ўзаро нисбати // Модернизация, инновацион тараққиёт ва толерантлик ривожини таъминловчи (1-китоб). – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2010. – Б. 26.

ustuvorliklarga ega bo'lgan bag'rikenglik falsafasini yoyishga intilish tabiiydir. Bag'rikenglik turli etnik guruhlar, dinlar va madaniyatlar vakillariga hurmat-ehtirom sifatida zamonaviy sivilizatsiyaning saqlanib qolishi va rivojlanishining ajralmas shartidir. Bag'rikenglik boshqalarni qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilishga, ular bilan muloqot va kelishuv orqali muloqot qilishga tayyorlikni anglatadi. Zero, «polietnik birliklarning tahdidbardoshlik salohiyati jamiyatda milliy totuvlikning ta'minlanganlik darajasiga bog'liqdir»⁵⁹.

Sharq sivilizatsiyasi va madaniyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bu hududning milliy-madaniy an'analari doirasidagi bag'rikenglikni anglash o'ziga xos madaniyat shaklini aks ettiradi, u tabiiy yoki ijtimoiy jarayonga aralashmaslik tamoyiliga asoslanadi.

